

ResearchBib Impact Factor: 9.576 / 2023



TECHNICAL SCIENCE **RESEARCH** IN UZBEKISTAN

Research Science and
Innovation House

OUR INDEXING



ISSN: 2992-9148 <http://universalpublishings.com>

ResearchBib Impact Factor: 9.576 / 2023



TECHNICAL SCIENCE
RESEARCH
IN UZBEKISTAN



Research Science and
Innovation House

VOLUME 1 **ISSUE 5**

DEKABR 31, 2023

editor@universalpublishings.com

<http://universalpublishings.com>

«TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN» ilmiy-uslubiy
jurnali: 31.12.2023 yil.

Ushbu to'plamda «TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN» ilmiy-uslubiy jurnali 2023 yil 1-soni 5-qismiga qabul qilingan maqolalar nashr etilgan.

Jurnal tarkibidagi barcha maqolalarga DOI unikal raqami biriktirilib, **Directory of Research Journals Indexing, Researchbib, Index Copernicus, Zenodo, Open Aire, Google Scholar** xalqaro ilmiy bazalarida indekslandi.

OAK tomonidan dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan jurnallar ro'yxatidagi milliy jurnallarda chiqarilgan maqolalar sifatida rasman tan olinadi.

Asos: O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxati 3-sahifasi. – Toshkent: 2019. – 160 b.

Jurnal materiallaridan professor-o'qituvchilar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, magistrantlar, talabalar, litsey-kollejlar va maktab o'qituvchilari, ilmiy xodimlar hamda barcha ilm-fanga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Eslatma! Jurnal materiallari to'plamiga kiritilgan ilmiy maqolalardagi raqamlar, hisobotlar, ma'lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to'g'riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.



“RESEARCH SCIENCE AND
INNOVATION HOUSE” MCHJ



TAHRIRIYAT

Bosh muharrir, Eshqarayev Sadridin Chorievich – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti tibbiyot va tabiiy fanlar kafedrasini mudiri, kimyo fanlari falsafa doktori, dotsent Termiz, O‘zbekiston.

Mas’ul kotib: Boboyorov Sardor Uchqun o‘g‘li Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali talabasi

Nashrga tayyorlovchi: Eshqarayev Samariddin Sadridin o‘g‘li Termiz muhandislik-texnologiya instituti talabasi

TAHRIR KENGASHI A’ZOLARI

Texnika fanlari muharriri, Eshqarayev Ulug‘bek Chorievich – Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasini dotsenti, texnika fanlari nomzodi, Denov, O‘zbekiston.

Texnika fanlari muharriri Babamuratov Bekzod Ergashevich – Termiz davlat universiteti fizik kimyo kafedrasini dotsenti, falsafa fanlari doktori, Termiz, O‘zbekiston.

Kimyo fanlari muharriri Mirabbos Xojamberdiev Ikromovich- Berlin Technische Universität dotsenti, kimyo fanlari doktori, Berlin, Germaniya

Kimyo fanlari muharriri, Eshqurbonov Furqat Bozorovich – Termiz muhandislik-texnologiya instituti, kimyo fanlari doktori, Termiz, O‘zbekiston.

Iqtisodiyot fanlari muharriri Otamurodov Shavkat Tillayevich – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti prorektori, iqtisod fanlari doktori, Termiz, O‘zbekiston.

Ijtimoiy va gumanitar fanlar muharriri, Xudoyberdiyev Xursand Xudoyberdiyevich – Termiz muhandislik-texnologiya instituti, ijtimoiy-gumanitar fanlar doktori, Termiz, O‘zbekiston.

Tibbiyot fanlari muharriri Otamurodov Furqat Abdulkarimovich, Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali direktori, Termiz, O‘zbekiston tibbiyot fanlari falsafa doktori, Termiz, O‘zbekiston.

Biologiya fanlari muharriri Nurova Zamira Annakulovna Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali. Termiz, O‘zbekiston, biologiya fanlari doktori, dots., Termiz, O‘zbekiston.

Tibbiyot fanlari muharriri Turabayeva Zarina Kenjabekovna Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali, tibbiyot falsafa fanlari doktori, Termiz, O‘zbekiston.

Sotsiologiya fani muharriri Eryigitova Lobar Qodirovna Termiz muhandislik-texnologiya instituti, falsafa sotsiologiya fanlari doktori, Termiz, O‘zbekiston.

Filologiya fanlari muharriri Jo‘rayeva Ramziya Abdurahimovna Qo‘qon davlat pedagogika instituti. Qo‘qon, O‘zbekiston filologiya fanlari doktori (PhD), katta o‘qituvchi.

Fizika-matematika-fanlari muharriri Bobamuratov Ulug‘bek Erkinovich Termiz muhandislik-texnologiya instituti, falsafa fanlari doktori, fizika-matematika-fanlari, Termiz, O‘zbekiston.

Tibbiyot fanlari muharriri Axmedov Kamoliddin Xakimovich Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali 1-son davolash fakulteti dekani, tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

Tibbiyot fanlari muharriri Vohidov Alisher Shavkatovich Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali Umumiy xirurgiya, bolalar xirurgiyasi va bolalar urologiyasi kafedrasini mudiri Tibbiyot fanlari doktori, professor

Gumanitar fanlar muharriri Rahmonov Abduqahhor Abdusattorovich Ma‘naviy-axloqiy tarbiya va yoshlar bilan ishlash bo‘yicha direktor o‘rinbosari, falsafa fanlari doktori (PhD)

**КИЧИК ЎЛЧАМЛИ ОЗУҚА ТАРҚАТИШ ҚУРИЛМАСИДА
ОЗУҚА ТАРҚАТИШ МИҚДОРНИНГ КУРАКЧАЛИ РОТОР
АЙЛАНИШЛАР СОНИГА БОҒЛИҚЛИГИ**

Дилшод Хушвақтович ХУДАЙНАЗАРОВ

Катта ўқитувчи

Тошкент Давлат Техника Университети

Тошкент, Ўзбекистон

Xudoynazarov.Dilshod@inbox.ru

Баҳром Шамсиддин ўғли МУРОДОВ

Стажиёр-ўқитувчи

Тошкент кимё-технология институти Янгиер филиали

Сирдарё, Ўзбекистон

Аннотация.

Республикамизда чорва моллари асосан кичик оилавий чорвачилик хўжаликларида боқилапти. Бу хўжаликлар учун озуқаларни майдалашда фойдаланиладиган кичик қурилмалар мавжуд бўлсада, аммо озуқа тарқатадиган қурилма йўқлиги сабабли озуқа тарқатиши ишлари кўп меҳнат сарфлаб, қўлда бажарилмоқда. Шунини ҳисобга олиб кичик хўжаликлар учун озуқа тарқатишида қўлланиладиган қурилма ишлаб чиқилди ва унинг куракчали ротори айланишлар сонига боғлиқ ҳолда озуқа тарқатиши меъёрининг ўзгариши тадқиқ этилди.

Калит сўзлар. *Куракчалар, ротор, дагал озуқалар, планка, бункер тукиши дарчасининг эни, тукиши дарчасининг баландлиги, куракча иш сиртининг эни, фракция.*

Аннотация.

В нашей республике крупный рогатый скот содержится преимущественно в небольших семейных животноводческих фермах. Хотя на этих фермах имеется небольшое оборудование для измельчения корма, из-за отсутствия оборудования для раздачи корма раздача корма является трудоемкой и осуществляется вручную. С учетом этого было разработано используемое в небольших хозяйствах устройство для раздачи корма и изучено изменение скорости раздачи корма в зависимости от количества оборотов его лопастного ротора.

Ключевые слова. *Лопасты, ротор, грубые корма, планка, ширина цевья бункера, высота вертовки, ширина рабочей поверхности лопасти, фракция.*

Annotation.

In our republic, cattle are kept mainly in small family livestock farms. Although these farms have small feed grinding equipment, due to the lack of feed

distribution equipment, feed distribution is labor intensive and done manually. Taking this into account, a device for distributing feed used in small farms was developed and the change in the speed of feed distribution depending on the number of revolutions of its bladed rotor was studied.

Keywords. *Blades, rotor, roughage, bar, width of the hopper forend, height of the spinner, width of the working surface of the blade, fraction.*

Ўзбекистонда чорва моллари асосан кичик оилавий чорвачилик хўжаликларида боқилляпти. Ўзбекистонда чорва молларини боқиш билан шуғулланадиган кичик чорвачилик хўжаликлари сони 5 миллионга яқинни ташкил этади.

Чорва молларни боқиш учун озуқа тайёрлаш албатта уларни майдалаш, аралаштириш ва тарқатишни ўз ичига олади. Бу операциялардан асосан озуқа самарадорлигини ва ҳайвонлар унумдорлигини аниқлашда фойдаланиш. Бир техник воситада икки ва ундан ортиқ операцияларни бирлаштириш иқтисодий нуктаи назардан энг оқилона ҳисобланади, чунки у тўлиқ озуқа аралашмаларини тайёрлаш жараёнининг энергия ва металл сарфини камайтиради, шунингдек юклаш, тушириш ва ташиш операциялари сонини камайтиради [1, 2].

Бугунги кунда ушбу хўжаликлар учун бугдой, арпа, соя, беда, маккажўхори ва озуқа экинларини етиштириш ва йиғиштиришда ҳамда дағал ва концентрланган озуқаларни майдалашда қўлланиладиган бир неча хил техника воситалари ва майдалагичлар ишлаб чиқилиб, фойдаланилмоқда [3].

Аммо ушбу кичик хўжаликлар учун дағал ва концентрланган озуқаларни бир-бири билан аралаштирадиган вак тарқатадиган қурилманинг йўқлиги сабабли бу ишлар қўл кучи ёрдамида бажарилляпти. Бу эса меҳнат сарфининг ортиб кетиши, озуқаларнинг яхши аралашмаслиги ва бир меъёрда тарқатилмаслигига сабаб бўлмоқда [4].

Қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришида қорамол хўжаликларида озуқа тайёрлаш ва тарқатиш учун турли тизимли ва технологик схемалар қўлланилади. Хўжаликларда ёш қорамолларни боқишнинг энг кенг тарқалган технологияси кўчма тарқатгичлар томонидан озуқа тарқатишдир. Кичик қорамол фермалари учун озуқа тайёрлаш ва тарқатиш жараёнларининг ўзига хослиги ушбу хўжаликларда озуқа тарқатишни механизациялаш учун ўзига хос ечимларни ишлаб чиқиш заруратини кўрсатади [5].

Ҳозирги вақтда жаҳон амалиётида озуқани ҳаракатга келтириб, майдалаш ва аралаштириш операцияларни бирлаштирган омехта озуқа тарқатгичлар кенг жорий этилган бўлиб, бу озуқани тайёрлаш ва тарқатиш учун операцион ва бошқа ҳаражатларнинг камайишига олиб келади. Аммо бу

озуқа тарқаткичлар йирик чорвачилик хўжаликлари учун мўлжалланганлиги сабабли 5-10 бош қорамолга ёки 50-60 бош қўйга эга кичик хўжаликларда фойдаланилганда яхши самара бермайди [6].

Шуни назарда тутган ҳолда кичик чорвачилик хўжаликлари учун озуқа тарқатишда қўлланиладиган қурилмани ишлаб чиқиш устида изланишлар олиб борилди [7]. Олиб борилган изланишлар ва хўжаликларнинг талабларидан келиб чиқиб озуқа тарқатиш қурилмасининг техник характеристикасининг асосий кўрсаткичлари шакллантирилди, унинг тажриба нусхаси яратилди. Дастлабки тадқиқотлар ўтказилиб, озуқа тарқатиш қурилмаси ротори куракчалари ва уларнинг айланишлар сонининг озуқани тарқатиш сифатига таъсири тадқиқ этилди [8].

Тажрибаларни ўтказиш учун кичик ўлчамли озуқа тарқаткичнинг тажриба нусхаси тайёрланди (1-расм). Тажрибалар ГОСТ 34748-2021 “Agricultural machinery. Feed distributors. Test methods” стандарт қўлланмасидаги услублар асосида ўтказилди [9].

Озуқа тарқаткич қурилманинг технологик иш жараёни ва ишчи қисмлари параметрларини тадқиқ этиш бўйича барча тажрибаларда тарқатиладиган дағал озуқаларнинг бир хил таркибини таъминлаш мақсадида бир хил таркибли дағал озуқалар тайёрлаб олинди. Тажрибаларда тарқаткичга вақт бирлиги ичида бир хил миқдорда дағал озуқаларни солиниши таъминланди.

Таққосланаётган тарқаткич куракчаларда туқиш учун дағал озуқалардан алоҳида-алоҳида намуналар олинди, уларнинг ўзаро нисбати бўйича майдаланган озуқалар қандай узунликда ва таркибда бўлганлиги аниқлаб борилди.

Қурилманинг ишини баҳолаш мезонлари сифатида эса тарқатиладиган озуқа миқдорининг белгиланганидан четлашиши ва тарқатилаётган озуқанинг нобудгарчилиги қабул қилинди.

Дағал озуқаларни тарқатиш сифати кўп жиҳатдан куракчали роторнинг айланишлар сонига боғлиқ бўлади. Шуни инобатга олган ҳолда, озуқа



1-расм. Кичик озуқа тарқатиш қурилмасининг тажриба нусхаси

тарқатгич қурилманинг дастлабки талаб ва техник топшириқда белгиланган иш унуми ва ўлчамидан келиб чиқиб роторнинг айланишлар сони 30 r/min дан 60 r/min гача ораликда ўзгартирилиб тадқиқотлар ўтказилди.

Тажрибалар бир омилли кўринишда ўтказилиб, бунда ротордаги куракчалар сони 2 дона, тукиш дарчасининг эни 40 sm, тукиш дарчасининг баландлиги 30 sm, тукиш дарчасининг қиялиги 35° , куракчалар ва бункер девори орасидаги тирқиш 8 sm, куракчалар ва бункер девори орасидаги тирқиш 20 mm ва куракчаланинг иш сирти эни 20 mm ни ташкил этди. Озуқани ва тарқатиш масофаси 10 метр қилиб белгиланди ва шундан ўрта қисмдаги 5 метрга тукилган озуқа массаси олиниб, унинг миқдор жиҳатидан бир хиллиги аниқланди.


Ушбу кўрсаткичларни аниқлаш учун қурилмада майдаланган сомон, маккажўхори ва беда пояларидан намуналар олиниб, тарқатилган озуқа таркибидаги фракциялар махсус лаборатория ғалвирчалари билан ажратиб олинди. Ҳар бир намунадаги фракцияларнинг массаси эса аниқлиги 0,01 g гача бўлган электрон лаборатория тарозисида ўлчаниб, массалар нисбати бўйича тарқатиш сифати аниқланди.

Озуқаларни тарқатиш бўйича ўтказилган ҳар бир тажрибада олинган намуналарнинг массаси ва таркиби бўйича уларнинг натижаларига мавжуд услубий қўлланмалар асосида статистик ишлов берилиб, уларнинг ўртача қиймати Мўрт, ўртача квадратик четланиши σ ва вариацияланиш коэффициентини V аниқланди [10].

Тажриба тадқиқотларини ўрганишда тарқатгич қурилмада озуқаларнинг тарқатиш сифатига таъсирини аниқлаш мақсадида роторнинг айланишлар сони 30 r/min дан 60 r/min гача ораликда, куракчалар сони 1 донадан 4 донагача, ораликларда ўзгартирилиб ўрганилди.

Озуқа тарқаткич қурилмада дастлаб майдаланган маккажўхори поялари, сўнгра эса беда ва сомон тарқатилди.

Майдаланган маккажўхори поясини тарқатиш бўйича ўтказилган тажрибаларда озуқа тарқаткич қурилма куракчали роторининг айланишлар сони 30 r/min бўлганда тарқатилган озуқанинг миқдори бир метрда 2,5 кг дан 2,8 кг гача оралиқда ўзгариши аниқланди ва ўртача 2,6 кг ни ташкил этди. Озуқа тарқаткич қурилма куракчали роторининг айланишлар сони 40 r/min бўлганда жами 10 метр узунликда тарқатилган озуқа миқдори 3,2-3,4 кг оралиғида ўзгарган бўлса, ўртача 3,5 kg ни ташкил этди. Куракчали роторининг айланишлар сони 50 r/min га ошганда бир метрда тарқатилган озуқа миқдори ҳам ортиб ўртача 4,4 kg га етган бўлса, куракчали роторининг айланишлар сони 60 r/min га етганда эса ҳар бир метрда тушган озуқа миқдори ўртача 5,7 kg гача ортиб бориши аниқланди (2-расм).




2-расм. Куракчали ротор айланишлар сонига боғлиқ ҳолда майдаланган маккажўхори пояларини тарқатиш миқдорининг ўзгариши

Бундан кўришиб турибдики, майдаланган маккажўхори пояларини тарқатишда озуқа тарқатиш қурилмаси куракчали роторининг айланишлар сони 30 r/min дан 60 r/min гача ортганда, тарқатилган озуқа миқдори ҳам 2,6 кг дан 5,7 кг гача ёки 2,1 мартага ортади.

Майдаланган беда поясини тарқатиш бўйича тажрибалар ўтказилганда озуқа тарқаткич қурилма куракчали роторининг айланишлар сони 30 r/min бўлганда тарқатилган озуқанинг миқдори бир метрда 2,1 кг дан 2,4 кг гача оралиқда ўзгариши аниқланди ва ўртача 2,2 кг ни ташкил этди. Озуқа тарқаткич қурилма куракчали роторининг айланишлар сони 40 r/min бўлганда бу кўрсаткич ўртача 3,0 kg ни ташкил этган бўлса, куракчали роторининг айланишлар сони 50 r/min га ошганда 4,1 kg га ва 60 r/min га

ошганда эса ҳар бир метрга тушган озуқа миқдори ўртача 5,0 kg гача ортиб бориши аниқланди (3-расм).




1) 30 r/min 2) 40 r/min 3) 50 r/min 4) 60 r/min

3-расм. Куракчали ротор айланишлар сонига боғлиқ ҳолда майдаланган беда пояларини тарқатиш миқдорининг ўзгариши

Майдаланган сомон поясини тарқатиш бўйича ҳам шу ҳолатда тажрибалар олиб борилганда куракчали роторнинг айланишлар сони 30 r/min бўлганда ҳар бир метрга тўкилган озуқа миқдори ўртача 1,08 kg, 40 r/min бўлганда 1,68 kg, 50 r/min бўлганда 2,8 kg ва 60 r/min бўлганда эса ҳар бир метрда ўртача 3,63 kg гача ортиб бориши аниқланди (4-расм).

Майдаланган сомонни тарқатишда тарқатилган озуқа миқдори ҳажми бўйича майдаланган маккажўхори ва бедадан кам бўлмаган бўлсада, аммо



1) 30 r/min 2) 40 r/min 3) 50 r/min 4) 60 r/min

4-расм. Куракчали ротор айланишлар сонига боғлиқ ҳолда майдаланган сомон пояларини тарқатиш даражасининг ўзгариши

сомон зичлигининг маккажўхори ва беда зичлигидан анча пастлиги ҳисобига сомонни тарқатишда унинг оғирлиг бўйича миқдори маккажўхори ва беданикидан камроқ бўлди.

Юқоридаги тажрибалар натижаларига кўра, дағал озуқаларнинг маккажўхори, беда ва сомон пояларини тарқатиш сифати чорва молларининг

кунлик рационадаги бир марталик озуқа миқдори маккажухори ва беда учун 4-5 kg, сомон учун 2-3 kg оралиғидаги миқдор бўйича танланиб, бунга озуқа тарқатгич куракчали роторининг айланишлар сони 50 r/min бўлганда эришилиши аниқланди. Озуқа тарқаткич қурилмаси куракчали роторининг айланишлар сони бир хил бўлишига қарамасдан маккажўхори, беда ва сомоннинг зичлиги бир-биридан фарқ ҳисобига қурилма тўкиш дарчасидан 1 метр масофага тўкилган озуқа миқдори ҳам тарқатиладиган озуқа турига қараб фарқ қилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

- [1] Sattarov N E, Borotov A N, Ashurov N A, Sattarov M N, Yunusov R F and Abduganiev A A 2020 *IOP Conf. Series: Earth and Environmental Science* **548** 072032
- [2] Gapparov Sh and Karshiev F 2020 *IOP Conference Series: Materials Science and Engineering* **883** 012158.
- [3] Astanakulov K D, Gapparov Sh, Karshiev F, Makhsumkhonova A and Khudaynazarov D 2020 *IOP Conf. Series: Earth and Environmental Science* **614** 012158
- [4] Mamatov F, Karshiev F and Gapparov Sh 2021 *IOP Conference Series: Earth and Environmental Science* **868** 012060
- [5] K D Astanakulov, G G Fozilov, N M Kurbanov, B Sh Adashev and S A Boyturayev 2020 *IOP Conf. Series: Earth and Environmental Science* **614** 012129
- [6] Alijanov D, Abdurokhmonov Sh, Jumatov Y and Bozorboev A 2020 *IOP Conf. Series: Materials Science and Engineering* **883** 012155
- [7] Borotov A 2021 *IOP Conference Series: Earth and Environmental Science* **868** 012035
- [8] Borotov A *IOP Conf. Series: Materials Science and Engineering* **883** 012160
- [9] Orlov Yu I *et al.* 1990 *Fisheries* **3** 84
- [10] Orlov Yu I and Richagov L N 1985 *Fisheries* **3** 72

PAXTA TOLASINING RD VA b+ KO'RSATKICHLARINI HISOBGA
OLIB SARALANMA TUZISH

U.N.Yusupalieva

PhD, dotsent Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti

ANNOTATSIYA

Maqolada yigirilgan ipning sifatini nazorat qilish maqsadida paxta tolasining HVI uskunasida olingan ko'rsatkichlarni qo'llash va tolalar aralashmasining muqobil tarkibini tanlash bo'yicha tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: paxta tolasini, saralanma, lot, rang ko'rsatkichlari.

ABSTRACT

In order to control the quality of the yarn, the article presents recommendations on the use of the parameters of cotton fibers obtained on the HVI equipment and the choice of the optimal composition of the fibrous mixture.

Key words: cotton fiber, sorting, lot, color indicators.

Hozirda paxta tolasidan saralanma tuzishda HVI uskunasidan olingan ko'rsatkichlardan foydalaniladi. HVI tizimi qo'llanilishi tola xossa ko'rsatkichlarini aniqlashda va saralanma, "Lot"lar tuzishda katta qulayliklarga erishildi.

Yigiruv korxonalarida paxtaning sifati ko'rsatkichlarini nazorat qilish quyida tavsiflangan uch bosqichda amalga oshiriladi:

1. Paxta toylarini tasdiqlash: ma'lum standartlariga muvofiq yuqori sifatga ega bo'lgan paxta toylarini sotib olish juda muhimdir.

Modomiki, paxta tabiiy tola, shuningdek, tijorat tovari bo'lib hisoblanar ekan, uning hammabopligi, narxi va sifati taklif va bozor talabiga binoan vaqti-vaqti bilan o'zgarib turadi. Shu bois, yigiruv korxonalarini iqtisodiyoti uchun to'g'ri keladigan, talab qilingan sifat ko'rsatkichlariga ega bo'lgan paxta toylarini maqbul narxlarda

tanlab olish juda muhimdir. Paxta toylarini uning standartlariga muvofiq qat'iy ravishda tasdiqlash lozim, aks holda bu juda ko'p nostandart toylarning to'planib qolishiga olib keladi.

2. Paxta toylarini saralash: tayyorlov punktiga paxta toylari kelib tushgandan so'ng, sinovdan o'tkazish va tayyorlov punkti meyorlariga muvofiq ularni to'g'ri saralash kerak. Iloji bo'lsa, uni omborxonalariga sinfiga muvofiq tekis taxlab qo'yish kerak.

3. Aralashtirishni rejalashtirish: paxta toylarini aralashtirish rejasini tuzish uchun paxta toylarining navi, zaxirasi va yigiruv hisobi sxemasiga muvofiq ravishda paxta toylarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan minimal o'zgarish ko'lamida tanlab olinishi kerak[1].

HVI tizimida paxta tolasining quyidagi sifat ko'rsatkichlari aniqlanadi va hisoblanadi: mikroneyr ko'satkichi (Mic), yuqori o'rtacha uzunlik (UHM), O'rtacha uzunlik (ML), uzunlik bo'yicha bir tekislik indeksi (Unf), kalta tolalar indeksi (SFI), Pishib yetilganlik darajasi (Mat), nur qaytarish koeffitsiyenti (Rd), sarg'ishlik darajasi (+b), yot aralashmalar soni (Cnt), nisbiy uzish kuchi (Str), uzilishdagi uzayish (Elg), yigiruvchanlik indeksi (SCI) [2,3].

USDA tasnifi bo'yicha tolaning rangi va iflosligi bo'yicha navi – sinalayotgan na'muna paxta tolasining tashqi ko'rinishi bo'yicha kompyuter xotirasiga olingan standart ko'rsatkichlarga taqqoslash orqali aniqlanadi.

Hozir HVI tizimida aniqlangan paxta tolasining sifat ko'rsatkichlaridan nafaqat tolani sotish va sotib olishda, shu bilan birga yigiruv korxonasida jarayonni boshqarishda ipning kutilayotgan sifatini hisoblash va saralanmaga toylarni tanlashda ham keng qo'llanilmoqda.

Tadqiqot ishlarimiz davomida yuqorida keltirilgan talablar asosida saralanma tuzildi hamda, saralanma tarkibidagi paxta tolalarining HVI ko'rsatkichlarini USTER STATISTICS 2018 ko'rsatkichlari bo'yicha solishtirilib, tahlil qilib chiqildi. Ya'ni saralanma tuzishda HVI da olingan ko'rsatkichlar USTER STATISTICS 2018 ko'rsatkichlari bilan solishtirilganda SCI (Yigiruvchanlik indeksi) ko'rsatkichlari bo'yicha 5% li sifat kategoriyasiga, Mikroneyr (Mic)

ko'rsatkichi bo'yicha 75% li sifat kategoriyasiga, (50% da 4,55 ga teng), Solishtirma uzish kuchi (Strenght) bo'yicha 50% li sifat kategoriyasiga, nur qaytarish koeffitsiyenti (Rd) bo'yicha 25% li sifat kategoriyasiga (50% da 75,6 ga teng), Sarg'ishlik darajasi (+b) bo'yicha 50% li sifat kategoriyasiga, chiqindilar miqdori (Tr Cnt) bo'yicha 75% li sifat kategoriyasiga (75% da 39 ga teng), bir xillik indeksi (UI) ko'rsatkichi bo'yicha 75% li sifat kategoriyasiga, uzilishdagi uzayishi (Elong) bo'yicha 50% li sifat kategoriyasiga, kalta tolalar indeksi (SFI) bo'yicha 50% li sifat kategoriyasiga mos keladi. (50% da 9,79 ga teng).

Saralanma tolalarining HVI ko'rsatkichlari

Viloyatlar	Tipi, navi, sinfi	Saralanmadagi ulushi, %	SCI Yigruvchanlik indeksi	Yuqori yarim o'rtacha uzunlik,		Mic mikroneyr	Strenght Solishtirma uzish kuchi, gK/teks	RD Nur qaytarish koeffitsiyenti, %	+b Sarg'ishlik darajasi	T Tresh kod	UL Bir xillik indeksi	Elong uzilishdagi uzayishi, %	SFI Kalta tolalar indeksi %	Tr Cnt Chiqindilar miqdori
				Dyum	mm									
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15
Toshkent	4-I (oliy)	22	125	1,09	27,8	4,7	29,05	77,6	10,19	4	82,2	6,1	8,5	47
Jizzax	4-I (oliy)	42	118	1,07	27,2	4,8	27,57	77,2	10,18	4	79,1	6,9	9,1	32,6
Toshkent	5-I yaxshi	36	113	1,06	27,1	4,8	27,83	78,8	9,6	3	81,4	6,7	9,2	38,8
		100	117,74	1,05	27,3	4,7	27,97	77,85	9,67	3,64	80,6	6,64	9	37,9

USDA tasnifi bo'yicha tolaning rangi va iflosligi bo'yicha navi – sinalayotgan na'muna paxta tolasining tashqi ko'rinishi bo'yicha kompyuter xotirasiga olingan standart ko'rsatkichlarga taqqoslash orqali aniqlanadi. I-nav uchun nur qaytarish koeffitsiyenti, sarg'ishlik ko'rsatkichlari $Rd \geq 75$, $+b < 10$ ga to'g'ri kelsa ko'zlangan maqsadga erishish imkonini beradi.

Adabiyotlar

1. Jumaniyazov Q.J., G'ofurov Q.G'., Yusupaliyeva U.N., Raxmatullinov F. Ipnig pishiqligi bilan tola xossalari orasidagi bog'liqlik // To'qimachilik muammolari. №2, 2012 y.

2. Yusupaliyeva U.N., Yuldashev N.N. Color quality control in the production of cotton fiber. European chemical bulletin 2022, 11(4).

3. Yusupaliyeva U.N., Yuldashev N.N. Color quality control in the production of cotton fiber. European chemical bulletin 2022, 11(4).

**PNEVMOMEXANIK YIGIRISH MASHINASINING KONSTRUKTIV
ELIMENTLARINI O‘ZGARTIRISH ASOSIDA IPNING FIZIK MEXANIK
XOSSALARINI YAXSHILASH**

katta o‘qituvchi Sh.R.Aripova,

magistr Y.R.Kobiljonova

Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya. Maqolada nazariy tadqiqotlar va tajribalardan kelib chiqib, pnevmomexanik ipning fizik-mexanik xossalarini yaxshilash maqsadida ip o‘tkazgich varonkasini yangi konstruksiyasini yaratilganligi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

O‘zbekistonda faoliyat ko‘rsatayotgan yigirish korxonalarining uskunalari fan va texnikaning so‘ngi yutuqlari kesimida tayyorlangan bo‘lib, ularda yuqori texnologiyaga mansub jarayonlar yordamida sifatli va haridorgir iplar tayyorlanmoqda.

Yigirish korxonalarining yakuniy mahsuloti yigirilgan ip bo‘lib, turli assortimentdagi yigirilgan iplar ishlatilish sohasiga va turiga qarab turli xildagi yigirish mashinalari ishlab chiqariladi.

Tadqiqotlar, izlanishlar asosida ipni shakllantirish va o‘rash jarayonlarini alohida amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘lgan yigirish usullari yaratildi va ular “ochiq uchli yigirish”, deb atalmoqda.

Ochiq uchli yigirishda halqali usuldan farqli o‘laroq quyidagi qo‘shimcha texnologik jarayonlar bajariladi:

1. Ta‘minlanuvchi piltani diskretlash (bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan alohida tolalar oqimini hosil qilish);
2. Diskret tolalar oqimini ip shakllantirish zonasiga transportirovka qilish;
3. Belgilangan ipning chiziqiy zichligini shakllantirish uchun diskret tolalarni siklik qo‘shish.

Ochiq uchli yigirishning pnevmomexanik turi dunyo to‘qimachilik korxonalarida yuqori samara bilan ishlatilmoqda.

Pnevmomexanik yigirish mashinasining konstruktiv elementlarini o‘zgartirish yo‘li bilan ipning sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilash maqsadida quyidagi ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi.

Pnevmomexanik usulda yigirilgan iplarni shakllantirishda yakka ipga buram berish, ayniqsa ipdagi buramlarni bir xil taqsimlanishi juda katta ahamiyatga ega. Yigirish kamerasi ichida shakllanayotgan ipning kamera yuzasi bo‘ylab aylanish harakati xamda ip chiqish moslamasining ichki yuzasi bilan ishqalanishi natijasida ip o‘z o‘qi atrofida aylanib yigirish kamerasida joylashgan ipning radial qismiga


qo'shimcha buram beradi. Qo'shimcha buram shakllanayotgan ipning mustaxkamligini oshishiga jarayonini yanada barqaror o'tishiga, iplardagi uzilishlari soni kamayishiga olib keladi.

Ma'lumki ip o'tuvchi zichlagichning profili ipning tashqi ko'rinishiga katta ta'sir ko'rsatadi. [1]

Ip yigirish kamerasidan chiqaruvchii kanal orqali tortib chiqariladi. Separatorning chiqaruvchi kanalining mavjud konstruksiyasida ipni pishitishda markazdan qochma kuch ta'sirida hosil bo'ladigan ip ballonida har xil o'zgarishlar hosil bo'ladi, chunki ip pishitish konusi o'zgaradi. Yigirish kamerasining ajratuvchi sirt o'qi va chiqaruvchi kanalning pishitish konus uchini shunday eksentrik joylashuvi tolali piltachani kameraning ajratuvchi sirtidan notekis ajralishiga sabab bo'ladi. Notekis ajralishni bartaraf etish uchun, ip chiqaruvchi naycha markazga tushirilib ip o'tuvchi zichlagich bilan ulangan. Bu esa pishitish konusini teng tomonli bo'lishini ta'minlaydi, ip tarangligi bir tekis bo'lib, natijada ip kanal devorlariga urilmaydi.

Ip zichlagichlari rotorning o'qi va voronka o'qi atrofida ipning burchak tezligi bilan aylanishi harakatidan ko'ndalang yo'nalishda siljiydi va ipni yigirish qurilmasidan chiqishi chiziqli tezlik bilan bo'ylama yo'nalishda harakatlanadi.


Ipning zichlagichga kirishida zichlagich kanalining yuqori egriligida qarshi ipning yoyilishi va yig'ilib qolishi kuzatiladi. Ip chiqarish trubkasida (1-rasmga qarang) ipning qurilma o'qiga nisbatan doimiy bo'lmagan egilish burchagiga ega bo'ladi, buning natijasida ipning tarangligi o'zgaras bo'lmaydi.



1-rasm. Ip o'tuvchi qurilmada ipning harakati

Ip o'tkazuvchi qurilma yuzasidan o'tuvchi ip elementiga (2-rasm) ipning ichki taranglik kuchlari T va $T + \Delta T$, bo'ylama va ko'ndalang ishqalanish kuchlari, Nds yuzaning normal bosim kuchi, ipning aylanish $Ftrdz$ massasi va ipning bo'ylama $Fperds$ harakatlarining markazdan qochma inersial kuchlari shuningdek, ip elementi massasining Karnolis inersiya kuchi ta'sir qiladi [2].

Zichlagichning konstruktiv o'zgarishi ipga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. SHuning uchun zichlagichning shakli, zichlagichning tashqi radiusi, ipning zichlagich yuzasiga ishqalanish koeffitsienti, zichlagich yuzasini ip bilan o'rash burchaklari katta ahamiyatga ega.



2-rasm. Ip elementiga ta'sir qiluvchi kuchlar

Ishqalanish koeffitsientini kamaytirish uchun zichlagichni boshqa turli, ya'ni chiqish o'yiqlari turlicha profilli keramik, po'lat, xromli sirt qoplamalari qo'llaniladi. Silliqliq yuzali zichlagichlar ipni tukdorligini kamaytiradi va yigirishda yuqori buram berilganda qo'llaniladi. O'yiqli zichlagichlar ip tukdorligini oshiradi (zichlagich o'yiqlarida girdob hosil qilishi hisobiga), lekin yigiruv barqarorligi oshirish uchun ishlatiladi. Spiral sirtli zichlagichlar ip notekisligini pasaytiradi va silliqlikini ta'minlaydi (to'quv iplari uchun ishlatiladi) [3].

Zichlagichlarni modernizatsiyalash ipni shakllantirish jarayonini yaxshilash imkonini beradi.

Ip rotordan chiqarilganda, unga ma'lum bir o'zgaruvchan o'q bo'ylab kuchi ta'sir qiladi va bu ipning tarangligi deb ataladi. Agar ip voronkaga kiringunga qadar o'q bo'ylab kuchini R_0 deb belgilansa, u holda ishqalanish ta'sirida va chiqarish mexanizmining detallariga o'rash burchaklariga qarab, o'q bo'ylab kuch quyidagi tenglamalarga muvofiq ortadi:

$$R_1 = R_0 \cdot l^{M_1 \alpha_1} \quad R_2 = R_1 \cdot l^{M_2 \alpha_2} \quad R_3 = R_2 \cdot l^{M_3 \alpha_3} \text{ va b.}$$

bu erda M - ishqalanish koeffitsienti;

α - qurilmaning alohida uchastkalariga qarashli o'rash burchaklari.

Ya'ni, ishchi organlar bilan har bir uchastkadagi o'zaro ta'sirdan o'q bo'ylab kuch sezilarli darajada oshadi. O'q bo'ylab kuch ipning minimal mustahkamligi qiymatiga etishi mumkin va bu holatda ip uziladi.

Barcha uchastkalarda ip harakatidan, ya'ni yig'ish sirtidan ipni echish nuqtasidan tortib to chiqaruvchi vallarigacha bo'lgan ip tarangligi natijalari F.M.Plexanov [2] ishlarida keltirilgan va 1-jadvalda aniq ko'rinadi. Natijalar


chiziqli zichligi 25 teks bo'lgan iplar uchun amalga oshirilgan. Ipni har bir uchastkada tortib olishdagi o'q bo'ylab kuchini kamaytirish maqsadida tegishli qurilmalarni modernizatsiya qilish bo'yicha ishlar olib borilishi kerak.

1-jadval

Taranlik uchastkasi	aniqlanadigan ip harakati	Chiziqli zichligi 25 teks bo'lgan ipning tarangligi
	Ipni yig'ish yuzasidan echish nuqtasi, T_k	$T_k=0,5$ sN
	Ipni voronka yuzasiga kirishida, T_v	$T_v=13,7$ sN
	Ipni voronka yuzasidan chiqishida, T_{v1}	$T_{v1}=18,2$ sN
	Ipni varonka ko'zchasiga kirishida, T_{v2}	$T_{v2}=18,2$ sN
	Ipni ip chiqaruvchi trubkadan chiqishida, T_{v3}	$T_{v3}=24,3$ sN

Ipni pishitish jarayonini tahlil qilish uchun 3-rasmda keltirilgan tolali piltadan ip shakllantirish sxemasini ko'rib chiqamiz.

Ip tortilganda hosil bo'lgan tolali piltasimon halqacha V nuqtada rotor eng chetki uyig'idan uzoqlashadi, r_1 radius bo'ylab burilish qiladi va rotor radiusi yo'nalishi bo'yicha rotorning markazida joylashgan chiqaruvchi trubka voronkasi 5 tomon harakatlanadi. Havoning qarshiligi va tolalarning qayishqoqlik kuchlari tufayli bu uchastkada piltaning joylashuvi rotorning aylanishiga qarama-qarshi yo'nalishda engil egilish bilan egri chiziq bo'ylab amalga oshiriladi.



3-rasm. Ip shakllanish sxemasi

Chiqaruvchi trubka zichlagichidan o'tayotganda ip zichlagich radiusiga teng bo'lgan r_2 radius bo'ylab aylanadi. Shundan so'ng, ip rotorning aylanish o'qi bo'ylab harakatlanadi (SD uchastkasi), yana D nuqtada burilish qiladi va tortish valiklari 6 tomonidan ushlab olinadi va tortish tezligi U_{ot} bilan harakatlanadi. Uchastka 5 da ip o'z o'qi atrofida rotor aylanish chastotasi bilan aylanadi va buram oladi. Ushbu uchastka aylanganda, aylanuvchi qayishqoq moment yuzaga keladi, uning ta'siri ostida buram qisman ip uchastkasiga 4 o'tadi, ipni echish joyi V gacha etib boradi va echib olinadigan tolali piltaga buram beradi.

Chiqish kanalining mavjud konstruksiyalarida pishitish ballonida buzilishlar kuzatiladi, bunda normal yigirish jarayoni buziladi. Buning sababi, chiqish kanalidagi ipning pishitish konusi markazdan yuqori V_2 (1-rasm) qarab siljishidir. Ip pishitish ballonining eksentrikligi sababli uning aylanish jarayonida zichlagich va tirqish yuzasining o'rash burchaklari o'zgaradi, bu esa ip tarangligining pulsatsiyasiga olib keladi. Buning natijasida pishitish balloni buzilib buramning taqsimlanishini oldini oladi va bu yigiruv jarayoniga salbiy ta'sir qiladi. Natijada ipda parchalanish va uzilishlar hosil bo'luvchi bo'sh uchastkalar yuzaga keladi.

Pishitish balloni konusi siljishining bartaraf etish va shu bilan yigirish jarayonini barqarorlashtirish va ipning sifatini oshirish kerak. Buning uchun AUTOCORO mashinalarida ipni chiqarish moslamasi ipning chiqish burchagi o'zgartirildi, endi u 30^0 ga teng (90^0 BD-mashinalarida).

Pnevmomexanik usulda ip shakllantirish texnologiyasi ipga ko'p buram berishni talab qiladi, boshqa tomondan esa ipning buramlar soni ko'payishi matoning iste'mol xossasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ushbu qarama-qarshilikni bartaraf qilish uchun turli ip o'tkazgich qurilmalar, buram intensivatorlar, ya'ni yigiruv rotoridan ipni ajratish nuqtasida ipga buram berishni oshirish uchun mo'ljallangan moslamalar tavsiya etilgan [30].

Shuningdek, chiqish moslamasiga turli xil kompensatorlar, ya'ni teng tomonli buram konuslarini, ipda bir xil taranglikni ta'minlovchi buram stabilizatorlarini (Torque Stop) o'rnatmoqdalar. Bunda ip kanal devorlariga urilmaydi va yigirish barqarorligi oshadi.


Yuqorida keltirilgan nazariy va tajribalardan kelib chiqib pnevmomexanik ipning fizik-mexanik xossalarini yaxshilash maqsadida ip o'tkazgich varonkasini yangi konstruksiyasi yaratildi.

Adabiyotlar:

1. К.Г.Гафуров, С.Л.Матисмаилов, Ш.Р.Файзуллаев, Ш.Ф. Махкамова. Технология и оборудование текстильных изделий (производство пряжи). Ташкент 2018г. Издание “Адабиёт учыунлари”-2018. 111-127 стр.

2. Плеханов Ф.М. Технологические процессы пневмомеханического прядения. Москва. Легпромбытиздат.1986г. 58-67 стр.

3. Booklet. Open-End. Premium Parts issued by SUSSEN. Publicity Department, Germany, 1999



**YIGIRISH XOMAKI MAHSULOTLARI TOLALARINING
TO‘G‘RILANISH VA PARALELLANISH DARAJASINI TAHLILI**

A.Pirmatov

Texnika fanlari nomzodi, professor

Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

***Annotatsiya.** Maqolada paxta tozalash korxonasida turli ishchi bosim kuchida zichlangan paxta tolasini yigirish yarim mahsuloti sifat ko‘rsatkichlari tahlil qilingan.*

Yigirish fabrikalarida paxta toylari maxsus avtotoyitkichlarda titiladi va keyingi bosqichga uzatiladi. Titish jarayonida tolalarga tituvchi organlar garnaturalari bilan kuchli takroriy mexanik ta’sirlar ko‘rsatadi. Tolani toylashda ishchi bosim kuchini kamaytirib, yigirish o‘timlarini qisqartirib mahsulot tayyorlansa uning sifat ko‘rsatkichlari yaxshilanadi.

Sifatli ip yigirishda tolali mahsulotning titilganlik darajasining yuqori bo‘lishi toza va ravon ip tayyorlashda katta ahamiyatga ega. Ip yigirish jarayonining murakkab muammolaridan biri mahsulotni cho‘zib tekislash vazifasi hisoblanadi. Cho‘zish natijasida tolalar bir-biriga nisbatan sirpanib harakatlanib old va orqa uchlari to‘g‘rilanadi, bir-biriga nisbatan parallel yuqori darajada to‘g‘rilangan va tekislangan tolalar bir tekis, ravon pishiq ip tayyorlash imkoniyatini ta’minlaydi.[1]

Cho‘zish miqdori qanchalik kata bo‘lsa, tolalar uchlari shuncha yaxshi to‘g‘rilanadi. Tadqiqotchi olimlar tamonidan quydagi natijalar aniqlangan. Taralgan piltasida tolaning to‘g‘rilanganligi 55%, piltalangan piltada to‘g‘rilanganligi 71-75%, pilikda 78-80% ga teng.

Mahsulot tarkibidagi tolalarning to‘g‘rilanish darajasiga yigirish texnologiyasi o‘timlarida jarayonlarni to‘g‘ri tashkil qilinganligi ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu maqolada turli ishchi bosim kuchida zichlangan paxta tolasidan tayyorlangan yigirish xomaki mahsulotlarini tarkibidagi tolalarni to‘g‘rilanganligi va parallellanish darajasini tahlil qilish maqsad qilib olindi. Turli ishchi bosim kuchida zichlangan paxta tolasidan tayyorlangan taralgan va piltalangan piltadan tajriba o‘tkazish uchun “Beruniyteks” qo‘shma korxonasida pnevmomexanik 29 teks ip yigirish sharoitida tazning har xil joyidan 10 tadan 200 mm qirqimdagi namunalarni tanlab olindi. Namunalarni tahlil qilishda mahsulotning chiqish yo‘nalishiga ahamiyat berildi.

Laboratoriya sharoitida «To‘qimachilik materialshunosligi» kafedrasidagi mavjud takomillashtirilgan jihozida pilta-pilikdagi tolalarni to‘g‘rilanganligi va parallellanish darajasini aniqlandi.

O'rnatilgan tartibda har bir variantdagi namunalar 10 tadan takroriylikda I.S. Leontyeva uslubi bilan paxta tolasining parallellashish koeffitsenti, egilganlik ko'rsatkichlari va tolalarni to'g'rilanganlik darajasi aniqlandi [3].

Tolalarning tekislanganlik va parallellashganlik ko'rsatkichlari sifatida quyidagilar tavsiya etildi:

Tolalarning egilganlik ko'rsatkichlari (r_{pr}, r_{obr}) yoki ularning ulushini aniqlash quyidagi formula yordamida aniqlandi:

$$\rho_{np} = \frac{E_{np}}{N_{np} + E_{np}} \cdot 100 \% \quad (1)$$

$$\rho_{o\delta p} = \frac{E_{o\delta p}}{N_{o\delta p} + N_{o\delta p}} \cdot 100 \% \quad (2)$$

o'rtachasi:

$$\rho = \frac{\rho_{np} + \rho_{o\delta p}}{2} \quad (3)$$

Bu yerda E, N lar rostlangan va rostlanmagan tolalar uchlari.

Tolalarning parallellanganlik koeffitsiyentini k_{op} quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$K_{on} = \frac{N + E}{C + N + E} \quad (4)$$

Tolalarning to'g'rilanish va parallellanish samaradorligini quyidagi formula yordamida aniqlandi:

$$\varepsilon_{rij} = \frac{K_{oni} - K_{on(i-1)}}{K_{on(i-1)}} \cdot 100 \% \quad (5)$$

Tolalarning bukilgan uchlarni tekislash samaradorligi E_p quyidagi formula yordamida aniqlandi:

$$\varepsilon_p = \frac{\rho_{(i-1)} - \rho_i}{\rho_{(i-1)}} \cdot 100 \% \quad (6)$$

Yigirish jarayonidjan olingan yarim tayyor mahsulotlarning parallellanish koeffitsiyenti, egilganlik kursatkichi, tolaning to'g'rilanish darajasi, o'rtacha kvadratik og'ishi quyidagi jadvalda keltirilgan.

Tarash mashinasidagi tolalarning tekislanish ko'rsatkichlariga toylash ishchi bosim kuchining ta'siri

1-jadval

/r	Ko'rsatkichlar	Toylash ishchi bosim kuchi Mpa					
		toylanmagan	16	20	24	28	32
.	Paxta tolasining nisbiy parallellashish koeffitsiyenti,%	0,510	0,500	0,470	0,45	0,44	0,410
.	Egilgan tolalar ulushi, %	12	12	12	11	11	11
.	Tolaning to'g'rilanish koeffitsiyenti, %	0,649	0,639	0,610	0,590	0,580	0,550
.	O'rtacha kvadratik og'ishi, %	0,012	0,012	0,0135	0,0134	0,0132	0,0137

Piltalash mashinasidagi tolalarning tekislanish ko'rsatkichlariga toylash ishchi bosim kuchining ta'siri

2-jadval

t/r	Ko'rsatkichlar	Ishchi bosim kuchi, Mpa					
		toylanmagan	16	20	24	28	32
1.	Paxta tolasining nisbiy parallellashish koeffitsiyenti,%	0,690	0,680	0,670	0,650	0,640	0,610
2.	Egilgan tolalar ulushi, %	5,2	5,2	5,1	4,8	4,7	4,0
3.	Tolaning to'g'rilanish koeffitsiyenti, %	0,829	0,819	0,809	0,789	0,779	0,749
4.	O'rtacha kvadratik og'ishi, %	0,0107	0,0107	0,0109	0,0111	0,0114	0,0118

1-2 jadvalda natijalarini tahlilida toylanmagan va 16 MPa ishchi bosim kuchida toylangan paxta tolasining ko'rsatkichlariga nisbatan solishtirsak, 20 MPa ishchi bosim kuchida toylangan paxta tolasidan olingan taralgan piltadagi tolalarning parallellashish koeffitsiyenti 6,0 % ga kamaydi.

Egilganlik ko'rsatkichi o'zgarmadi, tolalarning to'g'rilanish koeffitsiyenti 3,1 % ga kamaydi, o'rtacha kvadratik og'ishi 11,1 % ga oshdi. Piltalangan piltadagi tolalarning parallellashish koeffitsiyenti 1,5 % ga, egilganlik ko'rsatkichi 1,9 % ga, tolalarning to'g'rilanish koeffitsiyenti 1,6 % ga kamaydi. O'rtacha kvadratik og'ishi 1,8 % ga oshdi, 24 MPa ishchi bosim kuchida toylangan paxta tolasidan olingan tarash mashinasi piltasidagi tolalarning parallellashish

koefitsiyenti 10,0 % ga, egilganlik ko'rsatkichi 8,3 % ga, tolalarning to'g'rilanish koefitsiyenti 4,6 % ga kamaydi, o'rtacha kvadratik og'ishi 10,4 % ga oshdi. Piltalangan piltadagi tolalarning parallellashish koefitsiyenti 4,4 % ga, egilganlik ko'rsatkichi 7,7 % ga, tolalarning to'g'rilanish koefitsiyenti 3,6 % ga kamaydi, o'rtacha kvadratik og'ishi 3,6 % ga oshdi, 28 Mpa ishchi bosim kuchida toylangan paxta tolasidan olingan taralgan piltadagi tolalarning parallellashish koefitsiyenti 14,0 % ga, egilganlik ko'rsatkichi 8,3 % ga, tolalarning to'g'rilanish koefitsiyenti 4,2 % ga kamaydi, o'rtacha kvadratik og'ishi 9,1 % ga oshdi.

Piltalangan piltadagi tolalarning parallellashish koefitsiyenti 8,8 % ga, egilganlik ko'rsatkichi 15,4 % ga, tolalarning to'g'rilanish koefitsiyenti 6,1 % ga kamaydi, o'rtacha kvadratik og'ishi 6,1 % ga oshdi. 32 Mpa ishchi bosim kuchida toylangan paxta tolasidan olingan taralgan piltadagi tolalarning parallellashish koefitsiyenti 18,0 % ga, egilganlik ko'rsatkichi 8,3 % ga, tolalarning to'g'rilanish koefitsiyenti 15,4 % ga kamaydi, o'rtacha kvadratik og'ishi 12,4 % ga oshdi, piltalangan piltadagi tolalarning parallellashish koefitsiyenti 10,3 % ga, egilganlik ko'rsatkichi 23,1 % ga, tolalarning to'g'rilanish koefitsiyenti 8,0 % ga kamaydi, o'rtacha kvadratik og'ishi 9,3 % ga oshdi.

Olingan natijalar dispersiyalarining bir turliligini ahamiyatligi Fisher mezonlari asosida tekshirildi. Buning uchun S_1^2 va S_2^2 bir xil normal taqsimlangan majmualarni bahosi bo'ladi. Normal gipotezalar $H_0: \sigma_1^2 = \sigma_2^2$ uchta raqobatli gipotezalar: $H_1: \sigma_1^2 \neq \sigma_2^2$; $H_2: \sigma_1^2 \geq \sigma_2^2$; $H_3: \sigma_1^2 \leq \sigma_2^2$ ga solishtirib baholanadi. U_1 va U_2 tasodifiy qiymatlar normal taqsimlanish qonuniga mosligini hisobga olib, ikkita dispersiya solishtiriladi va F (Fisher) mezon bo'yicha baholanadi

Xususiy hol: $F = \frac{S_1^2}{S_2^2}$, suratda ikkalasining katta dispersiyasi.

Fisher taqsimoti

$$F \left\{ \begin{array}{l} f = m_1 - 1 \\ f = m_2 - 1 \end{array} \right. , \text{ hamda } \alpha \left. \right\} \text{ e'tiborga olinadi.}$$

$$F_R = \frac{S_1^2\{y\}}{S_2^2\{y\}} = \frac{\frac{1}{m_1 - 1} \sum (y_{21} - \bar{y}_2)^2}{\frac{1}{m_2 - 1} \sum (y_{21} - \bar{y}_2)^2} \text{ bu } F_T \{P_D = 1 - \alpha; f_1 = m_1 - 1; f_2 = m_2 - 1\}$$

bilan solishtirildi.

Olingan natijalar ahamiyatligi Fisher mezonlari asosida tekshirildi.

$F_R < F_T$ bo'lsa, $\sigma_1^2 \neq \sigma_2^2$ ikki yoklama kritik chegaralarda baholandi.

Tadqiqot natijalarini o'rtacha sifat ko'rsatkichlari farqlarining ahamiyatligini $P_D=0,95$ ishonch ehtimolligida Student hamda Fisher mezonini bilan baholandi, ya'ni $t_R > t_T$ bo'lganligi uchun $\alpha=0,005$ bo'lganda tolalar o'rtacha nisbiy parallellashganlik koeffitsienti tengligi to'g'risidagi nolli gipoteza rad qilinadi, ya'ni taqqoslangan namunalarda tolalar to'g'rilanish koeffitsienti o'zgarishi ishonchli deb hisoblanadi.

Xulosa.

1. Xulosa qilib, toylangan paxta tolasining ishchi bosim kuchi ortishi bilan tolalarning tekislanish darajasi kamayib borishligini ta'kidlash mumkin. Bu ipning sifat ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

2. Paxta tolasining parallellashish koeffitsienti, tolaning rostlanish darajasi, egilganlik ko'rsatkichlari taxlil qilindi.

3. O'rtacha sifat ko'rsatkichlari farqlarining ahamiyatligini $P_D=0,95$ ishonch ehtimolligida Student hamda Fisher mezonini bilan baholandi.

Adabiyotlar.

1. Ibragimov X. X., Jumaniyazov K. J., Matismailov S. L. va boshqalar. «Yigiruv maxsus texnologiyasi» Toshkent. Ilm-ziyo, 2006

2. N.S. Leonteva., O'quv uslubiy qo'llanma

3. Балясов П.В и др “Лабораторный практикум по прядению и химических волокон”

Москва 1967 г.

4. Севостянов А.Г. Методы и средства исследования механико-технологических процессов текстильной промышленности-Учебник для вузов текстиль.пром-ти.-Москва: Легкая индустрия, 1980-986

AKT SOHASIDA TA'LIM OLUVCHILARGA MUSTAQIL TA'LIM
UCHUN PLATFORMA YARATISH

TATU SF 4-bosqich talabasi


Ahatova.M.B.

Аннотация: В статье исследуются платформы дистанционного обучения, анализируются их и обучаются клиенты использованию системы. Этот ресурс обеспечивает самостоятельное обучение учащихся и предоставляет доступ к учебникам с открытым исходным кодом. Основное внимание уделяется возможностям использования современных технологий в учебном процессе и его эффективности. Этот ресурс обеспечивает самостоятельное обучение учащихся и предоставляет доступ к учебникам с открытым исходным кодом.

Ключевые слова: электронный образовательный ресурс, непрерывное образование, дистанционное образование, AutoPlay, обучающийся, самостоятельное образование.

Ta'lim jarayonida yangidan-yangi axborot kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalarni , elektron darsliklar , multimediyalar vositasida keng joriy etish orqali mamlakatimiz maktablarida o`qitish sifatini tubdan yaxshilash, darsliklarda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanib ta'lim samaradorligini oshirish kerak.

Olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanish uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoniga asosan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi tasdiqlandi. Farmon bilan 2017-2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha



harakatlar strategiyasini amalga oshirish bo'yicha Milliy komissiya, shuningdek ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish bo'yicha komissiyalar tashkil etildi.

1-rasm. mustaqil ta'lim uchun platforma oynasi

Bugungi kunda ijtimoiy turli ko'rinishdagi axborotlar majmuasi keng va rivojlangan bo'lib, uning jamiyatda tutgan o'rni behisobdir. Oxirgi davrda axborotli muhitda katta o'zgarishlar bo'lib bormoqda.

Respublikamizda axborotlashtirish keng yo'lga qo'yilishi bilan undagi har bir fuqaroga kerakli paytda, kerakli miqdorda, kerakli sifatda olish imkoniyatlari ochilmoqda. Informatika – axborotni qayta ishlash, ularni qo'llash, va ijtimoiy amaliyotning turli sohalariga ta'sirini – EHM tizimlariga asoslangan holda ishlab chiqish, loyihalash, yaratish, baholash, ishlashning turli jihatlarini o'rganuvchi kompleks ilmiy va muhandislik fani sohasidir. Informatika bir jihatdan axborot modellarini ko'rishning umumiy metodologik tamoyillarini sihlab chiqishga yo'naltirilgan. Shu bois axborot uslublari obyekt, hodisa, jarayon va hokazolarni axborot modellari yordamida bayon etish imkoniyatiga egadir.

Masalaning qo'yilishi. Mazkur individual loyiha kompyuterli o'qitish tizimi uchun multimedialardan foydalanib yaratilgan "AKT sohasida dasturlash tillarini o'qitish bo'yicha Web dasturlash" fanidan elektron o'quv uslubiy majmuani ishlab chiqarish va fanlar bo'yicha ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, bugungi kunda Web dasturlash sohasida faoliyat olib borayotgan mutaxassislarni ishini yanada osonlashtirish va Web dasturlash texnologiyalarni qo'llashni o'rgatish uchun elektron dasrliklar yaratishga bo'lgan talab oshib bormoqda. Kompyuter texnologiyalaridan foydalanishni o'rgatish va shu bilan birga talabalarni bu sohadagi qiziqishlarini oshirishga xizmat qiladi.

Insoniyat faoliyatining aksariyat jabhalarini kompyutersiz tasavvur qilish qiyin. Faoliyatning eng tez o'zgaruvchan dinamik turi bo'lgan ta'lim ham ushbu jarayondan chetda qolmadi. Bu holatda kompyuter bilan muloqotni osonlashtirish, uning e'tiborini tortish, qiziqtirish uchun ma'lumotingizni boshqalarga qanday qilib eng qulay va samarali tarzda yetkazish mumkinligi to'g'risida savol tug'iladi.

Multimedia texnologiyalari (multi – ko'p, media – muhit) – bir vaqtning o'zida ma'lumot taqdim etishning bir nechta usullaridan foydalanishga imkon beradi: matn, tasvir, audio va video.

Multimediali texnologiyaning eng muhim xususiyati interfaollik – axborot muhiti ishlashida foydalanuvchi ta'sir o'tkaza olishga qodirligi xisoblanadi. So'nggi yillar davomida ko'plab multimediali dasturiy maxsulotlar yaratildi va yaratilmoqda: ensiklopediyalar, o'rgatuvchi dasturlar, kompyuter taqdimotlari va

boshqa. Multimediali elektron ta'lim resurslarini yaratish muallifning mahorati, tajribasi va fantaziyasiga bog'liq.

Elektron darslik bu mavjud o'quv qo'llanma, darslikning undan foydalanuvchiga qulaylik yaratish maqsadida maxsus dasturiy vositalar yordamida ixcham holatga keltirilgan ma'lumotlar to'plamidan iborat. Elektron darslik tayyorlashda taqdim etilayotgan ma'lumotlar undan foydalanuvchilarga qulay, qiziqarli va kerakli bo'lishligi ahamiyatlidir. Hozirgi kunda elektron darsliklarni bir necha xil tayyorlash usullari mavjud. Ko'pchilik holatlarda tayyorlanayotgan elektron darslik ma'lumotlari dastlab HTML sahifalari ko'rinishiga o'tkaziladi. HTML tili imkoniyatlaridan foydalanib ham elektron darslik tayyorlash mumkin. Bu sohaning hozirda imkoniyatlari kengaygan. HTML sahifalari tayyorlovchi va ularga bezak berish imkonini beruvchi maxsus dasturlar ishlab chiqilgan. Bunday dasturlarga misol sifatida Microsoft FrontPage, Dreamweaver dasturlarini keltirish mumkin. Bu dasturiy vositalar yordamida osonlik bilan elektron darsliklar tayyorlash va tahrirlash imkoniyatlari mavjud. Lekin bularda ma'lumotlar .html yoki .htm kengaytmali ko'rinishda saqlanadi va elektron darslik tarkibidagi ma'lumotlar ko'p bo'ladigan bo'lsa uni ma'lumot tashuvchi kompyuter qurilma (fleshka)larga ko'chirish yoki ko'chirib olish ko'p vaqt talab etadi. Bu esa doim ham hushlanavermaydi. Anashu holatlardan qochish uchun maxsus dasturiy vositalar ishlab chiqilgan bo'lib, ular yordamida mavjud HTML tilida tayyorlangan elektron darsliklarni osonlik bilan **exe** yoki **chm** kengaytmali fayllar holatiga keltirish mumkin. Bunday elektron darsliklar foydalanishga qulayligi va yuqoridagi kamchiliklardan holiligi bilan oddiy HTML ma'lumotlar to'plamidan iborat bo'lgan elektron darsliklardan afzal hisoblanadi. Bu elektron darslikning afzalligi uning hajmini oddiy HTML hujjatlari papkasidan iborat elektron darslik hajmidan kichikligidir. Bunday elektron darsliklarni ko'chirish yoki ko'chirib olish oson va qisqa vaqt talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 56 b.
2. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 485 b.
3. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qathiy tartib - intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 103 b.

Aholi o'rtasida IT yo'nalishini o'rgatishda mahallalar qoshida kurslarni tashkil etish.

TMTI "Avtomatlashtirish va boshqarish" kafedrasini o'qituvchisi:

Mengatova Xurshida Toshmuxamatovna xurshidamengatova@gmail.com

+99890519 00 72

Termiz muhandislik-texnologiya instituti talabasi:

Choriyev Bobir Bohodir o'g'li boburchoriyev73@gmail.com ,

+998(94)599 54 55

Tayanch so'zlar: raqamli savodxonlik, Bir million dasturchi, loyiha, kiberjinoyat, Media, girafik dizaynerlar, axborot texnologiyalar, sojil mediya, marketing.

Anatatsiya:

Mahallalarda aholining bo'sh vaqtini mazmunli o'tqazish, yoshlarni kasbga yo'naltirish, IT yo'nalishi bo'yicha, savotxonlikni oshirish bo'yicha inavatsion yo'nalish va chora-tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha fikr yuritilgan.

Bugungi kunda maxalalarda ishsizlar soni ortib bormoqda, biz shuni oldini olish maqsadida maxalalar qoshida IT kurslarini tashkil etib yoshlarni turli diniy oqimlar va xarxil vidyo o'yinlarga kiribketishini oldini olgan bo'amiz. Ma'lumki, dunyoning eng ilg'or kashfiyot va ishlanmalari aynan axborot texnologiyalari sohasida yaratilmoqda. Shu bois sohani o'rganmoqchi bo'lgan yoshlar davlat tomonidan to'liq qo'llab-quvvatlanyapti. Prezidentimizning 2021 yil 20 apreldagi "Yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va bandligiga ko'maklashish, ularni ijtimoiy himoya qilish hamda bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni bilan "Bir million dasturchi" loyihasi doirasida o'quv kurslarini muvaffaqiyatli tamomlagan yoshlarga, shuningdek, IT-park rezidentining o'quvchisi yoki bitiruvchisi bo'lgan yoshlarga iste'mol krediti orqali kompyuter xarid qilish uchun kafillik berish hamda mazkur kreditlarning foiz to'lovlarini Yoshlar ishlari agentligi tomonidan kompensatsiya qilish yo'lga qo'yildi. Bu qiziqishi bor ammo o'z kapyuteri bo'lmadan yoshlarga juda qo'l keladi. Bugungi kunda yoshlarni axborot texnologiyaga jalb etishga kata etibor qaratilmoqda. Bu loyxa bo'sh o'rni yaratish blan bir qtorda yoshlarni vaqtini samarali o'tkazish, kompyuterda ishlashini o'rgatish, axborot texnologiyalar blan tanishib o'z ustida ishlash kasb o'rganishni taminlaydi. Ular yerning istalgan joyida o'z ishlari yani IT soxasi orqali pul topishlari mumkin.

Ushbu loyhadan kutilayotgan natija, mahalalardagi yoshlarni bo'sh vaqtlarini unumli o'tkazish, bo'sh ish o'rinlarini yaratish. Xar bir yaxshi yomon fikrlar bekorchilik va be maqsadlikdan kelib chiqadi. Insonlar ishsiz nazoratsiz yurgandan kiyin pul taklif qilish evaziga xar xil omillar va diniy oqimlardan jalb qilib olish

osond bo'radi, bizning maqsadimiz shundan iboratki bo'sh ish o'rinlari yaratish yoshlarni kompyuter savodxonligiga o'rgatish. IT Sohasiga keng jalb qilish maqsadida "Bir million dasturchi" loyihasi joriy qilindi va ushbu loyiha doirasida yoshlarga dasturlash tillarini o'rgatish ishlari amalga oshirildi. "Bir million dasturchi" loyihasi doirasida 2021—2022-yillarda yoshlarni kompyuter dasturlashga qiziqadigan yoshlarni aniqlash, o'qitish va ish bilan ta'minlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi.

Hozirda "Bir million dasturchi" loyiha doirasida 2,5 million nafardan ortiq foydalanuvchi ro'yxatdan o'tgan. Shundan 1,7 million nafardan ortiq ishtirokchi loyiha doirasida ta'lim olmoqda. Bugun aholining raqamli savodxonligini oshirish va axborot texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish zamonaviy dunyoning asosiy talab va mezoniga aylandi. Oddiy misol sifatida internetdan foydalana olish ko'nikmasini keltirish mumkin. Tadqiqotlarga ko'ra, joriy yilning yanvar holatiga O'zbekistonda 26,74 million internet foydalanuvchisi bor. Shundan 5,35 millioni ijtimoiy tarmoqlardan foydalanadi va bu raqam umumiy ko'rsatkichning 20 foiziga teng. Garchi internet foydalanuvchilari soni umumiy aholi soniga nisbatan deyarli 75 foizni tashkil qilsa-da, dunyoda keng tarqalgan ijtimoiy tarmoqlardan aholining bor-yo'g'i 15 foizi foydalana oladi. Bu ko'rsatkich 36 million nafardan ortiq aholini hisobga olganda, ancha kam. Shuning uchun raqamli savodxonlik va axborot madaniyatini rivojlantirish masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda. Ushbu maqsadda respublikaning barcha tuman va shaharlarida raqamli texnologiyalar o'quv markazlari faoliyati bosqichma-bosqich yo'lga qo'yilyapti. Bugun raqamli savodxonlik kiberjinoiyatlardan himoyalani uchun ham zarur bo'lmoqda.

Media olamida aldanib qolmaslik, shaxsiy ma'lumotlar dahlsizligini saqlash uchun ham inson zaruriy ko'nikmalarni egallashiga to'g'ri keladi. Aytish kerak, respublikada bu borada bir qator choralar ko'rilyapti. Masalan, ta'lim tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va boshqa resurslar orqali raqamli maydonda kuzatilib turgan kiberjinoiyatlarni oldini olish, ulardan saqlanish uchun mediasavodxonlik darslari tashkil etilmoqda, axborot ma'lumotlari tarqatilmogda. Ushbu tadbirlar natijasida aholi orasida raqamli shaxsiy ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga bermaslikdan tortib, fishing va boshqa kiberjinoiyatlarni oldini olishga qaratilgan zaruriy ko'nikmalar shakllantirilmoqda. Yoshlar orasida raqamli savodxonlikni targ'ib qilish hamda kompyuter dasturlash va IT-stifikatlarni qo'lga kiritgan. IT ingilzcha (Information texnology-axborot texnologiya) so'zidan olingan, ITsoxasi SMM, girafik dizaynerlar, kabilarni o'zichiga oladi. SMM (sojil mediya marketing) so'zidan olingan bo'lib bu ijtimoiy tarmoqlarda biror bir soxani targ'ib qilish va uni reklama qilish kabi ishlar blan shug'illanadi, girafik dizaynerlar bu rassomlar

qog'ozda chizadigan tasvirlarni ular shunchaki kompyuterda tasvirlab beradi. ITda qanday yo'nalish tanlash mumkin, buni yo'nalishlari juda ko'p masalan, o'yinlar yaratish, veb dasturlash, mabil dasturlash, sixemalarga kod yozish kabilar bu yo'nalishni dasturchini o'zi qiziqishiga qarab tanlagani maqul daromatdan qattiy nazar xarqanday yo'nalishni qiziqqan inson masterdarajada ko'tarishi mumkin.

Adabiyotlar:

1. Kadirov M.M. Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari. Darslik, 2-qism. -T.:Ozbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2019. -306 b.
2. Dadabayeva R.A., Nasridinova Sh.T., Shoaxmedova N.X., Ibragimova L.T., Ermatov Sh.T. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va tizimlari. O'quv qo'llanma. -T.:Sano-standart, 2017, - 552 b.
3. Kenjabayev A.T., Ikromov M.M., Allanazarov A.Sh. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalariyu. O'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2017. - 408 b.
4. <https://lex.uz/docs/-4601907>
5. <https://lex.uz/docs/-5831865?ONDATE=13.06.2023%2000>

**TURLI SOHA VAKILLARIGA IT-TEXNOLOGIYA SOHASINI
O'RGATISHDA QO'SHIMCHA MASHG'ULOTLARNI TASHKIL QILISH**

TMTI "Avtomatlashtirish va boshqarish" kafedrası o`qituvchisi:

Mengatova Xurshida Toshmuxamatovna xurshidamengatova@gmail.com

+99890519 00 72

Termiz muhandislik-texnologiya instituti talabasi:

G'ayratova Dilyora Sherali qizi dinoragayratova49@gmail.com ,

+998(88)1514303

Tayanch so'zlar: kompyuter texnikasi, dasturiy ta'minot, elektronika, telekommunikatsiya uskunalari, yarim o'tkazgichlar, electron pochta, matematik amallar, messenjerlar, chatlar

Anotatsiya: Turli soha vakillariga IT-texnologiya sohasini o'rgatishda qo'shimcha mashg'ulotlarni tashkil qilish dasturini tuzishni o'rganish jarayonlari ko'rsatib o'tilgan.

IT-ingliz tilidan olingan bo'lib, "Information Technology" so'zining qisqartmasi hisoblanadi. Information Technonlogy bu- axborotni hosil qilish, uni yig'ish, tarqatish, saqlash, qayta ishlash, himoyalash kabi vazifalarni bajaruvchi hisoblash texnikasidir. Hozirgi kunda hisoblash texnikasi vazifasini kompyuterlar bajaradi, shuning uchun IT so'zi ishlatilganda asosan kompyuter texnologiyasi tushuniladi.

Axborot texnologiyalari atamasi odatda, kompyuterlar va kompyuter tarmoqlarining sinonimi sifatida ishlatiladi, lekin u [televizor](#) va [telefon](#) kabi boshqa axborot tarqatish texnologiyalarini ham qamrab oladi. Iqtisodiyot doirasidagi bir qancha mahsulot yoki xizmatlar axborot texnologiyalari, jumladan, [kompyuter](#) texnikasi, [dasturiy ta'minot](#), [elektronika](#), [yarimo'tkazgichlar](#), [internet](#), [telekommunikatsiya uskunalari](#) va [elektron tijorat](#) bilan bog'liq.

Amaldagi saqlash va qayta ishlash texnologiyalariga asoslanib, IT rivojlanishining to'rtta fazasini ajratish mumkin: mexanikgacha (miloddan avvalgi 3000-yildan miloddan avvalgi 1450-yilgacha), mexanik (milodiy 1450-yildan milodiy 1840-yilgacha), elektromexanik (milodiy 1840-yildan milodiy 1940-yilgacha) va elektron (1940-yildan hozirgi kungacha).

YUNESKO tomonidan qabul qilingan ta'rifga ko'ra, IT axborotni qayta ishlash va saqlash bilan shug'ullanuvchi kishilar mehnatini samarali tashkil etish usullarini o'rganuvchi o'zaro bog'liq bo'lgan ilmiy, texnologik va muhandislik fanlari majmuasidir; kompyuter texnologiyalari va odamlar va ishlab chiqarish uskunalarni tashkil etish va o'zaro ta'sir qilish usullari, ularning amaliy qo'llanilishi, shuningdek, bularning barchasi bilan bog'liq ijtimoiy, iqtisodiy va

madaniy muammolar. AT ning o'zi murakkab tayyorgarlikni, yuqori boshlang'ich xarajatlarni va yuqori texnologiyali texnologiyani talab qiladi. Ularni amalga oshirish matematik dasturiy ta'minotni yaratish, modellashtirish va oraliq ma'lumotlar va echimlar uchun axborot omborlarini shakllantirishdan boshlanishi kerak.

Garchi odamlar eng qadimgi yozuv tizimlari yaratilgandan beri ma'lumotni saqlash, olish va muloqot qilish bilan shug'ullangan bo'lsalarda, axborot texnologiyalari atamasi birinchi marta 1958-yilda garvard Business Review jurnalida chopetilgan maqolalarda paydo bo'gan; mualliflar Garold J.Leavitt va Tomas L.Uisler "yangi texnologiyaning hali bitta aniq nomi yo'q. Biz uni axborot texnologiyalari (IT) deb ataymiz", deb sharhladilar. Ular uchta toifadan iborat:

-ishlov berish texnikasi;

-qaror qabul qilishda static va matematik usullarni qo'llash;

-kompyuter dasturlari orqali yuqori darajadagi fikrlashni simulyatsiya qilish.

IT,xo'sh hayotda bu so'z bilan nimalarni bog'lashimiz mumkin?

-Muloqot paytida (ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar, electron pochta, chat,...);

-axborot olish chog'ida (xabarlar, ob-havo ma'lumotlari,...);

-axborotni qayta ishlashda (matematik amallarni bajaruvchi dasturlar, garafiklar,videolar, yozuv,...);

-o'qish jarayonlarida (electron kitoblar, qo'llanmalar,...)

-dam olishda (kinolar, musiqalar, o'yinlar,...);

Demak, biz hayotimiz davomida qanday ish qilishimizdan qat'iy nazar, hatto dam olayotganimizda ham IT xizmatidan foydalanar ekanmiz.

Ish jarayonimiz kompyuter texnologiyalari bilan bog'liqligi uchun, har bir korxonalarda alohida IT bo'limlari mavjud, hattoki umuman kompyuterga aloqasi bo'lmagan korxonalarda ham. Qo'limizda turgan oddiy mobil telefonimiz ham IT qurilma hisoblanadi, chunki biz ushbu qurilmada qandaydir ma'lumotni saqlaymiz. Bundan ko'rinadiki hozirgi kunda IT sohasiga qiziqish va talab kata hissa qo'shadi.

IT texnologiyalari aholining turli soha vakillari uchun juda qulayliklar yaratib beradi. Masalan ishlab chiqarish korxonalari uchun oladigan bo'lsak hisob-kitob ishlarini , umumiy qilib aytganda boshqaruv tizimlarini hozirgi kunda IT sohasisiz tassavvur qilib bo'lmaydi. bu korxonalar rivoji uchun ham katta hissa qo'shadi.

Bugungi kunga ta'lim mazmunini modernizatsiyalash, ta'lim sifatini oshirish, ta'lim innovatsion texnologiyalarni keng joriy etishga yo'naltirilgan ko'plab innovatsiyalar yaratilmoqda va amaliyotda joriy etilmoqda. IT sohasi ta'limda ham ko'p qulayliklar yaratib beradi. O'quvchilarni darsga qiziqtirish

uchun har xil slaydlar ko'rgazmalardan foydalanish ham IT tarmoqlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4996-son qaroriga muvofiq ,shuningdek, sun'iy intellekt texnologiyalari asosida innovatsion biznes-modellar, mahsulotlar va xizmat ko'satish usullari rivojlanish uchun qulay va maqbul ekotizm yaratish, ularni belgilab berilgan ustuvor tarmoqlar va sohalarda tezkorlik bilan joriy etish va amaliyotga tadbiq etish maqsadida ushbu loyihani tuzdim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Kadirov M.M. Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari. Darslik, 2-qism. - T.:Ozbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2019. -306 b. Dadabayeva R.A., Nasridinova Sh.T., Shoaxmedova N.X., Ibragimova L.T., Ermatov Sh.T. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va tizimlari. O'quv qo'llanma. -T.:Sano-standart, 2017, - 552 b. Kenjabayev A.T., Ikromov M.M., Allanazarov [A.Sh.](#) Axborot-kommunikatsiya texnologiyalariyu. O'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2017. - 408 b.

BANKLARDA BUXGALTERIYA HISOBI O'ZGACHALIKLARI

Nukus Innovatsion Instituti assistant o'qituvchisi

Yuldasheva Mexrunisa

Annotatsiya: Maqolada tijorat banklarida buxgalteriya hisobini ishlab chiqishning maqsad va vazifalariga to'xtalib o'tilgan bo'lib, bunda asosan hisobotni ishlab chiqishga asos bo'luvchi asosiy hujjatlar haqida ham ma'lumotlar berilgan. Bundan tashqari banklarda buxgalteriya hisobining ahamiyati va uning boshqa tarmoqlar bilan o'xshashligi va o'zgachaliklari keltirilgan.

Kalit so'zi: Bankning operatsion ish kuni, ikki yoqlama yozuv, debet, kredit, buxgalteriya ma'lumotlari, foydalanuvchilar, bank egalari, bank hissadorlari, nazorat idoralari, xo'jalik operatsiyalari, dastlabki hujjatlar, buxgalteriya hisobining tamoyillari, uzluksizlik, hisoblash tamoyili.

“Banklar va bank faoliyati to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga asosan, bank-tijorat tashkiloti bo'lib, bank faoliyati deb hisoblanadigan quyidagi faoliyat turlari majmuini amalga oshiradigan yuridik shaxsdir: – yuridik va jismoniy shaxslardan omonatlar qabul qilish hamda qabul qilingan mablag'lardan tavakkal qilib kredit berish yoki investitsiyalash uchun foydalanish; – to'lovlarni amalga oshirish. Banklar o'z faoliyatida ko'plab operatsiyalarni bajaradi. Banklar tomonidan bajariladigan operatsiyalar “Banklar va bank faoliyati to'g'risida”gi qonunda batafsil ko'rsatib berilgan.

O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq, buxgalteriya hisobining asosiy maqsadi foydalanuvchilarni o'z vaqtida to'g'ri hamda aniq moliyaviy va boshqa buxgalteriya axborotlari bilan ta'minlash bo'lib hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, banklarda buxgalteriya hisobi tashkil qilishdan maqsad hisob-kitob, kassa, valyuta, qimmatli qog'ozlar bilan, lizing, faktoring, trast, kredit hamda boshqa bank operatsiyalari va xizmatlarni to'g'ri bajarish hamda ularni buxgalteriya hisobi va hisobotida o'z vaqtida va aniq aks ettirish hamda shu asosda bank aktivlari, majburiyatlari, kapitali, daromadlari va xarajatlari, moliyaviy faoliyati natijalarining holati haqidagi ishonchli ma'lumotlar to'plashdir. Banklarda buxgalteriya hisobining yuritilishi, buxgalteriya ishining to'g'ri tashkil etilishi va nazoratning aniq olib borilishi orqali bankning mavjud va bo'lg'usi investorlar, kreditorlar, hukumat muassasalari, vazirliklar, idoralar, jamoatchilik va boshqa manfaatdor foydalanuvchilar, shuningdek, bank rahbariyati va xodimlari uchun bank faoliyatiga haqqoniy baho berish imkonini yaratadigan aniq va foydali axborot olishni ta'minlaydi.

Ma'lumki, buxgalteriya hisobi xo'jalik subyektlari va ularning faoliyati to'g'risidagi moliyaviy axborot tizimidir. Shu bilan birga buxgalteriya hisobi moliyaviy axborotlarni aniqlash, rasmiylashtirish va tekshirish hamda o'tkazish

jarayoni ham bo‘lib hisoblanadi. Iqtisodiyotda faoliyat yurituvchi xo‘jalik subyektlari bir-biri bilan o‘zaro hisob-kitoblarni aynan tijorat banklari orqali amalga oshiradilar. Bu operatsiyalar korxonalar buxgalteriyasi bilan birga bank buxgalteriya hisobida ham o‘z ifadasini topadi. Banklar mijozlarga xizmat ko‘rsatish jarayonida asosiy vosita, nomoddiy aktivlar, kam baholi va tez eskiruvchi materiallar xarid qiladi, ularning harakatini hisobga oladi, xarajat qiladi va faoliyati natijasida daromad ko‘radi. Tijorat banklarining asosiy maqsadi bo‘lgan foyda ko‘rishga harakat qiladi. Bu operatsiyalarning barchasi bank buxgalteriyasida hisobga olib boriladi.

Korxonalar va bank buxgalteriya hisobini olib borishda aktiv, passiv hamda aralash xarakterdagi aktiv-passiv hisobvaraqlar ishlatiladi, operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirishda “debet”, “kredit” va “saldo” kabi terminlardan keng foydalaniladi. Barcha operatsiyalar ikki yoqlama yozuv asosida olib boriladi, Bosh va Yordamchi kitob registrlarida buxgalteriya ma’lumotlari yuritiladi va umumlashtiriladi. Moliyaviy hisobot davriga bir xil moliyaviy hisobotlar tayyorlanadi va belgilangan muddatgacha matbuotda e’lon qilinishi shart bo‘lib hisoblanadi. Banklarda buxgalteriya ishini tashkil etish asoslari korxonalar buxgalteriya hisobiga o‘xshash bo‘lsada, ba’zi bir o‘ziga xos xususiyatlari ham mavjud. Chunki banklar yuzlab, ba’zan minglab mijozlar bilan shartnomaviy munosabatlar o‘rnatgan bo‘lib, bir kunda mijozlarining va bankning o‘z majburiyatlari bo‘yicha ko‘plab operatsiyalarni bajaradi, xizmatlar ko‘rsatadi. Banklar iqtisodiyotning har xil sohalariga qarashli turli mulkchilik shaklidagi korxonalar va tashkilotlar, shuningdek, yakka tadbirkorlar, dehqon-fermer xo‘jaliklari hamda aholi bilan munosabatda bo‘ladi. Bu munosabatlar bo‘yicha buxgalteriya hisobi yuritilib, bajarilgan operatsiyalarning to‘g‘riligi, ularning o‘z vaqtida yakunlanganligini nazorat qilish uchun, korxonalardan farqli ravishda banklar buxgalteriya hisobining turli registrlari bilan bir qatorda har kuni balans tuzadilar. Banklarda buxgalteriya hisobini yuritishning metodologik asoslari quyidagilar hisoblanadi: a) xo‘jalik faoliyati haqidagi ma’lumotlarni dastlabki hujjatlarda aks ettirish; b) xo‘jalik operatsiyalarini, bank mulkini puldagi ifodasini belgilash; v) barcha operatsiyalarni ikki yoqlama yozuv asosida guruhlashtirish, bunda yozuvlarni hisobvaraqlar rejasidagi hisobvaraqlar asosida olib borish; g) hisob-kitob, kredit, kassa, valyuta va boshqa operatsiyalar yakunida ma’lum sanaga bank faoliyatiga tavsif berish, ya’ni bank balansini tuzish.

Tijorat banklari O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi mulkchilikning qaysi shakliga taalluqli bo‘lishdan qat’iy nazar, ular tomonidan yuritiladigan buxgalteriya hisobi Markaziy bank va Moliya Vazirligi tomonidan chiqarilgan ko‘rsatmalar va yo‘riqnomalarda belgilab berilgan talab darajasida bo‘lish kerak.

Tijorat banklari O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi mulkchilikning qaysi shakliga taalluqli bo‘lishdan qat’iy nazar, ular tomonidan yuritiladigan buxgalteriya hisobi Markaziy bank va Moliya Vazirligi tomonidan chiqarilgan ko‘rsatmalar va yo‘riqnomalarda belgilab berilgan talab darajasida bo‘lish kerak. 22 Ayni paytda bu yo‘riqnomalar o‘z vaqtida bank fi liallariga yetkazilmog‘i, shu bilan birga mahalliy idoralar, soliq nazorati idoralari bilan muvofi qlashtirilgan bo‘lishi lozim. Chunki bank buxgalteriya hisobi ma’lumotlaridan foydalanish doirasi juda kengdir. Xususan, buxgalteriya hisobi va shu asosda tuziladigan bankning moliyaviy hisobotlari, uning ma’lumotlari Davlat tartibga solish idoralari, jumladan, Markaziy bank, Moliya Vazirligi, Davlat Soliq Qo‘mitasi uchun tijorat banklarining moliyaviy ahvoli, pul muomalasining holati, iqtisodiyotdagi naqd pulsiz hisob-kitoblar holatini o‘rganish uchun o‘ta muhimdir. Banklarda buxgalteriya hisobini tashkil etishda hisob ishlari hajmini aniqlab olish, buxgalteriya xodimlari sonini, ular o‘rtasida hisob ishlari taqsimotini, qo‘llaniladigan hisob shaklini, hisob ishlarida qanday hisoblash texnikalari va dasturlardan foydalanishini belgilab olish lozim bo‘ladi

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O‘zbekiston Respublikasining “Tijorat banklarida buxgalteriya hisobining hisobvarag‘lar rejasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi qonuni 2021y.

2.O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2008 yil 11 iyulda 1834-son bilan ro'yhatga olingan Markaziy bank Boshqaruvining 2008 yil 3 maydagi 11/5-sonli qarori bilan tasdiqlangan. O'zbekiston Respublikasi banklarida buxgalteriya hisobini yuritish va buxgalteriya ishlarini tashkil qilish tartibi to'g'risida yo'riqnama.

3.2020 yil 24 fevraldagi PQ-4611-son “Moliyaviy hisobotning halqaro standartlariga o'tishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida”gi.

4. O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Nizomi (Yangi tahriri) 13-aprel 2016-yil

5.Omonov A.A., Karaliev T.M. Banklarda buxgalteriya hisobi. T., Moliya - Iqtisod 2014 y.,

**“ГЕОГРАФИЯ” ВА “БИОЛОГИЯ” ФАНЛАРИНИ ЎҚИТИШДА
ФАНЛАРАРО ИНТЕГРАЦИЯНИНГ — ЎҚУВЧИЛАР ИЛМИЙ ДУНЁ
ҚАРАШИНИ ШАКЛЛАНТИРИШДАГИ РОЛИ.**

Иногамова Дилфуза Рахматуллаевна.

Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети.

*“Махсус педагогиканинг клиник асослари” кафедраси профессори в/б.,
педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (Ph.D).*

E-mail: inogamova.dilya@gmail.com

Абдалова Зулхумор Таировна.

Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети.

“География” кафедраси доценти, география фанлари номзоди (Ph.D).

E-mail: zabdalova@yandex.ru

Аннотация: Мақолада, жонсиз ва тирик табиат тўғрисида яхлит тасаввурни шакллантириш контекстида, умумтаълим муассасаларида биология ва география фанини интеграциялашган ҳолда ўқитиш ўқувчиларнинг илмий дунё қарашини шаклланишида яхши натижа бериши ҳақида фикр юритилади. Интеграциялашган таълим асосида биология ва география фанларининг ўзаро боғлиқлиги ва бир-бирини тўлдириши тушунтирилади.

Калит сўзлар: *фан таълими сифатини ошириш; биология ва география фанларидаги интеграция; илмий дунёқараиш, фанлараро боғлиқлик, моддийлик гоёси.*

**РОЛЬ МЕЖПРЕДМЕТНОГО ИНТЕГРИРОВАННОГО
ОБУЧЕНИЯ «ГЕОГРАФИИ» И «БИОЛОГИИ» – В ФОРМИРОВАНИИ
НАУЧНОГО МИРОВОЗЗРЕНИЯ УЧАЩИХСЯ.**

Иногамова Дилфуза Рахматуллаевна.

*Тошкентский государственный педагогический университет имени
Низамий.*

*И.о. профессора кафедры “Клинические основы специальной
педагогики”,*

доктор философии в области педагогики (Ph.D).

E-mail: inogamova.dilya@gmail.com

Аннотация: В данной статье в контексте формирования целостного видения неживой и живой природы ведется речь, о том что интегрированное обучение биологии и географии в общеобразовательных учреждениях дает хороший результат в формировании научного мировоззрения учащихся. На основе интегрированного обучения объясняется, что предметы биология и география взаимосвязаны и дополняют друг-друга.

Ключевые слова: *повышение качества научного образования; интеграция биологии и географии; научное мировоззрение, междисциплинарность, идея материальности.*

THE ROLE OF INTER-SUBJECT INTEGRATED TEACHING OF “GEOGRAPHY” AND “BIOLOGY” IN THE FORMATION OF STUDENTS’ SCIENTIFIC WORLDVIEW.

Inogamova Dilfuza Rahmatullaevna.

Tashkent State Pedagogical University named after Nizamiy.

*Acting Professor of the Department of Clinical Foundations of Special
Pedagogy.*

Doctor of Philosophy in Pedagogy (Ph.D).

E-mail: inogamova.dilya@gmail.com

Abdalova Zulhumor Tairovna.

Tashkent State Pedagogical University named after Nizamiy.

*Associate Professor of the Department "Geography" Candidate of
Geographical Sciences (Ph.D). E-mail: zabdaloa@yandex.ru*

Abstract: In the article, in the context of the formation of a holistic vision of inanimate and wildlife, it is discussed that the integrated teaching of biology and geography in general educational institutions gives a good result in the formation of the scientific worldview of students. Based on integrated learning, it is explained that the subjects of biology and geography are interrelated and complement each other.

Key words: improving the quality of scientific education; integration in biology and geography; scientific outlook, interdisciplinarity, the idea of materiality.

Ҳозирги вақтда Ўзбекистонда бутун жаҳон таълим тизимига интеграцияланишга қаратилган янги таълим тизими шакллантирилмоқда. Бозор иқтисодиётига мослашган ҳар томонлама чуқур билимга эга бўлган мутахассисларни тайёрлаш ҳозирги замон талабидир.

“География” ва “Биология” фанларини ўқитишда фанлараро интеграрияни қўллаш, ўқитиш самарадорлигини оширувчи омил бўлиш билан бирга, унинг сифатини яхшилашга ҳамда ўқувчиларнинг илмий дунё қарашларини шаклланишида яхши натижаларга эришишга имконият яратади. Ўқувчиларда илмий дунёқарашни шакллантириш, умумтаълим муассасаларининг энг муҳим вазифаларидан бўлиб, ўқувчиларда илмий дунёқарашни шакллантириш эса — педагогик жараённинг асосий мақсадларидан биридир. Шубҳасиз дунёқараш, шахснинг жамиятдаги ҳулқ-атвори ва фаолиятини белгилаб беради. Фан ва техниканинг жадал тараққиёти ўқувчиларда табиий йўналишларда маълум илмий тушунчаларга эга бўлишларини таъқозо қилади.

Илмий дунёқарашни шакллантиришда фанлараро боғлиқликнинг изчиллик тамойилига амал қилиш лозим. Фанлараро боғлиқлик ўқувчиларда маълум ҳодисани турли нуқтаи назарда кўриб, воқеа тўғрисида тўлиқ тасаввурга эга бўлиш имконини беради. Илмий дунёқарашни шакллантиришда хусусан ўрганилаётган воқеа ёки ҳодисанинг барча хусусиятлари ва алоқаларини тўлақонлигича қамраб олиш имконини берадиган фанлараро боғлиқликнинг аҳамияти катта. Масалан, фанлараро боғлиқлик асосида ўқувчиларда тирик ва ўлик табиат, жамият ва табиатнинг бирлиги тўғрисидаги методологик ғоялар шаклланади.

Умумтаълим муассасаларида ўқитиладиган география ва биология фанларининг мазмуни ҳаётий тушунчаларга бой бўлиб, илмий дунёқарашни шакллантириш учун катта имкониятларга эгадир. Чунки бу фанлар табиий объектлар ва ҳодисаларнинг диалектик бирлиги ва умумий ўзаро боғлиқлиги, бир - бирига таъсири билан ажралиб туради.

Олимлардан А.Я.Герд, И.Д.Зверев, Н.М.Верзилин, В.М.Корсунский, Т.Н.Герасимов, М.К.Ковалевский, П.М.Панчешниковлар мактаб фанлари учун илмий дунёқараш ғояларини атрофлича ўрганиб чиққанлар. География ва биология фанларини ўрганиш табиатнинг моддийлиги, унинг объектив реал характери ҳақида тушунча беради.

Табиий фанларни ўқитишнинг илмий методологиясининг асосчиларидан бири А.Я.Герд, ўқувчиларда илмий дунёқарашни шакллантиришда биология фанининг ҳаётий ўрни ва аҳамияти ҳақида таъкидлаб ўтган. Унинг илмий қарашларини А.Н.Бекетов, К.А.Тимирязев, К.Ф.Рулъе, А.П.Богданов, К.Бэр каби олимлар қўллаб-қувватлаганлар ва тўлдирганлар.

Ўқувчиларнинг дунёқарашини тарбиялашда педагогика фанлари доктори, профессор Б.Е.Райков “тадқиқот усули”ни қўллашни, профессор В.В.Половцев эса “лаборатория усули”ни қўллашни таклиф қилганлар.

Табиий фанларни ўқитиш орқали ернинг қадимдан ҳозирги давригача бўлган ўзгаришлари, оламини аста-секинлик билан оддийдан мураккабга томон ўзгариб бориши, унинг хилма-хиллигини ошиб боришини, бўлаётган жараёнларни илмий тушуниш учун дунёқараш ғояларини очиб беришга имконият яратади. Биология ва география фанларини ўрганишда ўқувчилар предмет ва ҳодисаларнинг белгиларини, тузилиши, вазифалари, ривожланиши, ўзаро таъсир динамикасини ўрганадилар, уларда диалектика қонуниятлари намоён бўлади, дунёқараш ғоялари шаклланади.

Моддийлик ғояси табиий география йўналишида фазо-вақт ўзгаришларининг бирлиги орқали ўз ифодасини топади — географик қобикнинг барча объектлари, ҳодисалари, жараёнлари моддий ва ягоналиги, географик ландшафтларнинг ўзаро алоқадорлиги. Мактаб биологиясида моддийликни тушуниш ўсимлик ва ҳайвонот дунёсининг хилма-хиллигини, яшаш шароитлари билан боғлиқ ҳолда ўрганиш, ҳужайрани тирик организмларнинг структуравий-функционал бирлиги, моддалар алмашинуви, ирсият ва ўзгарувчанликни ўрганиш билан боғлиқ. Моддийлик дунёнинг бирлигини ва кейинги дунёқараш ғоясини — яхлитлик ғоясини акс эттиради.

Ер мураккаб ички ва ташқи тузилишга эга бўлиб, ер пўстининг шаклланишида атмосфера, гидросфера, литосфера ва биосфера қобиклари ўртасидаги физикавий, химиявий ва биологик жараёнлар муҳим роль ўйнайди. Ернинг қаттиқ қобиғи материя ва энергия алмашувида муҳим роль ўйнайди. Географик қобик ичида барча компонентлар бир-биридан ажралган ҳолда мавжуд эмас, балки ягона мураккаб тизимни, масалан, Ернинг табиий комплексларини (географик камарларини, табиий зоналарини) ташкил қилади.

Биология фанларида организм ва ҳаётнинг яхлитлигини, ўзаро боғланган орган тизимлари ва уларнинг функцияларининг ягона тизими, ўсимлик ва ҳайвон организмлари мисолида кўриб чиқиш мумкин. Айнан шу ўзаро таъсир ва ўзаро боғлиқлик эса тараққиётга янада туртки беради.

Бутунлик ғояси ўз ифодасини жонли ва жонсиз табиатнинг табиий таркибий қисмларининг доимий ҳаракати ва ўзгариши, ўзаро таъсири ва ўзаро боғлиқлигида ўз аксини топади, улар материя ва энергия айланишида намоён бўлади: сув, ҳаво, биологик бир бутунлик ва бошқалар.

Барча цикллар (даврлар) тўлиқ бирлашмаган ва улар орасидаги бўшлиқлар йўналтирилган ўзгариш векторини ҳосил қилади — яъни ривожланишни. Ривожланиш қарама-қарши ҳодисалар курашида содир бўладиган жараён, масалан, тирик табиат дунёсида белгиларнинг ўзгарувчанлиги ва ирсийлиги, жонсиз табиатда рельефлар шаклланишида экзоген ва эндоген омилларнинг иштирок этиши кабилар.

Ўқувчиларни географик қобикнинг шаклланиш тарихи билан таништириш табиат ривожланишининг характерини очиш ва табиий жараёнларнинг онгли равишда тартибга солиш имконини беради. Биология курсларида тирик организмларни ўрганишда мактаб ўқувчилари органик дунё эволюцияси ҳақида билимга эга бўладилар, уларга организмларнинг тарихий ривожланишининг сабаблари ва қонуниятлари очиб берилади.

Эволюцион тараққиётда диалектиканинг барча қонуниятлари намоён бўлади: материянинг бирлиги, доимий ҳаракати, табиатни таркибий қисмларининг хилма-хиллиги ва ўзаро боғлиқлиги.

Географик жиҳатдан табиий унсурлар бир-биридан ажралган ҳолда мавжуд эмас, балки мураккаб тизимни ҳосил қилади, масалан ернинг табиий компонентлари (географик зоналар, табиий зоналар).

Биологик организм ҳаётининг яхлитлиги ўзаро боғлиқ органик тизимлар ва улар фаолиятининг ягона тизими бўлган ўсимлик ва ҳайвон организмларининг мисолида кўриб чиқиш мумкин. Айнан шу ўзаро таъсир ва муносабатлар ривожланишга янада туртки бериши мумкин.

Шундай қилиб, биосфера ва Ернинг географик қобиғи доимий ҳаракатда бўлган, эндоген ва экзоген жараёнлар таъсирида фазо ва вақт ичида ўзгариб турадиган ўз-ўзидан ривожланувчи тизимлардир.

Илмий дунё қарашнинг таркибий қисми ҳам экологик таълимдир. Табиат дунёси — ҳаёт манбаи, билим ва кадрият объекти бугунги кунда бутунликни, уйғунликни, покликни сақлаш, табиатни оқилона бошқариш ва муҳофаза қилишни талаб қилади. Атроф-муҳитни, жонли ва жонсиз табиат объектларини, уларда содир бўладиган жараён ва ҳодисаларни ўрганиш илмий дунёқарашни шакллантиришга ёрдам беради.

Ўқув тарбия жараёнида ўқувчиларда илмий дунёқараш асосларини шакллантириш лозим. Дунёқарашни шакллантиришда ўқувчи тафаккури, продаси, ҳиссиётлари ва фаоллигига таъсир қилиши ҳам муҳим ўрин

эгаллайди. Воқеа, ҳодисаларни ўрганишда ўқувчида маълум тушунча, тасаввурлар пайдо бўлиши лозим. Уларни ҳосил қилиш эса тафаккур жараёнининг фаол фаолиятидир. Тушунча ва тасаввурлар маслакка айланиши, дунёқарашнинг маълум тизимига айланиши учун улар ўқувчи ҳиссиётлари ва кечинмалари доирасига кира олиши керак. Ижобий эмоционал ҳолат ўқувчиларни илм чўққиларини эгаллашга ундайди.

Албатта, эътиқод ва ҳиссиётлар билан уйғунлашган кучли ирода инсонни маълум ҳатти ҳаракатларга ундайди. Булардан ташқари ўқувчига бўлган ишонч унга маъсулиятни юклаш ҳам илмий дунёқарашни шакллантиришда маълум ўринни эгаллайди. Илмий дунёқарашни шакллантиришда ўқитувчининг ўрни — беқиёсдир. Ўқитувчининг билим савиясидан тортиб, муомаласигача ўқувчиларда ишонч уйғота олса, маълум бир натижага эришилади.

География ва биология фанларининг мазмуни куйидаги муаммоларни ўрганишга қаратилган:

- табиат, табиий, экологик жараёнларнинг моҳияти ва динамикасини билиш;
- табиат ва жамият ўртасидаги ўзаро муносабатларнинг асосий хусусиятларини, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва табиатдан оқилона фойдаланишнинг аҳамиятини тушуниш, ҳаётнинг барча кўринишларида юксак қадриятни тан олиш, экологик онгни шакллантириш;
- аҳолининг тарқалиш (интеграция) қонуниятларини, табиий, ижтимоий-иқтисодий, экологик омиллар билан боғлиқ ҳолда иқтисодиётнинг ҳудудий ташкил этилишини, мослашув ва инсон саломатлиги муаммоларининг яшашнинг географик шароитларига боғлиқлигини аниқлаш.

Биология дарсларида экологик таълим ва тарбия организмларнинг атроф-муҳит билан алоқаси, экологик тизимларнинг тузилиши ва фаолияти, ўсимлик ва ҳайвонот турларининг хилма-хиллиги, уларнинг табиат ва инсон ҳаётидаги аҳамиятини ўрганишга асосланади. География дарсларида атроф-муҳитдаги антропоген ва табиий ўзгаришларнинг географик оқибатларини ўрганувчи геоэкологик йўналиш доирасида олиб борилади.

Биология ва география фанларининг боғловчи бўғини, тирик организмларнинг теварак-атрофдаги, табиатда табиий зоналар бўйича тарқалишини, тирик организмларнинг эндоген, экзоген муҳит омиллари ва антропоген таъсиридаги ҳаётининг фаолиятини ўрганади. Экологик тушунчалар асосида табиатнинг асосий қонуниятларини тушунтирувчи умумлашган билимлар бўлган дунёқараш ғоялари ҳам шаклланади.

Географик қобикдан, шу жумладан биосферадан оқилона фойдаланиш зарурлиги ҳақидаги ғоя география ва биология курсларида табиатнинг одамлар учун аҳамияти ва уни муҳофаза қилиш чораларини кўриб чиқишда намоён бўлади.

Табиатдан фойдаланишга интеграциялашган илмий ёндашув ғояси муҳим экологик муаммоларни ҳал қилишнинг фанлараро боғлиқлигида намоён бўлади. Табиатшунослик фанларининг ушбу соҳадаги вазифалари “...табиатни муҳофаза қилиш ва ўзгартиришнинг илмий асосларини ишлаб чиқиш, инсоннинг иқтисодий фаолиятининг салбий оқибатларини олдини олиш бўйича тавсиялар ишлаб чиқиш, табиатни муҳофаза қилишни таъминлаш, атроф-муҳит ҳолатига қаратилган”.

Табиатнинг ривожланиш қонуниятларини англаш ғояси кўриб чиқилаётган фанлар мазмунида ҳам ўз ифодасини топган. Таълим жараёнида ўқувчилар атроф-муҳит муаммоларини ўрганиш усуллари билан танишадилар: атроф-муҳит мониторинги (биотестинг, биоиндикация, географик прогнозлаш, экологик ва географик экспертиза), бу ривожланиш қонуниятларини билиш мумкинлиги тўғрисида хулоса чиқариш учун асос бўлади.

Дунёнинг биологик-географик расмининг таркибий қисмлари сифатида географик ва биологик билимлар тизимини шакллантириш, география ва биологиянинг табиатшунослик фанлари вазифалари сифатида таъкидланган ва биз оғир-оқибатда буларни ягона илмий бирликнинг элементлари деб ҳисоблаймиз. Дунё тасвири, когнитив маданият билан танишиш, ҳаётнинг барча кўринишларида юксак қадриятни тан олиш, атроф-муҳитни билиш, тадқиқот усулларини ўзлаштириш, ўқувчиларнинг билиш мотивларига асосланган интеллектуал қобилиятларини шакллантиради.

Демак, экологик онгни шакллантиришга қаратилган фанларнинг мазмуни билимларнинг узвийлиги, эгалланган қадриятлар иерархияси, ахлоқий, ақлий, дунёқараш тарбиясининг устуворлиги билан тавсифланади. Шубҳасиз, фанлараро алоқалар жонли ва жонсиз табиатнинг диалектик алоқаларини, унинг ҳаракати ва ривожланишини акс эттиради, дунёнинг моддий бирлиги, материянинг ҳаракат шакллари (биологик ва географик) муносабатлари ҳақидаги дунё қараш ғояларини шакллантиришга ёрдам беради.

Инсон ҳаёт экан, бутун умри давомида ўсиб, ривожланиб, ўзгариб боради. Болалик, ўсмирлик ва ўспиринлик йилларида шахснинг камол топиши яққол кўзга ташланади. Ривожланиш деганда, биз шахснинг ҳам жисмоний, ҳам ақлий ва маънавий камол топиш жараёнини тушунамиз.

Педагогика ва психология фани ривожланишни биологик ва социал хусусиятлари ўзаро чамбарчас боғлиқ бўлган бир бутун нарса, деб ҳисоблайди. Одам боласининг шахс сифатида ривожланиши, ҳар томонлама камол топишининг самарали бўлишига эришиш мақсадида педагогика фани ривожланишининг қонуниятларини, унга таъсир этувчи омилларни шунингдек, шахс камолотида таълим - тарбия ҳамда фаолиятнинг таъсири ва аҳамиятини аниқлайди, таҳлил қилади. Маълумки, одам шахс сифатида дунёга келмайди, балки унинг шаклланиши аввало ҳаёт шароитларига боғлиқдир. Шахс ҳаёт давомида мураккаб ривожланиш жараёнини бошидан кечиради, натижада шахсга айланади. Шу сабабли шахсни маълум ижтимоий тузумнинг маҳсули, деб тушунишимиз лозим.

Ҳулоса қилиб шуни айтиш лозимки, фанлараро интеграциядан фойдаланиш биология ва география ўқитувчиларининг энг мураккаб услубий вазибаларидан биридир. Бу бошқа фанлар бўйича дастур ва дарсликлар мазмунини билишни талаб қилади. Ўқитиш амалиётида фанлараро интеграцияни амалга ошириш биология ўқитувчисининг география ўқитувчиси билан ҳамкорликда ишлашларини назарда тутати; яъни очик дарсларга ташриф қилиш, биргаликдаги дарсларни режалаштириш ва ҳ.к. Фанлараро интеграцияни самарали амалга ошириш усулларидан бири – ўқитувчиларнинг узлуксиз ҳамкорлигидир.

Замонавий ўқитувчи таълим жараёнини ташкил қилиш методлари ҳамда воситаларидан фойдаланиб, ўқувчиларнинг психологик, индивидуал хусусиятларини инобатга олган ҳолда, ҳар бир дарс машғулотларини ҳозирги ривожланаётган жамият талабларига мос равишда, юқори даражада ташкил қилиш малакасига эга бўлиши лозим.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Андреева Н.Д., Малиновская Н.В., Соломин В.В. «Методика обучения биологии». История становления и развития: учеб. пособие для академического бакалавриата / под ред. Андреевой Н.Д. — 2-е изд., испр. и доп. — М.: Издательство Юрайт, 2017.

2. Зверев И.Д. «Взаимная связь учебных предметов». - М: Знание, 1977.

3. Рудь К.Ф. «Избранные биологические произведения». / Под ред., с коммент. и послесл. Давиташвили Л.Ш., Микулинского С.Р.. — М. : Изд-во АН СССР, 1954. — 688 с.

4. Арбузова Е.Н. Половцов В.В. — автор первого российского учебника по методике преподавания биологии // Вестник Омского гос. пед. ун-та : Электронный научный журнал. — 2007.

5. «Учебно-методическое пособие для студентов географического факультета педагогических специальностей». — Брест: БрГУ, 2012. — 420 с.
6. «Учебное пособие для студентов педагогических специальностей и учителей географии». — Мн.: Аверсэв, 2006. — 157 с.
7. Низомова Ш.И. “География фанини ўқитишда ноанъанавий дарс усулларидан фойдаланиш имкониятлари”. // Современное образование (Узбекистан). 2018. № 3.
8. Муслимов Н., Усмонбоева М., Мирсолиева М. “Инновацион таълим технологиялари ва педагогик компетентлик” ўқув услубий мажмуа. - ТДПУ хузуридаги ПКҚТ ва МО маркази, 2016 йил 6 апрель. 14-28 бетлар.
9. Жаркова Т.Г. и другие «Некоторые аспекты межпредметной интеграции в зарубежном школьном образовании». Научно теоритический журнал Российской академии образования. «Педагогика», 2019 № 12 стр.102.
10. Гурьев А.И. «Статус межпредметных связей в системе современного образования». / Наука и школа 2002 № 2.
11. Елагина В.С. «Профессиограмма деятельности учителей естественнонаучных дисциплин по реализации межпредметных связей в обучении школьников». / Наука и школа 2002 № 2.
12. Манаенкова О.А. «Моделирование и проведение учебных занятий на основе интегративного подхода». / Наука и школа 2002 № 4.
13. Баротов М.У., Иногамова Д.Р., “Фанлараро интеграция тушунчаси ва таълим жараёнидаги ўрни”. «Eurasian Journal of Mathematical Theory and Computer Sciences» (ISSN: 2181-2861), 2022 йил 12 ноябрь 12-сон.
14. Inogamova D.R. "Methodological bases of teaching medical genetics". Monograph. - T .: "Nodirabegim" publishing house. 2022.
15. Dilfuza Inogamova, Sanobar Safarova. «Forms of organizing learning activities medical college students in classes medical genetics». International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE), ISSN: 1308-5581 Vol 14, Issue 03 2022.

ТАЪЛИМ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА ПЕДАГОГИК
ХУСУСИЯТЛАР

Ш.Н.Янгиев – “ТИҚХММИ” МТУнинг Қарши ирригация ва
агротехнологиялар институти

Аннотация: Ҳозирги замон ўқитувчиси ўз фанини мукамал билиши, замонавий ахборот технологияларини яхши ўзлаштирган бўлиши, маънавий-ахлоқий пок ва сиёсий дунёқарабини шакллантириш.

Калит сўзлар: ўқитувчи, ахборот технологиялар, тарбия.

Жамиятни юқори малакали мутахассислар билан таъминлашда, комил инсонни тарбиялашда, таълим сифатини кўтаришда профессор-ўқитувчиларнинг салоҳияти, уларнинг педагогик маҳорати таълим-тарбия жараёнида асосий омил ҳисобланади. Буюк аллома А.Авлоний таъкидлаганидек, “Устоз - муаллим биринчи навбатда билимли, одоб-ахлоқли, кийиниши ва юриш-туриши билан фақат ўзининг ўқувчи ва талабаларига эмас, балки бутун инсониятга намуна бўлиши керак”. Таълим муассасаларида давлат таълим стандартлари ҳамда фан дастурларининг тўлиқ ва сифатли бажарилиши ҳар томонлама ўқитувчига, унинг билим ва малакасига, масъулиятлигига, фидойилигига, қолаверса виждонига боғлиқдир.

Ҳозирги замон ўқитувчиси ўз фанини мукамал билиши, дарс жараёнида педагогик технологияларни қўллай олиши, замонавий ахборот технологияларини яхши ўзлаштирган бўлиши, маънавий-ахлоқий пок ва сиёсий дунёқараши юқори бўлмоғи лозим. Шу ўринда, немис педагоги Адольф Дистерверг “Ҳар қандай таълим ва тарбияда энг асосий фигура - муаллим, унинг тафаккур дунёсидир” деб ёзади.

Ўқитувчилик шарафли, шу билан биргаликда ўта масъулиятли ва машаққатли касб. Ўқитувчилик фидойиликни, ҳалолликни, кўп меҳнатни, ўз устида диомий ишлашни, замон билан ҳамнафас бўлишни, талабанинг ишонч ва ҳурматини қозонишни, педагогик маҳорат ва техникани талаб этади. Бинобарин, буюк немис педагоги Адольф Дистерверг ўқитувчининг мунтазам равишда фан билан шуғулланиши ҳақида гапириб, шундай ёзган эди: “Ўқитувчи мунтазам равишда фан билан шуғулланмоғи лозим. Акс ҳолда у қуриган дарахт ва тошга ўхшаб қолади. Қуриган дарахт ва тош мева бера олмаганидек, келажакда бу ўқитувчидан ҳеч натижа кутиб бўлмайди”.

Бугунги ёшлар илмга чанқоқ ва интилувчандир. Уларга фақат ҳалол-пок билим бериш керак. Билим олувчининг иззат-нафсига тегиб билим ўргатиб бўлмайди. Чунки, билим олиш ҳам ижодий фаолият ҳисобланади. Буюк педагог Ральф Уолд Эмерсон “Таълимнинг сирини ўқувчига ҳурматда бўлишдир” деб ёзади. Ўқитувчи дарс ўтишда ўта маданиятли, талабчан

бўлиши ва тартиб-қоидаларга қатъий амал қилиши шарт. “Намуна кўрсатган ҳолдагина инсон энг юксак натижаларга эришади” деб таъкидлаган педагог С.Цвейг.

Педагогик жараёни тўғри ташкил қилиш, бошқариш, кутилаётган натижаларни олдиндан лойиҳалаштириш ва амалга ошириш, таълим-тарбия жараёнида ўқитувчидан катта масъулият талаб қилади. Ўқитувчи педагогик маҳоратининг асосий хусусиятларини қуйидагилар ташкил қилади: ўқитувчи шахсиятининг инсонпарвар йўналиши; касбий билимлар; педагогик қобилият; педагогик муомала; педагогик ижод; педагогик маданият; педагогик назокат; педагогик техника.

Ўқитувчининг шахсий сифатларида етакчи ўринни инсонпарварлик, софдиллик, поклик ва адолат эгаллаши шарт. Педагогик муомала - ўқитувчи касбий фаоллигининг бир кўриниши бўлиб, таълим-тарбияда шу жараён иштирокчиларининг ўзаро таъсири ва ҳамкорлигини акс эттиради. Педагогик ижод - ўқитувчидаги яратувчанликни, ташаббускорликни, педагогик уддабуронликни ва янгиликка элтувчи йўлни англатади. Педагогик маданият - ўқитувчилик бурчи, масъулияти, кадр-қиммати, виждони, ахлоқий эътиқодини назарда тутиб, унинг талабчанлиги, адолати, комиллиги, ростгўйлиги, тўғрилигини ифодалайди. Педагогик назокат – ўқитувчининг педагогик мақсадга мувофиқ, фойдали, қимматли ҳаракатларининг ўлчови, меъёри ва таъсир воситасининг чегараси сифатида характерланади. Педагогик техника – ўқитувчи фаолиятининг ташкилий шакли бўлиб, ўқитишда, таълим олувчиларга таъсир кўрсатишда дидактик, ташкилотчилик, конструктив, коммуникатив малакаларни ўзида мужассамлаштиради. Мазкур жиҳатлар ўқитувчининг касбий хусусиятларини бойитади ва уни моҳирлик сари етаклайди ва педагогик маҳорат малакаларининг таркиб топишига ёрдам беради. Педагогик маҳорат тизимида унинг асосий компонентларидан ташқари касбий хусусиятлар ҳам мавжуд. Педагогнинг касбий хусусиятларига: ўз касбини, талабаларни севиши, зийраклиги, ҳозиржавоблиги, вазминлиги, педагогик салоҳияти, тасавури, иқтидори, ташкилотчилиги, чуқур ва кенг илмий савияси, касбий лаёқатлилиги, маънавий бойлиги, интеллект, янгиликни англай ва қўллай олиши, касбий маълумотни мунтазам оширишга интилиши ва бошқа фазилатлари киради. Машхур Нақшбанд тариқатида шундай ҳикмат бор “... Адаб бу хулқни чиройли қилиш, сўзни ва феълни соз қилишдир. Хизмат одоби улуғ бахтдан яхшироқ, унинг белгиси амалнинг қабули, туғён эса амалнинг бузуқлигидир. Адабни сақлаш - муҳаббат самараси, яна муҳаббат дарахти, яна муҳаббат уруғи ҳамдир”.

Ўз касбининг моҳир эгаси бўлиш учун ўқитувчи мунтазам ўз устида ишлаши, табиатдан, санъатдан, ҳаётдан, фандан баҳра олиб, ривожланиб, мукаммаллашиб боргандагина мақсадга эришади. Инсон психологиясининг моҳир устаси Ф.Н.Гоноболин таъкидлаганидек “Ўқитувчи ўзининг бутун куч – қувватини, иродасини, билимини, ўзида бор ҳамма яхши нарсаларини ўз шогирдларига, халққа беради. Аммо, у ўзида бор нарсаларнинг ҳаммасини бугун, эртага, индинга берса-ю, ўз билимини, кучини, қувватини яна ва яна тўлдириб бормаса, у ҳолда ўзида ҳеч нарса қолмайди. Ўқитувчи бир томондан ўзида борини бериши, иккинчи томондан булут сингари, ҳаётдан, фандан, нимаики яхши нарсалар бўлса олишга одатланмоғи, халқнинг энг илғор кишилари билан ҳамкорликда ишламоғи лозим. Ана шундай бўлганда, у ўз талабаларига қанча кўп нарса бермасин, агар халқдан, ҳаётдан, фандан озикланиб, энг яхши хислатларни ўқий олса, у ҳолда, унда ўз талабалари учун бундай ризқли ширалар ҳамиша ортиғи билан мавжуд бўлади”.

Педагогнинг иш соҳасида талабалар, уларнинг ота-оналари ва ҳамкасблари билан алоқасидан иборат яхлитлик - педагогик фаолиятнинг асосини ташкил этади. “Педагог, - деб ёзади Ян Амос Коменский, соф виждонли, ишчан, саботли, матонатли ўқувчиларга ўзи сингдириши лозим бўлган фазилатларнинг ибратли кишиси бўлиши, кенг маълумотли ва меҳнатга лаёқатли инсон бўлиши лозим. У ўз фанини беҳад севиши, ўқувчиларга бамисоли оталардек муомалада бўлиши ва ҳар бир илм олувчи қалбида билимга ҳавас туғдириши лозим”. Буюк рус педагоги А.С.Макаренко айтганидек: “Тарбиячи ташкил этишни, юришни, ҳазиллашишни, қувноқ ёки жаҳлдор бўлишини билиши лозим. У ўзини шундай тутиши керакки, унинг ҳар бир ҳаракати тарбияласин ва ўқитсин”.

Хулоса: Ҳар бир ўқитувчи халқимизнинг таълим-тарбия соҳасидаги бой тарихи, анъаналари, буюк аждодларимизнинг илмий меросларидан фойдаланган ҳолда ўқув машғулотларини самарали ташкил этиши шарт. Педагогик фаолиятда етарли маҳорат ва малакага эга бўлган педагог ўз-ўзини назорат қила олади, педагогик фаолияти давомида соғлом асаб тизимини ўзида тарбиялай олади, асабийлашишдан, ҳиссий ва ақлий зўриқишлардан ўзини асрайди. Зотан, педагогик маҳорат ва техника - ўқув, билим, кўникма, малака, машқ ва ақл ҳосиласидир.

АДАБИЁТЛАР

1. Ишмухамедов Р., Юлдашев М. Таълим ва тарбияда инновацион педагогик технологиялар (ўқув қўлланма) – Тошкент., 2017 й.
2. Ахмедова М.Т. Педагогик конфликтология – Тошкент: Донишманд зиёси, 2020 й.
3. Ахмеджанов М.М., Хўжаев Б.Қ Педагогик маҳорат –Тошкент: 2016 й.
4. Толипов Ў., Усмонбоева М. Педагогик технологияларнинг татбиқий асослари. – Тошкент: “Фан” нашриёти, 2012.
5. Бикбаева Н.У, Р.И.Сидельникова,Г.А.Адамбекова. Бошланғич синфларда математика ўқитиш методикаси. (ўрта мактаб бошланғич синф ўқитувчилари учун методик қўлланма.) Тошкент. «Ўқитувчи» 1996 йил.

Zamonaviy avtomatlashtirilgan loyihalash tizimi asoslari.

TMTI "Avtomatlashtirish va boshqarish" kafedrasini o'qituvchisi:

Mengatova Xurshida Toshmuxamatovna xurshidamengatova@gmail.com

+99890519 00 72

Termiz muhandislik-texnologiya instituti talabasi:

Jo`raqulova Shaxzoda Rustamovna joraqulovashaxzoda77@gmail.com,

+998(88)844 0512

Tayanch so'zlar: loyihalash, avtomatlashtirish, inavatsiyalar, rekonstruksiya, General Motors, Interaktiv, inavatsiya, optimal loyihalar,

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqola Loyiha, loyihani boshqarish, loyiha qiymati, loyiha byudjeti, loyiha natijasi, Loyihalash jarayonlarini boshqarish va avtomatlashtirish usullari haqida batafsil yoritilgan. Muhandislik masalalarini loyihalashda va uni avtomatlashtirishda Project dasturidan foydalanis maqsadi ko'zda tutilgan.

Har qanday vazifani bajarish uchta turdagi resurslar-odamlar, mashinalar va jihozlar bilan taminlanadi. MS Project dasturida barcha manbalar ikki toifaga bo'linadi; odam va uskunalar mehnat resurslari bilan bo'g'liq. Vazifani bajarish uchun bunday manba sarflangan kuchni o'lchash birligi uchun vaqt talab etiladi. Materiallar moddiy resurslarga tegishli. Ular uchun bajarilgan vazifalarga nisbatan o'lchangan miqdor resursni istemol qilish, o'lchov birligi esa resurs miqdoridir.

Ishlab chiqarish korxonasi loyihalash va uning tarmoqlarini rivojlantirishdagi ahamiyatini asoslash uchun korxonani loyihalashni, qurishni, rekonstruksi qilish yoki texnik qayta jihozlashning maqsadga muvofiqligi aks ettiruvchi zaruriy texnikaviy-iqtisodiy ko'rsatgichlarga ega materiallar ishlab chiqariladi. Loyihaning texnikaviy iqtisodiy asoslanishi quyidagi malumotlarga ega bo'lishi kerak;

1.Rekonstruksiya qiliniyotgan yoki kengaytirilayotgan korxonaning batafsil tafsifnomasi, uning faoliyatini baholash;

2.Korxonani mahsulotiga bo'lgan talabni asoslash hamda korxonaning ishlab chiqarish quvvati va iqtisoslashuvini aniqlash;

3.Korxonani xom ashyo, materiallar, yarim mahsulotlar, elektr energiyasi, yonilg'i materiallari suv va boshqa resurslar bilan taminlash;

4. yangi korxonani qurish va amaldagi korxonani kengaytirishda quvvat birligiga keltirilgan minimum xarajatlilar bo'yicha korxonani rivojlantirishni asoslash;

5.Asosiy texnologik yechimlarni asoslash; undan quyidagi masalalar ko'rib chiqiladi;

a. ishlab chiqarishning texnologiyasi, fan va texnikaning yorqin yaqin kelajakdagi rivojlanish istiqbollaridan kelib chiqqan holda uning zamonaviy texnologik jarayonlarga muvofiqlik;

b. uskunalarni tanlash; xorijiy uskunani o`rganishda istiqbolli ishlab chiqarish rejasini qay darajada hisobga olinganligi, uskunani sotib olish zarurating sababi;

d. maxsus buyurtmalar bo`yicha tayyorlanishi kerak bo`lgan yangi uskunalarga qo`yiladigan asosiy talablar;

22. Abdukarimovna, Abdukarimova Mamlakat, Qulmurotova Aziza Muhiddinovna, va Mamarajabov Samandarbek Faxriddinovich. "POMIDOR ZARARONCHILARI" *Finlyandiya xalqaro ta'lim, ijtimoiy fanlar va amp; Gumanitar fanlar* 11.2 (2023): 427-430.

23. Xolmamatovna, Xafizova Matluba, et al. "TYPES OF SOILS COMMON IN UZBEKISTAN AND THEIR CHARACTERISTICS." *American Journal Of Agriculture And Horticulture Innovations* 2.09 (2022): 13-19.

24. Nodirovna, Nabijonova Halima, et al. "Village Farm Plants Pests." *Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences* 1.5 (2022): 217-220.

25. Xayitovna, Pirimqulova Muxabbat, et al. "Planting Cauliflower Seeds in the Open Field." *INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION* 1.5 (2022): 240-246.

26. Faxriddinovich, Mamarajabov Samandarbek, et al. "FERTILE VARIETIES OF GOOSEBERRIES."

VOLUME-1, ISSUE-5


27. Bobirovich, Abdullayev Muxtorjon, and Mamarajabov Samandarbek Faxriddinovich. "VARIETIES AND ACHIEVEMENTS OF MOSH PLANT SELECTION IN UZBEKISTAN."

28. Xayitovna, Pirmqulova Muxabbat, and Mamarajabov Samandarbek Faxriddinovich. "BIOLOGICAL AND MORPHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF POTATOES."

29. Rajametov Sh, Normurodov I, Adilov X, Nomozov I, Meva rezavor meva va tok kuchatzorlarini tashkil etish. O'quv qullanma.Toshkent-2018

30. Zokirova M.S. Axmedova Z.R. Yaxyayeva M.A., Dodayev KO Topinambur (*Heliantus tuberosus* L.) tuganagini saklashning yangi biotexnologik usullari O'zbekistonda yaratilgan topinambur industriyasining salohiyati korporativ innovatsion hamkorlik natijalari va istikbollari T.2013 123-130 bet

31. Abdullayev, Muxtorjon, and Samandarbek Mamarajabov. "VARIETIES AND ACHIEVEMENTS OF WHEAT PLANT SELECTION IN UZBEKISTAN." *Eurasian Journal of Academic Research* 2.11 (2022): 100-104.



УДК: 633.854.78:631.52

КУНГАБОҚАР ВА ТОПИНАМБУР ДУРАГАЙИ.

Термиз агротехнологиялар ва инновацион ривожланиш институти

БОЛТАЕВ ХУШМУРОД ЖУМАБОЙ ЎҒЛИ

xushmurodb@gmail.com

МАМАРАЖАБОВ САМАНДАРБЕК ФАХРИДДИНОВИЧ

s.f.mamarajabov@gmail.com

Аннотация: Ушбу мақолада, астерадошлар оиласига мансуб бўлган кунгабоқар билан топинамбур ўсимликларини дурагайлашнинг усули, кунгабоқар ва топинамбур дурагайининг яратилиш тарихи, бу ўсимликларни дурагайлаш туфайли яратилган навлар ва уларнинг аҳамияти ҳақида маълумотлар баён этилган

Калит сўзлари: астерадошлар оиласи, *Артемисиа Л*, Хелиантхус, Х. Петиоларис, Х. Туберосус.

Кириш. Кунгабоқарнинг уруғидан ажратиб олинадиган мой ер юзи аҳолиси истеъмоли учун ишлатиладиган ўсимлик мойининг асосийларидан бири ҳисобланади. Кунгабоқарнинг ер юзидаги майдони 28 млн га, ўртача ҳосилдорлиги 15-20 ц/га, мутлоқ курук уруғидаги мой миқдори 55-56 фоизни ташкил этади. Айрим давлатларнинг илғор хужаликларида кунгабоқардан 40-43 ц/га ҳосил етиштирилмоқда.

Кунгабоқар ўсимлигининг ватани шимолий Америка бўлиб, дастлаб унинг уруғларини маҳаллий аҳоли истеъмом қилган. Кунгабоқар Петр 1 даврида ХВИИ асрда Россияга Голландиядан олиб келтирилган. Бу ерда кунгабоқар 100 йилдан кўп вақт давомида манзарали экин сифатида ўстирилган. Уша пайтларда кунгабоқарнинг уруғидаги мой миқдори 17-20% эди. Машҳур селекционер, академик В.С.Пустовойт Краснодардаги Россия мойли экинлар илмий-тадқиқот институти, олдинги "Круглик" номли селекцион тажриба станциясида 1912-йилдан бошлаб кунгабоқар селекцияси ишларини бошлаган ва бутун умрини шу экин селекциясига бағишлаган. В.С.Пустовойт кунгабоқар уруғидаги мой миқдорини 20 фоиздан 55 фоизгача оширишга эришган. Ундан кейинги пайтларда кунгабоқар капалаги билан зарарланади ва катта майдонлардан ҳосил олинмайди. XIX асрнинг бошланиши ва ундан кейинги пайтлар шувоқ (*Артемисиа Л*) ўсимлигидан гулли текинхўр - шумғия (Оробанче кумана) кунгабоқарга ўтади. Шумғиянинг аввал "А" ирқи, кейин "Б" ва ундан кейинги йилларда янада хавфли ирқдари кучли зиён етказди. Бу хавфли касалликлар ва

зараркунандаларга қарши курашда селекцион усулдан фойдаланиш зарур эди.



Хақиқатан, кунгабоқар (Хелиантус) нинг 100 тага яқин ёввойи ва маданий турлари мавжуд. Булардан маданий кунгабоқар - Х. султус Вензи ва топинамбур (ер ноки) - Х. Туберосус маданийлаштирилган турларининг кўплаб навлари, дурагайлари озиқ-овқат экини сифатида ўстирилмоқда. Кунгабоқарнинг айрим ёввойи кўп йиллик турлари (Х. Хирсутус - курғокчиликка чидамли, Х. Петиоларис - совуқга чидамли, Х. Петиоларис-тезпишарлик ва пуштсизлик манбаи Х. Туберосус - илдиз текинхури шумғия (Оробанче кумана) ва қатор замбуруғли касалликлар ва кунгабоқар капалагидан зарарланишга чидамлик белги-хусусиятларига эга бўлиш билан бир қаторда жуда юқори ҳосилли бўлиб, майдон ҳисобидан 70-80ц/га туганак ҳосил етштириш мумкин

Уша пайтларда селекционерларнинг маданий кунгабоқар билан, (касаллик ва зараркунандаларга чидамли) кўп йиллик топинамбур (ер ноки) ни дурагайлаш ўтказишга қизиқиши катта бўлган. Кунгабоқар билан топинамбурни дурагайлаш ишлари 1933-йили ВИР (Умумжаҳон ўсимликшунослик илмий-тадқиқот институти) тажриба марказининг илмий ходими Н.А. Шибра томонидан бошланган. Кунгабоқар билан топинамбурни дурагайлаш ишлари жуда кейинчилик билан ва узок муддатда амалга ошган .



А
кадеми

к 2 марта меҳнат қаҳрамони. Топинамбурмеvasи ва гултўплами
В. С. Пустовойт

Чунки Ҳ. Туберосус ва - Ҳ. султус турлари, бир-биридан ҳар хил белги ва хусусиятлари билан кескин даражада фарқ қилади. Шу жумладан хромосомалар сони ҳар хил бўлиб, Ҳ. Туберосус да $2n=102$ та хромосома, - Ҳ. султус да эса $2n=34$ та хромосома мавжуд. Кунгабоқарнинг меvasи писта бўлиб, ундан мой ажратиб олинади. Топинамбур туганаклиларга мансуб экин бўлиб, унинг ҳосили туганак ҳисобланади.

Аммо бир оила (Астерасеae) га ва бир авлод (Ҳелиантҳус)га мансуб бўлганлиги, иккаласининг гул тўплами саватча, уруғи писта бўлганлиги ва гуллаш биологияси ва жараёнлари бир-бирига ўхшагани учун дурагайлаш ишлари машаққатли бўлсада кўп йиллар давомида амалга оширилган.

(ВНИИМК) Умужаҳон мойли экинлар илмий тадқиқот институтининг физиология бўлими ходими А.Й. Панченко 1949-йилда топинамбур ва кунгабоқарни вегетатив яқинлаштириш ва генератив чатиштириш комбинацияси орқали дурагайлаш ўтказди. А. Й. Панченко ва унинг сафдошларининг мақсади кўп йиллик юқори ҳосилли кунгабоқар шакллари яратиш эди. Улар томонидан дастлабки кунгабоқар + топинамбур дурагайи олинган, аммо ҳосилдорлик ва бошқа қимматли хужалик белги-хусусиятлари яхши намоён бўлмаган.



1950-йил В.С.Пустовойт ҳам топинамбур ва кунгабоқарнинг вегетатив ҳамда генератив чатиштиришлар комбинацияси усулини бир неча марта кўллайди. Кунгабоқарга топинамбурни пайванд килади. Пайвандтагнинг гулини пайвандустнинг гул чанги билван чанглантиради. Топинамбур ва кунгабоқарни чатиштириб олинган дурагайларни учинчи авлодидан бошлаб икки хил вариантда:

1. Учинчи авлод дурагайларини шу авлод чанглари билан бир неча марта такрорий чанглантиради.

2. Учинчи авлод дурагайлари кунгабоқар гулининг чанги билан бир неча марта такрорий чанглантиради. Шу иккинчи вариантда ўтказилган чатиштиришлар асосида ижобий натижага эришилади. Шу тариқа кунгабоқар ва топинамбур дурагайлари яратилади. Бу яратилган кунгабоқар-топинамбур дурагайи авлодларидан танлашлар ўтказиш ва уларда қайта дурагайлаш ўтказишлар асосида янги навлар яратила бошланади.

ХУЛОСА: 1955-1956 йилларда Бутун Россия Мойли экинлар илмий тадқиқот институтининг илмий ходими Г. В. Пустовойт томонидан топинамбур билан кунгабоқарнинг ВНИИМК 89-31 нави чатиштирилади. Ҳ. Туберосус билан Н. султус турларини чатиштиришлар натижасида кунгабоқарнинг юқори ҳосилли, кунгабоқар шумғуяси, сохта ун шудринг касаллиги, вертициллёз сўлишига, қизил капалакка чидамли "Одесская-63", "Старт", "Юбилейный-60", "Прогресс" навлари яратилади. Ҳ. Туберосус турининг ўзидан чанглантирилган инцухт линияларининг иштирокида силосбоп Печенег нави яратилган. Бу нав кўп шохланувчи, шумғияга, ун-шудринг касаллигига чидамли бўлиб, уруғидан мой олиш билан бир каторда юқори ҳосилли озуқабоп (хашаки) нав ҳисобланади. Ҳ. лентисуларис ва Ҳ. аннуус турларини дурагайлаш ва олинган сўнгги авлодларни танлашлар асосида яратилган "Солнечный" нави тезпишарлиги, паст буйлилиги ва уруғида мой микдори кўп бўлиши билан ўша пайтдаги навларга нисбатан юқори ҳосилли бўлган.

АДАБИЁТЛАР

1. Абдукаримов Д.Т "Кунгабоқар экини селекцияси" // Дала экинлари хусусий селекцияси. - Т., 2007. - Б. 398-420.
2. Пустовойт В.С. Подсолнечник. - М., 1967. - С. 27-44.
3. Василев Д.С. Подсолнечник. - М., 1990. - С. 31-33.
4. Тихонов О.И., Бочкарев Н.И, Дьяков А.Б "Биология, селекция возделывания подсолнечника". - М., 1991. - С. 71-75.
5. Луков М.К. Два урожая семян подсолнечника в году // Журнал "Земледелец". - Душанбе, 2008. - №1 (41). - 6 с.
6. Zokirova M.S. Axmedova Z.R. Yaxyayeva M.A., Dodayev KO Topinambur (*Heliantus tuberosus* L.) tunganagini saklashning yangi biotexnologik usullari O'zbekistonda yaratilgan topinambur industriyasining salohiyati korporativ innovatsion hamkorlik natijalari va istikbollari T.2013 123-130 bet
7. Abdullayev, Muxtorjon, and Samandarbek Mamarajabov. "VARIETIES AND ACHIEVEMENTS OF WHEAT PLANT SELECTION IN UZBEKISTAN." *Eurasian Journal of Academic Research* 2.11 (2022): 100-104.

VOLUME-1, ISSUE-5

9. Xayitovna, Pirimqulova Muxabbat, and Mamarajabov Samandarbek Faxriddinovich. "Cauliflower Growing Technology." *Texas Journal of Multidisciplinary Studies* 6 (2022): 8-10.
10. Xayitovna, Pirimqulova Muxabbat, and Mamarajabov Samandarbek Faxriddinovich. "KARTOSHKANING TARQALISH HUDUDLARI."
11. "O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI 2.18 (2023): 209-212.
12. Xayitovna, Pirimqulova Muxabbat, Mamarajabov Samandarbek Faxriddinovich, and Jumayev Islom Bobomurod o'g'li. "O'ZBEKISTONNING O'RTA MAVSUMDAGI GULKARAM NAVLARI."
13. Примкулова, Мухаббат Хайитовна, et al. "МОРФОЛОГИЧЕСКИЕ И БИОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАСТЕНИЯ ПАМИДОР, СОПТА." *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI* 2.19 (2023): 69-74.
14. Jumageldiyevna, Gulshan Nurmatova, and Mamarajabov Samandarbek Faxriddinovich. "ZARANG (ACER) TURKUMI." *Innovation: The journal of Social Sciences and Researches* 1.6 (2023): 6-11.
15. Qizi, Xushvaqtova Muhlisa Nuriddin, and Mamarajabov Samandarbek Faxriddinovich. "Achchiq Bodom Turkumi." *Innovation: The journal of Social Sciences and Researches* 1.6 (2023): 141-149.
16. Jumageldiyevna, Gulshan Nurmatova, and Mamarajabov Samandarbek Faxriddinovich. "KIVI O'SIMLIGI HAQIDA." *Innovation: The journal of Social Sciences and Researches* 1.6 (2023): 12-17.
17. Jumageldiyevna, Gulshan Nurmatova, Abdurayimova Mujgona Abdujalilovna, and Mamarajabov Samandarbek Faxriddinovich. "QAYRAG 'OCH (ULMUS) TURKUMI." *Innovation: The journal of Social Sciences and Researches* 1.6 (2023): 32-35.
18. Qizi, Jo'Rayeva Go'Zal Davlat, Shaymanov Sherzod Kamol O'G'Li, and Mamarajabov Samandarbek Faxriddinovich. "GO 'ZAL KATALPANING MARFOLOGIYASI VA MANZARAVIYLIK XUSUSIYATLARI." *Innovation: The journal of Social Sciences and Researches* 1.6 (2023): 46-49.
19. Qizi, Hamidova Dilrabo Chori, et al. "JASMIN (JASMINUM) TURKUMI." *Innovation: The journal of Social Sciences and Researches* 1.6 (2023): 53-56.
20. Jumageldiyevna, Gulshan Nurmatova, Abdurayimova Mujgona Abdujalilovna, and Mamarajabov Samandarbek Faxriddinovich. "PISTA (PISTACIA) TURKUMI." *Innovation: The journal of Social Sciences and Researches* 1.6 (2023): 36-38.

VOLUME-1, ISSUE-5

21. Pirimqulova, Muxabbat Xayitovna, et al. "O‘ZBEKISTONNING O‘RTA MAVSUMDAGI GULKARAM NAVLARI." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 3.2 (2023): 661-665.
22. Xayitovna, Pirimqulova Muxabbat, and Mamarajabov Samandarbek Faxriddinovich. "Exploiting Seasonal Varieties of Tomato Cultivation for Enhanced Yield and Nutritional Impact in Uzbekistan." *Indonesian Journal of Innovation Studies* 24 (2023): 10-21070.
23. Xudaynazarovna, Ashurova Muxlisa, Muxammadiyeva Gulchiroy Raxmonovna, and Mamarajabov Samandarbek Faxriddinovich. "O‘G‘ITLARNING TURLARI-XUSUSIYATLARI, TUPROQ STRUKTURASIGA VA O‘SIMLIK HOSILIGA TA‘SIRI." *O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI* 2.18 (2023): 204-208.
24. Faxriddinovich, Mamarajabov Samandarbek, et al. "FERTILE VARIETIES OF GOOSEBERRIES."
25. Faxriddinovich, Mamarajabov Samandarbek. "ZIRK (BERBERIS) TURKUMI." *O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI* 2.16 (2023): 690-694.
26. Abdullayev, Muxtorjon, and Samandarbek Mamarajabov. "VARIETIES AND ACHIEVEMENTS OF WHEAT PLANT SELECTION IN UZBEKISTAN." *Евразийский журнал академических исследований* 2.11 (2022): 100-104.
27. Xayitovna, Pirimqulova Muxabbat, and Mamarajabov Samandarbek Faxriddinovich. "KARTOSHKANING TARQALISH HUDUDLARI." *O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI* 2.18 (2023): 209-212.
28. Xayitovna, Pirimqulova Muxabbat, and Mamarajabov Samandarbek Faxriddinovich. "Cauliflower growing technology." *Texas Journal of Multidisciplinary Studies* 6 (2022): 8-10.
29. Xayitovna, Pirimqulova Muxabbat, and Mamarajabov Samandarbek Faxriddinovich. "Types of corn grown in Uzbekistan and their peculiarities." *Texas Journal of Agriculture and Biological Sciences* 3 (2022): 59-63.
30. Abdukarimovna, Abdukarimova Mamlakat, Qulmurotova Aziza Muhiddinovna, va Mamarajabov Samandarbek Faxriddinovich. "POMIDOR ZARARONCHILARI" *Finlyandiya xalqaro ta'lim, ijtimoiy fanlar va amp; Gumanitar fanlar* 11.2 (2023): 427-430.

VOLUME-1, ISSUE-5

31. Xolmamatovna, Xafizova Matluba, et al. "TYPES OF SOILS COMMON IN UZBEKISTAN AND THEIR CHARACTERISTICS." *American Journal Of Agriculture And Horticulture Innovations* 2.09 (2022): 13-19.

32. Nodirovna, Nabijonova Halima, et al. "Village Farm Plants Pests." *Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences* 1.5 (2022): 217-220.

33. Xayitovna, Pirimqulova Muxabbat, et al. "Planting Cauliflower Seeds in the Open Field." *INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION* 1.5 (2022): 240-246.

34. Faxriddinovich, Mamarajabov Samandarbek, et al. "FERTILE VARIETIES OF GOOSEBERRIES."

35. Bobirovich, Abdullayev Muxtorjon, and Mamarajabov Samandarbek Faxriddinovich. "VARIETIES AND ACHIEVEMENTS OF MOSH PLANT SELECTION IN UZBEKISTAN."

36. Xayitovna, Pirimqulova Muxabbat, and Mamarajabov Samandarbek Faxriddinovich. "BIOLOGICAL AND MORPHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF POTATOES."


Вертикал шпинделли пахта териш машиналари ишлашининг умумий технологик схемаси ва Ўзбекистонда улар ривожланишининг қисқача тарихи

Нематов Эркинжон Хамроевич ТДТУ (PHD) Досент
Мадалиев Хусан Бахтиярович СБУМИПТК докторант

***Аннотатсия:** Пахта териш машиналари - очилган пахтани териш учун мўлжалланган қишлоқ хўжалиги машиналари. Шпиндель йиғим – терим аппаратининг асосий элементи бўлиб ҳисобланади ва у ишчи барабан сиртининг ясовчиси бўйича ўрнатилади. Йиғим – терим аппаратининг илгариланма ҳаракати натижасида ғўзанинг шохлари йўналтирувчилар оралигидан шпинделли барабанлар орасидаги соҳага ўтади (ишчи камерага).*

***Калит сўзлар:** конструкция, пахта териш, машина, барабан, аппарат, шпиндел, юритма.*

Ҳозирги вақтда мамлакатимизда ишлаб чиқарилаётган пахта териш машиналари асосида совет инженери Л.М. Розенблум томонидан ихтиро қилинган вертикал шпинделли пахта териш машиналарининг йиғим – терим аппарати ётади. Пахта териш машинасининг асосий қисми бўлиб (1.1 – расм) йиғим – терим аппарати ҳисобланади. Бу аппарат ишлов бериладиган ғўзанинг шохларида очилган чаноклардаги пахта бўлакчаларини чиқариб олади ва уларни қабул қилиш камерасига йўналтиради. Кучли вентиляторлар томонидан ҳосил қилинадиган ҳаво оқими пахтани қувур ўтказгичлари орқали ағдарилувчи типдаги бункерга юборади. Бункер эса, йиғилган пахта хом ашёсини навлар бўйича жойлаштириш мақсадида, икки ёки ундан кўп камералардан иборат бўлиши мумкин. [1]



1 – камера; 2, 6 – кардан вали; 3, 7 – редуктор; 4 - вал; 5 - таянч; 8 - поводок большой; 9 – поводок малый; 10 – қабул қилиш юритмаси; 11 - шпиндел барабан ; 12 - шпиндель; 13 – сьемник; 14 - кустоподъемник левый; 15 – кустоподъемник правый

1,1- расм. Пахта териш аппарати

Шпиндель йиғим – терим аппаратининг асосий элементи бўлиб ҳисобланади ва у ишчи барабан сиртининг ясовчиси бўйича ўрнатилади. Йиғим – терим аппаратининг илгариланма ҳаракати натижасида ғўзанинг шохлари йўналтирувчилар оралиғидан шпинделли барабанлар орасидаги соҳага ўтади (ишчи камерага). Бунда барабанлар шундай айланадики, уларнинг ишчи камерага қараган томонлари машина ҳаракатига қарама – қарши бўлган томонга қараб кўчади, бунинг натижасида ғўзалар текисланади ва улар барабанлараро бўшлиқ бўйлаб тортилади.

Шпиндель барабаннинг айланишига қарама – қарши бўлган йўналишда айланаётиб, очилган пахта чаноғига яқинлашади, ўзининг тишлари ёрдами билан пахта бўлақларини илиб олади ва сўнгра ўзига ўраб олиб, уларни чаноқдан чиқариб олади. Шпиндель чиқариб олинган пахта бўлақларини ўзининг сиртида тутиб туриб, ишчи камерадан чиқади ва унинг айланиши тўхтайдиган, пахтани қулай тарзда чиқариб олишни таъминлаш учун, шпинделга тескари йўналишда айланма ҳаракат берилади. Сўнгра, чиқариб олиш мосламаси ёрдамида пахта шпинделдан олинади ва қабул қилиш камерасига ташланади, у ердан эса ҳаво тармоғи бўйича машина бункерига узатилади.

Шундай қилиб, пахта хом ашёсини механизациялашган тарзда йиғиб олишнинг технологик жараёнида қуйидаги бўғинларни ажратиш мумкин бўлади:


- ғўза шохларини ишчи камерасига келтириш;
- пахта бўлақларини шпиндель танасига илинтириш ва ўраб олиш ҳамда очилган чаноқдан чиқариб олиш;
- шпинделлардан пахтани чиқариб олиш;
- чиқариб олинган пахтани ҳаво тармоғи орқали бункерга узатиш.

Ўзбекистонда пахта териш машиналари пайдо бўлиши даврида кўплаб ҳар хил типлардаги ва конструкциялардаги ишчи органлар ва аппаратлар яратилган ва синаб кўрилган. Ўша пайтларда синалган занжирли, пневматик, горизонтал шпинделли машиналар орасида конструкциясининг қулайлиги ва

соддалиги билан йиғим – терим аппаратининг вертикал шпинделли типи ажралиб турарди. [1]

Вертикал шпинделли пахта териш машинасининг биринчи экспериментал варианты 1939 йилда СоюзНИХИнинг ЦСМАХсида синалган. Ўзиюрар ХЕШ машинасининг 32та шпиндель билан таъминланган бир жуфт барабани бўлиб, қуйидаги параметрларга эга бўлган [6]: диаметри –16 мм, тишлар қатори миқдори – 3, тишларнинг узунлик бўйича ўрнатилиш қадами – 2 мм, айланиш частотаси – 2800 айл / мин. Шпинделларнинг ўраб олиши ва йиғишнинг тўла юқори бўлмаган таққосланишига қарамай (60 \$ атрофида), бу машинанинг келажаги бор деб эътироф этилди.

Кейинги даврда пахта териш машинасининг бир неча модификациялари яратилди, хусусан, икки қаторли осма ХВШН – 2 машинаси пахтани чиқариб олиш мосламасининг яхшиланган конструкцияси билан яратилди. Пахта териш машинасининг шпиндель юритмаси – бу механизм бўлиб, у пахта териш машинасининг шпинделларини ҳаракатга келтиради. Урчуқлар (веретена) шпинделнинг айланиши ва ғўзадан пахтани теришга жавоб беради. Шпиндель юритмаси тизими пахта териш машинасининг муҳим компоненти ҳисобланади, чунки у пахтани теришнинг самарали ва яхши натижадорлигини таъминлайди. [2]



1 – ўраб олувчи элемент; 2 – стержен; 3 – подшипник; 4 – қопқоқ; 5 – ролик

1.2 – расм. Шпиндел

Шпиндель юритмаси тизими одатда турлича компонентлардан иборат бўлади, жумладан, юритмали шестернялар, юритмали валлар ва бошқа механик деталлар. Бу компонентлар бирга ишлаб туриб, машина двигателидан шпинделларга қувватни (ҳаракатни) узатиб, уларнинг айланишига ва пахтани теришга (йиғишга) имкон беради.

Шпиндель юритмаси тизими, пахта териш машинасининг конкрет бир конструкциясидан боғлиқ равишда, ўзининг таркибига турли хил типдаги механизмларни киритиши мумкин, мисол учун, гипоциклик планетар механизмларни ёки бошқа тишли механизмларни. Бу механизмлар шпинделларни ҳаракатга келтириш учун зарур бўлган айлантириш моменти ва тезликни таъминлаш учун мўлжалланган.

Шпиндель юритмаси тизимига нисбатан тўғри ташкил этилган техник хизмат ва мунтазам техник кўрик, унинг энг мақбул (қулай) равишдаги ишлашини таъминлаши учун ҳал қилувчи аҳамиятга эгадир. Бунга мойлаш, емирилишга текшириш ва ҳар қандай шикастланган ва емирилган компонентларни янгисига алмаштириш киради. Шпиндель юритмаси тизимини бир маромда тутиб туриш билан, пахта териш машинасининг операторлари пахта териш жараёни вақтида машинанинг унумдорлигини ва самарадорлигини энг юқори даражага чиқаришлари мумкин. [3]

Пахта териш шпиндел технологиясининг янги тенденциялари куйидагиларни ўз ичига олиши мумкин:

1. Автоматлаштириш: Сўнгги йилларда қишлоқ хўжалигида, жумладан, пахта йиғим-теримида автоматлаштириш кучаймоқда. Янги шпинделлар замонавий автоматик бошқарув тизимлари билан жиҳозланиши мумкин, бу эса пахта териш самарадорлиги ва аниқлигини оширади.

2. Такмиллашган эргономика: Шпиндел ишлаб чиқарувчилари янада эргономик ва фойдаланиш учун қулайроқ моделларни яратишга интилмоқда. Бунга яхшиланган тутқичлар, созланиш элементлар ва пахта терувчилар ишини осонлаштирадиган бошқа инновацион ечимлар киради.

3. Янги материаллардан фойдаланиш: Пахта териш шпинделларини ишлаб чиқишда, чидамлилиқ ва ескиришни камайтириш учун янги материаллар ишлатилиши мумкин. Бу махсус қотишмалар, композит материаллар ва бошқа инновацион ечимлардан фойдаланишни ўз ичига олиши мумкин.

4. Такмиллашган ишлаб чиқариш: Янги шпинделлар ишлаб чиқариш, пахта териш вақтини қисқартиради ва умумий жараён самарадорлигини оширади. Бунга шпиндел конструкциясини оптималлаштириш, ҳаракатланиш тизимини такмиллаштириш ва бошқа техник яхшиланишлар орқали эришиш мумкин.

Яни юритмасини такмиллатириш аппарат ва шпиндел массасини камайтириш орқали машинани иш унумдорлиги ёқилги сарфига таъсирларини ўрганиш мақсад қилинган.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Матчанов Р.Д. Хлопкоуборочные машины. 1929-2010 гг. /Тошкент: Фан ва технологиялар, 2011.
2. Патент Ўзб. Р №ИАП 05971. Способ уборки хлопка вертикально-шпиндельной хлопкоуборочной машиной. Матчанов Р.Д., Шаймардонов Б.П., Ибрагимов Д.А., Каримов Н.Н., Воинов С.Н.
3. Сельскохозяйственная энциклопедия. Т. 5 (Т - Я)/ Ред. коллегия: П. П. Лобанов (глав ред) [и др.]. Издание третье, переработанное - М., Государственное издательство сельскохозяйственной литературы, М. 1956, с. 663
4. Модернизированная вертикально-шпиндельная хлопкоуборочная машина СХМ-48М. Устройство, сборка, применение, уход, М., Центральное бюро технической информации., 1954; Пневматическая хлопкоуборочная машина СХП-2,1. Устройство, применение, уход, М., Центральное бюро технической информации, 1954; Яшин Д., Хлопкоуборочная машина СХМ-48, Ташкент, 1952.

Annotatsiya: ushbu maqola orqali siz dunyoqarash tushinchasi haqida, uning shakllanishi va vaqtlar o'tib o'zgarishi haqida ma'lumotlarga ega bo'lasiz. Inson bor ekan dunyoqarash o'zgarib boradi.

Kalit so'z: dunyoqarash, dunyoni sezish, falsafiy dunyoqarash, falsafa.

Har bir insonning o'ziga xos fikrlashi ya'ni uning dunyoqarashi bo'ladi. Hozirgi kunda insonlarning dunyoqarashi orqali uning qanday ekanligi, qiziqishlarini ham bilish mumkin. Falsafa fanida dunyoqarash va uning mohiyati, turlari haqida bilib olishimiz mumkin. Dunyoqarash o'zi nima? Dunyoqarash subyektiv voqe'likni baholovchi qarorlar to'plamidir. Atrof-olamni anglashga harakat qilish natijasi o'laroq kelib chiqadi. Dunyoqarash — dunyoga va insonning undagi o'rniga, kishilarning o'z atrofidagi voqelikka va o'z-o'ziga munosabatiga bo'lgan umumiy qarashlar tizimi, shuningdek, bu qarashlarga asoslangan odamlarning e'tiqodlari, ideallari, bilish va faoliyat tamoyillari. Dunyoqarash kishining yoshi, hayotiy tajribasi, bilimi, mafkurasi bilan bog'liq. Ayni shu davrdan boshlab insonning ancha rivojlangan dunyoqarashi shakllangani haqida va umuman to'plangan bilimlar, amaliy ko'nikmalar, vujudga kelgan qadriyatlar, o'zi va o'zini qurshagan dunyo haqidagi tasavvurlar majmui sifatidagi odamlar dunyoqarashi to'g'risida ishonch bilan so'z yuritish mumkin. Hayot tajribasi va empirik bilimlar asosida shakllanadigan dunyoqarash oddiy yoki empirik dunyoqarash deb ataladi va insonning dunyo haqidagi tasavvurlarining qismlarga ajralmagan, tizimsiz majmui sifatida amal qiladi. U har qanday dunyoqarashning negizi hisoblanadi va odamlarga kundalik hayoti va faoliyatida yo'l ko'rsatib, ularning xulq-atvori va aksariyat qilmishlarini belgilab, muhim regulyativ funksiyani bajaradi. Dunyoqarash – bu, avvalo, inson o'zligini va dunyoni zaruriy ravishda anglashi, tushunishi, bilishi va baholashi natijasida yuzaga kelgan xulosalari, bilimlari asosida shakllangan tasavvur va qarashlar, nazariy xulosa va umumlashmalar tizimidir. Aql paydo bo'lishi bilan inson o'zini fikrlovchi mavjudot sifatida anglay boshlaydi, unda o'z «meni» va o'zgaralar haqida tasavvuri shakllanadi va rivojlanadi. SHu tariqa u o'zini va o'zini qurshagan borliqni anglaydi, o'zi va boshqa odamlarni, o'zi va tashqi muhitni farqlaydi, ilgari o'ziga ma'lum bo'lmagan dunyoning yangi va yangi jihatlarini idrok etadi. Bunday qarashlar insonning o'zi va o'zini qurshagan borliq haqidagi

tasavvurlari majmui sifatida shakllanadigan dunyoqarash negizini tashkil etadi. Bunda inson o'ziga ma'qul va noma'qul narsalarni farqlaydi, baholar beradi, ustuvorliklar tizimini yaratadi va muayyan maqsadlarga erishishda tegishli tarzda ish ko'radi. Dunyoqarashning o'ziga xosligi va betakrorligi unda intellektual asos bilan bir qatorda emotsional va ruhiy asoslarning uzviy bog'liqligi va ularning jamuljam holda har bir inson uchun mutlaqo muayyan, individual xususiyatlar sifatida amal qilishidir. Intellektual, emotsional va ruhiy asoslar iroda bilan uyg'unlikda e'tiqodlar – odamlar faol qabul qiladigan, ularning ong darajasi va hayotdagi mo'ljallariga mos keladigan qarashlarni yuzaga keltiradi. [1] Dunyoqarashning tuzilishi dunyoni sezish, dunyoni idrok etish va dunyoni tushunish kabi eng muhim elementlardan iborat. Dunyoni sezish – bu o'zini qurshagan dunyoni sezgilar yordamida hissiy idrok etishdir. Bunda tuyg'ular, kayfiyat dunyoni go'yoki ranglarga bo'yaydi, uning obrazini sub'ektiv, sof individual sezgilar orqali aks ettiradi. Masalan, bemor odamga haddan tashqari yorug' bo'lib tuyulishi mumkin bo'lgan nur, sog'lom odam uchun normal bo'ladi; daltonik ranglar gammasini, ko'rish qobiliyati normal bo'lgan odamga qaraganda butunlay boshqacha idrok etadi. Bundan dunyoni sezishning har xil, xususan optimistik, pessimistik, fojeaviy tiplari kelib chiqadi. Dunyoni idrok etish – bu atrof borliqni ideal obrazlarda tasavvur qilishdir. Dunyoni idrok etish to'g'ri yoki noto'g'ri bo'lishi, ya'ni borliqqa mos kelmasligi mumkin. Bu holda borliq noto'g'ri tasavvur qilinadi yoki illyuziyalar, suv parilari, alvastilar, kentavrlar haqidagi tasavvurlarga o'xshash fantaziyalar paydo bo'ladi. Dunyoni tushunish – insonning va uni qurshagan dunyoning mohiyatini aniqlash, shuningdek tabiatda yuz beruvchi voqealar va jarayonlarning o'zaro aloqalarini tushunishga qaratilgan aqliy-bilish faoliyatidir. [3]

Davrlar o'tishi bilan dunyoqarash ham shakllanib bordi. Dunyoqarashning uch ko'rinishi mavjud bular: mifologik dunyoqarash, diniy dunyoqarash va falsafiy dunyoqarashdir.

Mifologiya ya'ni afsonaviy dunyoqarash – kishilik jamiyati taraqqiyotining ilk bosqichida paydo bo'lgan bo'lib, u tabiat kuchlari va hodisalarini hissiy qiyofalar va alohida vujudlar shaklida jonlantirib tasvirlovchi, kishilarning hayotiga asoslanuvchi qarashlar va tasavvurlardir. «Mif» tushunchasi yunoncha "mythos" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, afsona, rivoyat degan ma'noni anglatadi. Mif – bu turli xalqlarning dunyoning kelib chiqishi, tabiat hodisalari, fantastik mavjudotlar, xudolar va qahramonlarning ishlari haqidagi tasavvurini ifodalovchi muayyan tarzda tizimga solingan dunyoqarashdir. Mifologik dunyoqarash dunyoni yaxlit tushunish bo'lib, unda shubhaga o'rin yo'qdir. Mifologiya qadimgi odamlar dunyoqarashi bilangina uzviy bog'liq emas. Oddiy ongda yashaydigan din, falsafa,

siyosat, san'atda aniq-ravshan yoki pardalangan ko'rinishda mavjud bo'lgan miqlar bugungi kunda ham (kim uchundir ko'proq, kim uchundir kamroq darajada) odamlar hayoti va ijodida faol rol o'ynab, har qanday inson dunyoqarashining tarkibiy qismi bo'lib qolmoqda. Jamiyatning axborotlashuvi jadal sur'atlarda o'sib borayotgan sharoitda mif televideniya, radio, vaqtli matbuot, hozirgi saylov texnologiyalari vositasida ba'zan ijtimoiy ong bilan manipulyasiya qilish, oldindan belgilangan jamoatchilik fikrini shakllantirish vositasi sifatida qo'llanilmoqda. Qadimgi Yunonlar afsonalarini oladigan bo'lsak, ularning bari insonlarning dunyoqarashi orqali shakllangan deya olamiz. Yunonlar xudolarini o'zlari xohlaganday tasavvur qilishgan. Ulardan qo'rqishgan, ularni jahldor deya ta'riflashgan. Aynan mana shunday fikrlash ularning dunyoqarashlariga ta'sir etgan.[4]

Diniy dunyoqarash. Dunyoqarashning tarixan ikkinchi shakli dindir. Din so'zi arabchadan tarjimada e'tiqod, ishonch, ishonmoq degan ma'nolarni anglatadi. Mif kabi, din zamirida ham e'tiqod, tuyg'ular va emotsiyalar yotadi. Diniy dunyoqarash – bu kishilarning tabiiy va ijtimoiy hodisalarni ilohiy kuchlar asosida aks ettiruvchi qarash va tasavvurlari hamda ana shu ilohiy kuchlarga bo'lgan ishonch va e'tiqodlaridir. Diniy dunyoqarashning asosiy elementlari jumlasiga diniy tuyg'u, diniy aqidalar va unga ishonish, sig'inish, diniy e'tiqod kabilar kiradi.

Miloddan avvalgi VII-VI asrlarga kelib asosan mif va din ta'sirida odamlar dunyoqarashi nafaqat kengaydi, balki ancha murakkablashdi. U abstrakt nazariy fikrlash qobiliyati va (to'plangan bilimlar ko'rinishida) real asoslarga ega bo'lishi natijasida o'z rivojlanishining butunlay yangi darajasiga ko'tarildi. Bunga, hech shubhasiz, mehnat taqsimotiga olib kelgan rivojlangan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, ma'lum miqdorda ortiqcha mavjudlik vositalari, bo'sh vaqtning paydo bo'lishi ham imkoniyat yaratdi. Bularning barchasi muayyan shaxslar doirasiga intellektual faoliyat bilan professional darajada shug'ullanish imkonini berdi. Falsafiy dunyoqarashning shakllanishi va rivojlanishi falsafa fanining paydo bo'lishi va rivojlanishi bilan uzviy bog'liq holda yuz beradi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov o'zining "Buyuk kelajak sari" asarida shunday degan edi "Falsafiy dunyoqarash ilmiydir, chunki u narsa va hodisalar o'rtasidagi bog'lanish, aloqadorlik va munosabatlarni kundalik ong darajasidagina emas, balki nazariy ong darajasida ham ifodalaydi. Har qanday falsafiy dunyoqarash shakli ob'ektiv olamdagi narsa va hodisalarning konkret munosabatlarini aks ettiradi." [2] Vaqtlar o'tishi bilan fanning rivojlanishi, insonlarda fan nuqtai nazaridan qarashga ya'ni fan dunyoqarashini shakllanishiga olib keldi. Fan bilimning mustaqil sohasi, dunyoqarashning alohida shakli sifatida faqat XVII-XVIII asrlarda to'la shakllandi. Muayyan darajada shartlilik bilan shuni aytish mumkinki, bu I. Nyuton klassik mexanikaning asosiy qonunlarini ta'riflab, shu tariqa

tabiatshunoslikning bo'limi – asoslari asrlar mobaynida shakllangan, bosh tamoyillari esa bundan yuz yilcha muqaddam, avvalo Galileo Galiley tomonidan ta'riflangan klassik mexanikaning shakllanishiga yakun yasaganidan keyin yuz berdi.

Xulosa qilib aytganda, har bir sohaning rivojlanishi va o'zgarishiga bir necha yillar kerak bo'ladi. Aynan dunyoqarash ham birdaniga shakllanib qolgan emas. Ming yillar davomida u o'zgarib bordi. Dunyoqarashning salbiy yoki ijobiyliги esa, albatta, har bir insonning o'ziga bog'liqdir. Ba'zan bu qarashlarga jamiyat va atrofdagi voqea-hodisalar ham ta'sir etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
2. I.Karimov "Buyuk kelajak sar" - "O'zbekiston" 1998, 442-бет.
- 3.«Falsafa» o'quv qo'llanmasi. — T.: «Sharq», 1999.
- 4.«Osnovi filosofii». — T.: «O'zbekiston», 1998.

Yangi davrda Yaponiya va O'zbekiston munosabatlari

Mirzayev Yo'ldosh

Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining tarix yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng o'zining sharqiy yo'nalishdagi tashqi siyosatida Yaponiya bilan davlatlararo munosabatlar va manfaatli hamkorlik aloqalarini mustahkamlashga alohida e'tibor berdi. O'zbekiston va Yaponiya o'rtasidagi diplomatik munosabatlar 1992-yilning yanvar oyida o'rnatilgan hamda 1992-yilda Toshkent shahrida Yaponiyaning elchixonasi, 1996-yilda esa Tokioda O'zbekiston Respublikasining elchixonasi o'z faoliyatini boshladi hamda ikki davlat o'rtasida teng huquqli diplomatik aloqalar o'rnatildi.

Kalit so'zlar: Yaponiya, O'zbekiston I. Karimov , J. Koidzimu, qo'shma bayonot

O'tgan yillar mobaynida ikki mamlakat rahbarlari o'rtasida ko'plab oliy darajadagi uchrashuvlar amalga oshirildi hamda rasmiy hujjatlar imzolandi. Xususan, 1994-yil, 2002-yil va 2011-yilda Yaponiyada hamda 2006-yil avgustda O'zbekistonda bo'lib o'tgan mamlakat rahbarlari o'rtasidagi oliy darajadagi uchrashuvlar ikki mamlakat o'rtasidagi manfaatli va do'stona aloqalarga yangicha ma'no-mazmun bag'ishladi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimovning 2002-yilda Yaponiyaga davlat tashrifi doirasida Yaponiya Bosh vaziri J.Koidzumi bilan uchrashuvida strategik sheriklik, o'zaro do'stlik va hamkorlik to'g'risidagi Qo'shma bayonot imzolandi. Ushbu bayonot ikki mamlakatning hozirgi zamon xalqaro munosabatlardagi ko'plab muammolar bo'yicha qarashlari va munosabatlari o'xshashligi, shuningdek, ularning ko'p qirrali hamkorlikni yanada kengaytirishga intilishlarini tasdiqlovchi rasmiy hujjat bo'lib xizmat qildi. Tashrif chog'ida 15 ga yaqin shartnomalar imzolandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil fevralda Yaponiyaga qilgan navbatdagi davlat tashrifi davomida ham ikki tomonlama hamkorlikni rivojlantirish, turli sohalarga investitsiyalar jalb qilish va diplomatik aloqalarni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish uchun xizmat qiluvchi qator shartnomalar tuzishga erishildi. Bundan tashqari, 2015-yilning oktabr oyida Yaponiya bosh vaziri Sindzo Abening O'zbekistonga tashrifi doirasida umumiy qiymati 9 mlrd. dollarni tashkil qiladigan loyihalarni amalga oshirishga kelishib olindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2017-yildan O'zbekistonning boshqa davlatlar bilan diplomatik munosabatlarida yangi davr boshlandi. Jumladan, 2019-yilning dekabr oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Yaponiyaga davlat tashrifi bo'lib o'tdi. Davlatimiz rahbari ikki tomonlama ko'p qirrali aloqalarni sifat jihatidan

yangi darajaga ko'tarish borasidagi urinishlari qat'iy ekanini ta'kidladi va konstruktiv siyosiy muloqotni davom ettirish kerakligini aytib o'tdi. Ushbu tashrif davomida O'zbekiston Respublikasi va Yaponiya o'rtasidagi strategik sheriklik hamda do'stlik munosabatlarini yanada mustahkamlash masalalari ko'rib chiqildi.

Yuqorida sanab o'tilgan davlat tashriflari va shartnomalarda asosiy hamkorlik yo'nalishi sifatida savdo-iqtisodiyotga e'tibor berildi. Xususan, Yaponiya tomonidan asosiy e'tibor mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. O'tgan yillar mobaynida yapon texnologiyalari va investitsiyalarini O'zbekistonning mashinasozlik, energetika, neft-gaz, kimyo, va to'qimachilik sanoati kabi tez rivojlanayotgan sohalariga jalb etish uchun qator shartnoma va bitimlar tuzishga erishildi. 2016-yildan boshlab ikki davlat o'rtasidagi savdo-sotiq dinamikasida ham yangi davr boshlandi.

Bugungi kunda Respublikamizda Yaponiya sarmoyasi ishtirokida tashkil etilgan o'ndan ortiq korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda, shuningdek o'n beshta yapon kompaniyalarining vakolatxonalari akkreditatsiyadan o'tgan. Iqtisodiy hamkorlik bo'yicha O'zbekiston-Yaponiya qo'mitasi o'zaro aloqalarni rivojlantirishga salmoqli hissa qo'shib kelmoqda. Isuzu, Sumitomo, Mitsubishi va boshqa yetakchi yapon kompaniyalarining yurtimiz hududida faoliyat olib borayotgani buning yaqqol misolidir. 2019-yilning o'zida Yaponiya sarmoyadorlari bilan qishloq xo'jaligi va sanoatni modernizatsiya qilish, energetika, sog'liqni saqlash va boshqa sohalardagi qator loyihalarni amalga oshirish uchun yo'naltirilgan umumiy qiymati 6 milliard dollardan ko'p bo'lgan shartnomalar tuzilgani ham buning yaqqol isbotidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yilning dekabr oyida Yaponiyaga davlat tashrifi davomida ham energetika, mashinasozlik, neft-kimyo sanoati, qishloq xo'jaligi va boshqa ko'plab ustuvor yo'nalishlarda, Yaponiya yetakchi kompaniya va banklarining to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalari va ilg'or texnologiyalarini jalb qilishga oid bir qator shartnomalar ma'qullandi. Shu davrdan boshlab O'zbekiston Yaponiyaga mayiz, quritilgan o'rik va shu kabi turli xil quruq meva mahsulotlarini yetkazib berishni yo'lga qo'ydi. Yaponiya hukumati tomonidan mamlakatga kirib kelayotgan mahsulotlar xavfsizligi va sifati borasida yuqori standartlarni o'rnatilganligini hisobga olsak, import mahsulotlari ro'yxatida Vatanimizda yetishtirilgan mahsulotlarning ham borligi muhim yutuqdir.

Hozirgi kunda yurtimizdagi iqtisodiyot tarmoqlariga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etilmoqda va xorijiy sarmoyador uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Investorlarning faoliyatini himoya qilish va rag'batlantirish uchun zarur normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Mamlakatimizda biznesni rivojlantirishga to'siq bo'layotgan ko'plab muammolarga barham berildi, tashqi savdo o'sdi va bojxona tariflari nazorati sezilarli darajada kamaytirildi. Natijada,

ikki mamlakat o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarda sezilarli darajada o'sish kuzatildi.

Jumladan, 2020-yilda O'zbekiston Respublikasi va Yaponiyaning tashqi savdo aylanmasi miqdori \$207,2 mln. ni tashkil qildi va eksport –\$ 7,6 mlanni, import esa – \$ 199,6 mln ni tashkil qildi Bunda eksport quyidagi sohalarda yuqori ulushga ega bo'ldi: Xizmatlar – \$ 2,5 mln; Kimyoviy mahsulotlar – \$ 1,7 mln; Mashina va asbob-uskunalar – \$1,7 mln. Import esa: Qora metallar – \$189,2 mln; Oziq-ovqat mahsulotlari – \$ 6,1 mln; Mashina va asbob-uskunalar – \$ 964,1 ming" ushbu sohalarda yuqori bo'ldi.

Ikki davlat o'rtasidagi do'stona hamda ishonchli munosabatlar ilmiy-texnikaviy, investitsion, madaniy-gumanitar sohalarda manfaatli hamkorlikni rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratadi. Chunki o'zaro hamkorlikni yanada kengaytirish O'zbekiston va Yaponiyaning milliy manfaatlariga xos bo'lgan siyosatdir. Madaniy-gumanitar sohadagi hamkorlik alohida e'tiborga molikdir. Madaniyatlararo muloqotni muvaffaqiyatli rivojlantirishda 1999-yilda ta'sis etilgan "O'zbekiston-Yaponiya" do'stlik jamiyatining salmoqli o'rni bor. 2001-yilda Toshkent shahrida ochilgan Yapon bog'i o'zbekistonliklarning turli tantanali tadbirlar o'tkazadigan sevimli maskaniga aylangan. Yaponiyada ham xalqimizning qadimiy tarixi va madaniyatiga bo'lgan qiziqish katta albatta, jumladan, 2004-yil Yaponiyaning Soka universitetida o'zbek adabiyotining mumtoz vakili Alisher Navoiyning haykali qad rostladi. 2021-yilning iyun oyida O'zbekistonning Yaponiyadagi elchixonasida "O'zbekiston-Nagoya" do'stlik assotsiatsiyasi bilan hamkorlikda "Nagoya Toshkent bilan uchrashadi" nomli tadbir tashkil qilindi. Ushbu anjuman doirasida davlatimizning turistik salohiyatiga oid seminar, xalqimizning tarixiy-madaniy merosi taqdimoti va O'zbekiston xalq amaliy san'ati ko'rgazmasi bo'lib o'tdi. Suhbat chog'ida kelgusi yilda ikki davlatda diplomatik munosabatlar o'rnatilganining 30 yilligi keng nishonlanishi qayd etilib, qator madaniy tadbirlarni tashkil etish masalasi muhokama qilindi. Jumladan, O'zbekistonda "Yaponiya kinosi kunlari"ni o'tkazish, yapon badiiy va hujjatli filmlarini O'zbekiston telekanallarida namoyish etish, Toshkent xalqaro kinofestivaliga yapon kinosi taniqli arboblarni va Xalqaro an'anaviy amaliy san'at festivaliga yapon ustalarini yuborish, shuningdek, ko'rgazmalar, choy marosimi va boshqa anjumanlarni o'tkazish bo'yicha fikr almashildi.

Bugungi kunda o'zbekistonlik yoshlar tomonidan Yaponiyada ta'lim olishga qiziqish kata va yapon tilini mamlakatimiz yigit-qizlari qiziqib o'rganmoqda. Mamlakatimizda hozirgi kunda oltita oliy o'quv yurti ta'lim dasturlariga yapon tilini o'rganish kiritilgan. Shuningdek, Yaponiya xalqaro hamkorlik tashkiloti (JICA) ning yordami bilan bir qator oliy o'quv yurtlarida yapon tilini o'rganish markazlari ochilgan. Bundan tashqari Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida ikki mamlakatning ta'lim va madaniyat sohasidagi aloqalarini

yanada chuqurlashtirishga xizmat qiladigan, Markaziy Osiyo mintaqasida yagona bo'lgan Yaponiya tadqiqotlari tahlil markazining ochilish marosimi o'tkazildi.

O'zbekiston-Yaponiya madaniy-gumanitar hamkorligi to'g'risida gapirganda, mamlakatimizda 1993-yildan beri samarali ishlab kelayotgan Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi faoliyatiga to'xtalishimiz zarur. Ushbu tashkilotning mintaqaviy vakolatxonasi O'zbekiston Respublikasiga imtiyozli kreditlar ajratish hamda grantlar taqdim etish, shuningdek, o'zbekistonlik mutaxassislar uchun Yaponiyada muayyan o'quv amaliyotlari tashkillashtirish kabi yo'nalishda yordam berib kelmoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Yaponiya bizning strategik hamkorimizdir va Yaponiya bilan mamlakatimizda iqtisodiyot tarmoqlari hamda infratuzilmalarni modernizatsiya qilish bo'yicha ko'p ishlar qilinib kelinmoqda. Jahondagi ko'plab rivojlanayotgan davlatlar Yaponiya iqtisodiyoti tajribasini, uning bosib o'tgan yo'llarini tahlil qilgan holda o'z mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishida qo'llay olgan. Jumladan, Janubiy Koreya, Malayziya, Singapur, Indoneziya, Filippin, Tayvan kabi mamlakatlarda olib borilgan iqtisodiy islohotlarda aynan Yaponiya tajribasining ko'plab jihatlaridan unumli foydalanilgan. Shuning uchun ham Yaponiya iqtisodiyotini hamda rivojlanish modelini tahlil qilgan holda uning ba'zi bir jihatlarini O'zbekistonda ham qo'llash manfaatli bo'ladi. Shu tufayli ikki mamlakat o'rtasida o'zaro manfaatli aloqalarni yo'lga qo'yilishi juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydanilgan adabiyotlar

1. Anarina N. G. Sakralnaya telesnost yaponskoy xudojestvennoy veshi // Vesh v yaponskoy kulture. M.: Vost. lit., 2003, s. 185-201.

2. Grigoreva T. P. Ponimanie iskusstva v Yaponii // Grigoreva T. P. Dvijenie krasoti: Razmishleniya o yaponskoy kulture. M.: Vost. lit., 2005, s. 180-192.

3. Xiroaki Sato. Samurai (Wayback Machine saytida 2012-11-20 sanasida arxivlangan) // Xiroaki Sato. Samurai: Istoriya i legendi. SPb. 1999, s.10-26

4. A. Мещеряков. Istoriya sake (Wayback Machine saytida 2018-09-11 sanasida arxivlangan) // A. N. Мещеряков Книга yaponskix simvolov. M., 2003, s.419-431

5. Мамараджабов, Б. (2023). САУДИЯ АРАБИСТОНИДАГИ ЎЗБЕК МУҲОЖИРЛАРИ ТАРИХИ: МУВАФФАҚИЯТЛИ АССИМИЛЯЦИЯ ВА ЙЎҚОТИЛГАН МИЛЛИЙ ИДЕНТИКЛИК. Ижтимоий-гуманитар

фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(S/6).

6.Mamarajabov, B. N. M. O. G. (2023). MARKAZIY OSIYODA ARABLAR BILAN BOG'LIQ IJTIMOY QATLAMLAR. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(5), 1048-1052.

7.Mamarajabov, B. N. M. O. G. (2022). ARABISTON YARIM OROLIDA DAVLATCHILIKNING SHAKLLANISHI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(10), 118-121.

8.Nazirov, B., & Bozorov, K. (2023). ACHIEVEMENTS OF UZBEK FOOTBALL IN THE YEARS OF INDEPENDENCE: ANALYSIS AND RESULTS. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(3), 443-450.

9.Nazirov, B., & Qalandarova, M. (2023). XUNNLAR TARIXI: TAHLIL VA NATIJALAR. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 3(2), 197-202.

10.Nazirov, B. (2018). Хитойнинг ўзаро алоқалар тарихига бир назар: илк ўрта асрлар мисолида. “Ноширлик ёғдуси”.

11.Nazirov, B. (2018). MIRZO ULUG'BEK RASADXONASINING O'RTA ASRLAR ILM-FAN RIVOJIDA TUTGAN O'RNI. Noshirlik yog'dusi, TerDU.

Тола ажратиш жараёнида хомашё валиги зичлиги ва тезлигининг
аҳамияти ўрганиш ва таққослаш

Najmitdinov Shuxrat Abdukarimovich,

Yuldashev Khasanboy Sulayman o'g'li

Sharipov Xayrullo No'monjanovich

E-mail: Corresponding author: yoldashev93992020@mail.ru

Аннотация. Ушбу мазкур мақолада пахта чигитидан толани ажратадиган жин машинасида вужудга келадиган хомашё валигини зичлигини илмий асосида лаборатория шароитида ўрганилган ва натижаларга эришилган. Жин машинасидаги пахта зичлиги ортиши ва арра дискига ёки валига тушаётган юкланишни анқилаш, валга тушаётган юкни енгилатиш, арра диски айланиш жараёнида ундаги айланиш тебранишини ўрганилган. Тажриба найжасида муаллаифлар ўз хуласалари ва тажриба натижаларини киритиб ўрганишган.

Калитсўзлар: Жин машинаси, хомашё валиги, ишчи камера, зичлик, тезлик.

Кириш. А.Д. Гробер жинлаш жараёни характеристикаларини ўрганиш ва математик ифодалаш бўйича назарий ва экспериментал тадқиқотлар ўтказган. У жинлаш жараёнининг статистик қонуниятларини аниқлади. Хусусан, муаллиф кўрсатдики, жин ишчи камерасига пахтани узатиш нотекислигини камайтирилиши ва жинлаш жараёнини стабилланиши пахта толасининг сифат кўрсаткичларини яхшилайдди.

Аррали жинлаш асосий тадқиқотларининг ривожланиш таҳлили уни оптималлаш йўллари белгилашга имкон беради. Жин унумдорлигини ошириш ва тола сифатини яхшилаш учун жинлаш жараёнини стабиллаш зарур.

Материал ва методлар. Пахта заводларнинг амалиётида жинлашда хомашё валигининг зичлигини субъектив ўрнатилади ва ростланади [1]. Бунинг учун жиннинг таъминланишини пахта навига қараб иш тажрибасидан аниқланиб белгиланган тезликка ўрнатилади, сўнг эса хомашё валигининг зичлиги ва чигитнинг тукдорлигини ростлашга ўтилади [2]. Б.И.Бекмирзаев томонидан хомашё валиги зичлигининг тола ва чигит сифатига таъсири ҳақида экспериментал маълумотлари олинган (1.1-жадвалга қаранг). Улардан кўринадикки, толанинг энг кам шикастланганлиги I-нав пахтада хомашё валиги

зичлиги 325 кг/м³ бўлганида, III-нав пахтада эса – 290 кг/м³ бўлганида кузатилади (1.2-расмга қаранг).

1.1-жадвал.


I- ва III-навли ўрта толали пахтани ишлашда хомашё валиги зичлигини тола сифатига таъсири

I-навли пахта		III-навли пахта	
Хомашё алигининг зичлиги, кг/м ³	Толадаги кинлаш нуқсонлари миқдори, %	Хомашё алигининг зичлиги, кг/м ³	Толадаги кинлаш нуқсонлари миқдори, %
171,8	2,12	183,6	3,1
196,4	1,67	248,1	2,05
314,9	1,24	255,7	1,97
326,3	1,15	280,5	1,96
328,2	1,33	288,2	1,94
344,5	1,81	293,9	1,86
349,2	2,48	301,5	2,02
364,5	2,73	314,9	2,35
		337,8	2,8
		351,1	3,04

С. Фазилдинов, Р.М. Каттаходжаевларнинг илмий мақоласида [8] пахтани аррали жинлашдан кейин толадаги нуқсонлар ва ифлос аралашмалар массавий улуши йирик хас-чўп, улюк, толали пўстлоқ ва синган чигит миқдорини ошиши сабаблари ва булар ичида хомашё валиги зичлигининг роли текширилган [3].

Тадқиқот натижалари таҳлили. “Рахтасаноат ilmiy markazi” АЖ ва ТТЕСИда ўтказилган тадқиқотлар кўрсатдики, толада жинлаш нуқсонларини

ҳосил бўлиш сабабларидан асосийси – хомашё валигининг ортиқча ва ўзгарувчан



1.2-расм. Тола нуқсонлари миқдорини (толали пўстлоқ, комбинацияланган тугунчаклар, тугунчаклар ва тугунчалар) I- ва III-навли пахтани жинлашда хомашё валиги зичлигига боғлиқлиги (мос равишда а ва б)

зичлигидир [4]. Хомашё валиги зичлиги ошганда тўқув жараёнида ёмон таъсир қилувчи тугунчаклар, комбинацияланган тугунчаклар ва тугунчалар ҳосил бўлади. Жинлаш нуқсонларини камайтириш учун жинлаш жараёнини хомашё валигининг нисбатан бўш ва турғун зичлигида амалга ошириш керак [5]. Муаллифлар хомашё валиги ёрдамида зичлиги пасайтирилган бўлганда жинда олинган тола сифатини тадқиқ қилишган [6]. Тажрибаларда 108Ф I-нав кўлда терилган, намлиги 7,2% ва жинлашдан олдинги ифлосланганлиги 0,4% пахтадан фойдаланилган [7]. Оптимал диаметри 150 мм ва тезлиги 230 ай/мин бўлган хомашё валигининг эластик элементли аррали жин иш натижаларини 3ХДД-М жин иши кўрсаткичлари билан солиштирилган [8].

1.2-жадвал.

Йиғирилган ипдаги нуқсонларга хомашё валиги зичлигининг таъсири

Жиннинг унумдорлиги, г/арра-соат	Хомашё валигининг массаси, кг	Хомашё валигининг зичлиги, г/м ³	Нуқсонлар ва ифлос ралашмалар массавий улуши, %			
			Жам	Синг н чигит а толали ўстлок	Синг н чигит	Толал ўстлок
Хомашё валиги зичлиги одатдаги						
8,8	55,3	354	2,60	1,20	0,29	0,91
10,1	64,1	410	2,73	1,30	0,36	0,94
12,3	67,8	430	2,81	1,37	0,38	0,99
Хомашё валиги зичлиги пасайтирилган						
8,6	39,2	300	2,05	0,81	0,15	0,66
13,8	43,5	309	2,15	0,90	0,17	0,73
15,6	44,4	312	2,13	0,93	0,20	0,73
17,3	46,8	314	2,18	0,99	0,25	0,74

Унумдорлик ошиши билан хомашё валиги зичлиги ҳам ошади, бу эса жинлаш нуқсонларини ортишига олиб келади. Икки жиннинг иши

солиштирилганда кўринадики, хомашё валиги зичлиги пасайтирилиши натижасида нуқсонлар ва ифлос аралашмалар массавий улуши асосан жинлаш нуқсонлари ҳисобига 0,5-0,6 % га камаяди

Хулосалар. Тажриба натижалари бўйича муаллифларнинг хулосаларига кўра жинлаш нуқсонларини камайтириш учун хомашё валиги зичлигини камайтириш керак. Шу тадқиқот доирасидаги “Paxtasanoat ilmiy markazi” АЖнинг йиғириш лабораториясининг олинган толадан йиғирилган ип сифати бўйича маълумотлари ҳам шу фикрни тасдиқлайди (1.2-жадвалга қаранг).

Юқоридагилардан келиб чиқиб хулоса қилиш мумкинки, аррали жинлаш жараёнида хомашё валигининг зичлик ва тезлик параметрлари таъминлаш интенсивлиги ва тозаланган чигитнинг чиқариб юбориш жараёни орасидаги мувозанатга боғлиқ. Шунга кўра жинлашни таъминлаш ва тола, чигитни чиқариш масалалари бўйича бажарилган асосий тадқиқотлар билан танишиб чиқдик.

References

- [1] X. T. Axmedxodjaev, D. A. Adashboyev, X. S. Yo'ldashev and S. S. O'xtaev, "INVESTIGATION OF FOREIGN LINT CLEANING SYSTEM," in *“Paxta to‘qimachilik klasterlarida xomashyoni chuqur qayta ishlash asosida maxsulot ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning iqtisodiy , innovatsion, texnologik muammolari va xalqaro tajriba” xalqaro ilmiy konferensiya*, Namangan, Uzbekistan, 2022.
- [2] I. D. Madumarov, O. X. Xoshimov, A. T. Qurbanov and X. S. Yo'ldashev, "STUDY OF CLEANING PROCESSING OF SEED COTTON IN FOREIGN," in *“Paxta to‘qimachilik klasterlarida xomashyoni chuqur qayta ishlash asosida maxsulot ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning iqtisodiy , innovatsion, texnologik muammolari va xalqaro tajriba” xalqaro ilmiy konferensiya*, Namangan, 2022.
- [3] S. R. Madumarov, Y. Y. Jurayev and K. S. Yuldashev, "GENERAL INFORMATION ON THE IMPORTANCE OF FEEDSTOCK DENSITY AND SPEED IN THE FIBER SEPARATION PROCESS," *ACADEMIC RESEARCH IN MODERN SCIENCE, International scientific-online*

ference, vol. 8, no. 15, pp. 55-59, 20 October 2022.

- [4] Sarimsakov O. SH., Paxtani pnevmotransportga uzatish va xavo ordamida tashish jarayonini takomillashtirish, Namangan: "Namangan" ashiryoti, 2018, p. 40.
- [5] Yo'ldashev X. S, "INVESTIGATING OF MOISTURE CONTENT IN STORING, DRYING AND CLEANING THE SEED COTTON," in *"Paxta 'qimachilik klasterlarida xomashyoni chuqur qayta ishlash asosida axsulot ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning iqtisodiy , novatsion, texnologik muammolari va xalqaro tajriba" xalqaro ilmiy konferensiya*, Namangan, Uzbekistan, 2022.
- [6] X. S. Yo'ldashev, O. X. Xoshimov and B. B. O'rinboyev, "STUDY OF LEANING PROCESSING OF SEED COTTON," *Ijodkor O'qituvchi*, vol. 5, no. 12, pp. 209-213, 13 10 2021.
- [7] K. S. Yuldashev, K. A. Abduraximov, M. D. Inamova and K. A. Irgulshanov, "DEVELOPMENT OF THE DESIGN OF A FEEDER OF VIBRATION ACTION FOR SUPPLYING COTTON SEEDS TO LINTER MACHINES," in *SCIENCE, EDUCATION, INNOVATION IN THE MODERN WORLD*, USA, 2021.
- [8] K. S. Yuldashev, M. D. Inamova, M. A. Qobilov and A. A. Abduxaliqov, "Effect Of Moisture Content In The Process Of Storing, Drying Andleaning The Seed Cotton," in *SCIENCE, EDUCATION, INNOVATION IN THE MODERN WORLD*, USA, 2021.
- [9] А. У. Саримсаков, "ПАХТАНИ ДАСТЛАБКИ ИШЛАШ ТЕХНОЛОГИЯСИДА ЖИН МАШИНАСИННИНГ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШНИ НАЗАРИЙ ВА АМАЛИЙ ЎЛЛАРИ БИЛАН АСОСЛАШ," Диссертация на соискание ученой степени кандидата технических наук., Namangan, 2017.

- [1] Sarimsakov O. SH., Paxtani uzatish va pnevmotransport yordamida shish jarayonlarini nazariy asoslari, Namangan: "Usmon Nosir Media" ashiryoti, 2021, pp. 35-50.
- [1] I. Tursunov, X. S. Yuldashev and O. G. ' . Madiyarov, "ANALYSIS OF HANGES IN AIR PARAMETERS IN A COTTON SEPARATOR," in *Paxta to'qimachilik klasterlarida xomashyoni chuqur qayta ishlash asosida axsulot ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning iqtisodiy , novatsion, texnologik muammolari va xalqaro tajriba* xalqaro ilmiy konferensiya, Namangan, Uzbekistan, 2022.
- [1] O. S. Sarimsakov, D. M. Kurbanov, X. S. Yo'ldashev and Y. Y. Jurayev, INVESTIGATION OF LOSING FIBER DURING CLEANING COTTON," *Zamonaviy dunyoda amaliy fanlar: muammolar va yechimlar*, Uzbekistan, 2022.
- [1] X. N. Sharipov, X. S. Yo'ldashev, Y. Y. Jurayev and Urinboyev B B., RESEARCH OF LOSING FIBER CLEANER TECHNOLOGIES AND FOREIGN LINT CLEANER TECHNOLOGIES," in *Zamonaviy dunyoda amaliy fanlar: muammolar va yechimlar*, Uzbekistan, 2022.
- [1] A. Sulaymonov, M. Inamove and K. Yuldashev, "THEORETICAL STUDIES OF THE NATURE OF THE INTERACTION OF COTTON SEEDS IN THE GAP BETWEEN THE AGITATOR BLADE AND THE RAW CYLINDER," *EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH*, vol. 2, no. 11, pp. 666-672, 15 May 2022.

ARRALI JINLASH VA TO'G'RI OQIMLI JINLASH JARAYONLARI
TAHLILI

Jo'rayev Yo'ldashxon Yunusxon o'g'li

tayanch doktorant,

t.f.d. prof. Sarimsakov Olimjon Sharipjanovich

PhD. Sharipov Xayrullo No'monjanovich

formytextile@gmail.com , +998976236393

Namangan To'qimachilik Sanoati Instituti

Anotatsiya Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar ishlab chiqarish faoliyatining asosiy ko'rsatkichlaridan biri foyda hisoblanadi. Bunday sharoitda mahsulot sifatining iqtisodiy ahamiyati albatta ortib boradi. Agar korxonalar ishlab chiqarayotgan mahsulot sifatini yaxshilasa, unda bunday mahsulotlar tezda o'z xaridorlarini topishidan tashqari, ular nisbatan yuqori narxda ham sotiladi va bu korxonalar oladigan foyda miqdorini oshiradi. Xalqning moddiy va madaniy turmush darajasini yuksaltirish va ta'minlash xalq xo'jaligi oldida turgan asosiy vazifadir.

Kalit so'zlar: arrali jin, jinlash jarayoni, kalasnik panjara, ishqalanish kuchi,

Аннотация В условиях рыночной экономики одним из основных показателей производственной деятельности предприятия является прибыль. В таких условиях экономическая значимость качества продукции обязательно возрастет. Если предприятия улучшат качество выпускаемой продукции, то такая продукция быстрее найдет своего потребителя, также будет продаваться по сравнительно высокой цене, а это увеличит размер прибыли, которую получает предприятие. Повышение и обеспечение материального и культурного уровня жизни народа главная задача народного хозяйства.

Ключевые слова: пилный джина, процесс джинирования, решетка каласника, сила трения

Annotation In a market economy, one of the main indicators of an enterprise's production activity is profit. In such conditions, the economic importance of product quality will certainly increase. If enterprises improve the quality of their products, then such products will find their consumers faster and will also be sold at a relatively high price, and this will increase the amount of profit that the enterprise receives. Raising

and ensuring the material and cultural standard of living of the people is the main task of the national economy.

Keywords: sawing gin, ginning process, kalasnik grid, friction force

Kirish. Arrali jinlash paxta tozalash sanoati sohasidagi ilmiy ishlarni o'rganish shuni ko'rsatdiki, ko'p o'n yilliklar davomidagi asosiy eksperimental va nazariy tadqiqotlar ishchi kameraning optimal profilini, arra tishlarining o'lchamlarini va ularning ushlab qobiliyatini hamda xomashyo valigi zichligining arrali jinlash jarayonining sifat ko'rsatkichlariga ta'sirini aniqlashga qaratilgan.

Arrali jinlash jarayoni konstruksiyasi, xomashyo valigi zichligi, arra tishlari o'lchamlari va ularning tolani ushlab qobiliyati bo'yicha ko'plab olimlar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan va hozirda ham ko'plab paxta sanoati olimlar arrali jinlash jarayonini takomillashtirish jarayoni bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishmoqda. Bularga misol:

B.I.Roganov o'z ishida paxta tozalash zavodlari uchun xomashyo valigining zichligi odatdagidan birmuncha past bo'lgan hajmni oshiruvchi kamerani taklif qildi.

N.G.Guludov o'z asarida ishchi kameraning hajmini oshirishni xomashyo valigi zichligining pasayishiga olib kelishi bilan asoslaydi. Uning arra tishlarini ushlab qobiliyati nazariyasiga qo'shgan hissasi 80-yillarga qadar deyarli yagona hisoblangan, ammo dinamik jarayonlarni hisobga olmagan.

G.I.Boldinskiy o'z asarlarida ishchi kameraning hajmi haqida qarama-qarshi fikrlarni keltirib, arra paxta tozalash pallasining ishchi kamerasi oqimini kamaytirishning maqsadga muvofiqligini nazariy asoslab beradi. U A.I.Zeltin bilan birgalikda arralarining parametrlarini loyihalash nazariyasini ishlab chiqadi.

X.Saidov o'z tadqiqotida g'o'zaning fizik-mexanik xossalari, tanlanishi va naviga qarab, o'zgaruvchan radiusli ishchi kameradan foydalanish paxtani jinlash samaradorligini oshirishini ta'kidlaydi. Biroq, bu usulni keng qo'llashga kamera radiusining paxta xossalari aniq analitik bog'liqligi yo'qligi to'sqinlik qilmoqda. Ushbu bog'liqlik uning ishida berilgan tenglama bilan ifodalanadi, ammo qo'yilgan savolga aniq javob berilmaydi:

$$R = \frac{m * Vb}{\frac{P}{f} - P_{ar} - mq(\sin a + \frac{\cos a}{f})}$$

Bu erda:

R - ishchi kameraning radiusi;

m - xomashyo valigining massasi;

Vb - xomashyo valigining periferik tezligi;

P - xomashyo valigini harakatlantiruvchi kuchi;

f- paxtaning ishchi kamera yuzasiga ishqalanish koeffitsienti;

P_{ar} - xomashyo valigining zichligi (o'ziga xos bosim);

q-erkin kiyinishning tezlashishi;

a - og'irlik vektorini m va R radiusi orasidagi burchak.

V.A.Levkovich va boshqalar xom valik zichligining ta'sirini o'rganib, paxta tozalash jarayonida xomashyo valigi zichligi past bo'lganda, tolaning sifat ko'rsatkichlari yuqori bo'ladi, degan xulosaga kelishdi. Bu xulosa biz uchun hal qiluvchi, ammo bu yerda oddiy ekstrapolyatsiya qilish noo'rin ko'rinadi. G.I.Boldinskiy yozadiki, xomashyo valigi zichligini pasaytirish tolalarni ushlashni yaxshilaydi, shuningdek, ishchi kamera yuzasi va paxtaning kalasnik panjara va arra orasidagi samarali ishqalanish kuchlarini kamaytiradi, bu esa tolaning sifat xususiyatlarini yaxshilaydi.

M.A.Xajinova paxta tozalash jarayonida nuqson hosil bo'lishini tahlil qilib, xomashyo valigi zichligi ortishi bilan paxtani jinlashda ishchi kamerada katta kuchlarning paydo bo'lishi bilan bog'liq tolaning shikastlanishi jadvalini beradi.

Tolaning shikastlanishi

	Tola	Kuch m/s^2	Mexanik kastlangan a, %
1	Original	4,8	2,0
2	xomashyo valigidan o'tgandan ing:		
A)	Qattiq	4,2	25,2
B)	o'rtacha	4,4	18,5
V)	Zaif	4,7	9,0

N.G.Gulidov ham tolaning sifat ko'rsatkichlari yomonlashayotganda, paxta xomashyosi unumdorligining oshishi xomashyo valigi massasining oshishiga

bog'liqligini ham aniqladi. Ushbu tadqiqot mahalliy va xorijiy kompaniyalarning arrali jin mashinalarining turli xil konstruksiyalaridan foydalanganda kuzatiladi.

B.A.Levkovich, G.N.Gulidov, X.Q.Saidov va boshqalarning ishlarida arra tishining ushlar qobiliyati kinematik nuqtai nazardan o'rganilgan. Tadqiqotlar natijasida arraning ushlar qobiliyati formulasi quyidagi shaklda olingan:

$$S = \frac{t \sin \alpha}{2} \left[\frac{\cos \alpha}{\cos(\alpha - \gamma)} - \frac{\cos \varphi}{\cos \varphi - \gamma} \right]$$

Bu yerda:

S - arraning ushlar qobiliyati

t - arra tishining qadami;

γ - arra tishining oldingi chetining radiusga nisbatan oldingi burchagi.

$$\varphi = \arctg \frac{mv^2 - \mu CRv^2}{CR^2 + \mu mv^2}$$

Bu yerda:

φ - tolalar arra tishlariga ushlangan burchak;

γ - tishning old burchagi;

m - yaqinlashuvchi tolali elementning massasi;

R - arra radiusi

C - proporsionallik koeffitsienti;

v - arra tishining periferik tezligi;

μ - tolaning ichki ishqalanish koeffitsienti.

Tishning ushlar qobiliyati $ABC\Delta$ uchburchagining maydoniga mutanosib bo'lib, u quyidagicha aniqlanadi:

$$S_{\Delta ABC1} = S_{\Delta ABC} - S_{\Delta CBC1}$$

Bu yerda $S_{\Delta ABC}$ - ABC uchburchagining yuzasi. U quyidagicha aniqlanadi:

$$S_{\Delta ABC1} = \frac{t^2 \sin \gamma}{2} * \frac{\sin(\gamma - \varphi)}{\cos(\gamma - \gamma_1) * \cos(\gamma - \gamma_1)}$$

Bu yerda:


γ_1 - nisbiy tezlik vektorlari va aylanaga tegish orasidagi burchak.

$\gamma \leq \varphi$ da arra tishining ushlab qobiliyati nolga teng bo'ladi, chunki tola o'z-o'zidan tiklanadi. Rak burchagi γ ortishi bilan $ABC\Delta$ uchburchagining maydoni oshadi va tishlarning ushlab qobiliyati ortadi, ammo γ tirma burchagining haddan tashqari oshishi β tishining keskinligining pasayishiga va kamayishiga olib kelishi mumkin. uning kuchi.


Arra tishining old tomonining panjara sohasidagi panjara bilan uchrashish burchagi juda muhimdir. Bu zonada [29] xomashyo valigining oldinga siljishida qiyinchilik paydo bo'ladi, chunki arrali tsilindr tomonidan ushlangan tolalar panjaraga yaqinlashganda, ular unga uriladi va arra tishlari bilan aloqani yo'qotib, tezlikni yo'qotadi va yo'nalishni o'zgartiradi.

Xomashyo valigining harakat tezligi va yo'nalishini o'zgartirish sababi ikkita ta'sir qiluvchi kuchdir:

1-rasm. I.Boldinskiy bo'yicha chigit tarog'i sohasida arra tishlarining xomashyo valigi bilan uchrashish diagrammasi.



2-rasm. Kalasnik panjaraning ishchi yuza sohasi



mv_n -Xomashyo valigi radiusi bo'ylab yo'naltirilgan zarba kuchi impulsining normal komponenti; uning ta'siri ostida xomashyo valigi siqiladi;

mv_i -ta'sir kuchi impulsining tangensial komponenti bo'lib, u xomashyo valigining panjara va frontal nur bo'ylab harakatlanishiga yordam beradi.

Diagrammadan ko'rinib turibdiki:

$$mv_i = mv_n \cos \alpha_3$$

Bu yerda: α_3 - arra tishlarining ishchi kamerasidan chiqish burchagi.

Tishning old chetini panjara bilan birlashtirish burchagi ham chigitli paxtani jinlash sharoitlari uchun muhimdir:

$$|\theta| = \left| \lambda - \left(\frac{\pi}{2} - \alpha_3 \right) \right| \leq |\arctg \phi|$$

Bu yerda: α - arra tishining oldingi burchagi;

β - Tangensning arraga moyillik burchagi 4^0 - 9^0 oraliq'ida olinadi.

$\beta > 9^0$ bo'lganda, chigit shikastlanishi kuchayadi va xomashyo valigi harakati uchun energiya sarfi ortadi, bu G.I.Miroshnichenko – nazariyasida, M.T.Ergashev va R.Z.Burnashevlarining ishlarida ko'rsatilgan.

Xulosa. Ko'p seksiyali arrali jin ishchi kamerasini ishlab chiqishda loyihaga quyidagi texnologik talablar qo'yiladi:

- chigitdan tolani to'liq olib tashlash;

- paxta xom ashyosi bilan o'zaro ta'sir qiluvchi ishchi organlar tola nuqsonlari paydo bo'lishiga yo'l qo'yimaslik;
- chigit va tolaning shikastlanishiga olib kelmasligi kerak.

Dastlabki tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, jinning xomashyo valigining yarim aylana burchagi, sterjen balandligi va arra tsilindrining aylanish tezligi jinning asosiy o'lchagichlari hisoblanadi, shu bilan birga olinadigan qurilmaning egri chiziqli urug' yo'riqnomalari, uruvchi barabanlari, cho'tkalari joylarining ta'sirini, mavjud jinlash jarayonining maqulroq(samariliroq) usuli bo'lmish to'g'ri oqimli jinlash tadqiqot usullarini o'rganish kerak.

Arrali jinlash jarayoniga tegishli ilmiy tadqiqotlarni o'rganish jarayonidan shunday xulosa chiqarishimiz mumkinki, arrali jinning jinlash jarayonida jinlash soxasini kopaytirish uchun eng maqbul yo'l to'g'ri oqimli jinlash jarayonidan foydalanishdir. To'g'ri oqimli jinlash jarayonida arraning tolani ushlab qobilyati ortadi, bu esa o'z navbatida jinlash samaradorligini ortiradi. Bunda esa to'g'ri oqimli jinlash jarayonidagi kalasnik yoyilmasining uzunligini, malum sohalalaridagi radiuslarini, burchaklarini, kalasnikning arra tishi bilan uchrashadigan burchaklarini o'rganilgan tadqiqotlar natijasidan keltirilgan burchaklarning miqdorlaridan unumli foydalanish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Саримсаков А. У. (2017). Пахтани дастлабки ишлаш технологиясида жин машинасининг самарадорлигини оширишни назарий ва амалий йўллари билан асослаш. Наманган: Диссертация на соискание ученой степени кандидата технических наук.
2. Умаров, А. А. (2018 й). Тола сифатини яхшилаш мақсадида аррали жинни таъминлаш жараёнини такомиллаштириш. Техника фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертация. 77-95. Наманган: Наманган.
3. Мадумаров Санжарбек Рустамжонович, Жураев Юлдашхон Юнускхан Угли, & Саримсаков Олимжон Шарифжанович. (2023). О ЗНАЧЕНИИ СЫРЦОВОГО ВАЛИКА В ПРОЦЕССЕ ПИЛЬНОГО ДЖИНИРОВАНИЯ. *Ustozlar Uchun*, 21(1), 43–47. Retrieved from <https://www.pedagoglar.uz/index.php/01/article/view/6250>
4. Санжарбек Рустамжонович Мадумаров, Юлдашхон Юнускхан Угли Жураев, Олимжон Шарифжанович Саримсаков. (2023). Анализ конструкции рабочих органов пильного джина. *Journal of Universal Science Research*, (2023)

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/2181-4570>

5. Мадумаров Санжарбек Рустамжонович, Жураев Юлдашхон Юнускхан Угли, & Саримсаков Олимжон Шарифжанович. (2023). ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ КОНТАКТНЫХ ПРОЦЕССОВ. *Ustozlar Uchun*, 21(1), 48–52. Retrieved from <https://www.pedagoglar.uz/index.php/01/article/view/6251>

6. Madumarov Sanjarbek Rustamjonovich, Jurayev Yuldashhon Yunuskhan Ugli, Yuldashev Khasanboy Sulayman corner. (2022). GENERAL INFORMATION ON THE IMPORTANCE OF FEEDSTOCK DENSITY AND SPEED IN THE FIBER SEPARATION PROCESS. *ACADEMIC RESEARCH IN MODERN SCIENCE*, 1(16), 57–61. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7229260>

7. Jurayev Y, Tukhtaev Sh, Yuldashev KH, "Investigation of fiber loss in impurities from the ss-15a separator" *Eurasian journal of academic research*, volume 2 Issue 11, October 2022 ISSN 2181-2020 425-431 Pages <https://doi.org/10.5281/zenodo.7193675>

8. Sarimsakov O, Kurbanov D, Jurayev Y, Yuldashev KH "Investigation of losing fiber during cleaning cotton" *Modern in the world practical subjects: problems and solutions* » named scientific, remote, online conference, pp. 101-109 <https://doi.org/10.5281/zenodo.6559924>

9. Sharipov X, Yuldashev KH, Jurayev Y, Urinboyev B "Research of losing fiber cleaner technologies and foreign lint cleaner technologies" *Modern in the world practical sciences: problems and solutions* __ scientific, remote, online conference, pp. 91-100 <https://doi.org/10.5281/zenodo.6559910>

10. Sarimsakov O, Sharapova X, Yuldashev KH, Madumarov S " Investigation of separation of usable fibers added to contamination infants during cleaning cotton" in *Uzbekistan interdisciplinary innovation and scientific studies magazine* No. 8, May 20, 2022, pages 448-455,

11. Мирошниченко, Г. И. (1980). Оборудование и технология производства первичной обработки хлопка. Uzbekistan, Toshkent: «Укитувчи».

12. Мирошниченко, Г. (1972). Основы проектирования машин первичной обработки хлопка. Uzbekistan: «Машиностроение».

13. Зикриёева, Э. (1999). Первичная переработка хлопка-сырца. 100-115. Toshkent: Мехнат.

14. Gordon, S., & Hsieh, Y.-L. (2007). *Cotton: Science and technology*. England: Woodhead Publishing Limited.

Termiz davlat pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lim fakulteti

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi

2-bosqich 201-guruh talabasi

Choriyeva Durdona

ANNOTATSIYA.Maqolamning mazmuni shundan iboratki,unda kreativlik haqida so'z boradi.Maktabgacha yoshdagi bolalarning kreativligini qay tarzda oshirish haqida va aynan maktabgacha yosh davrida bolalarda ijodiy faol davr ekanligi haqidadir.Maktabgacha yoshdagi bolalarning kreativligini oshirishda qanday mashg'ulotlar otkazish zarurligi, "kreativlik yo'l xaritasi" ga ko'ra qanday yo'nalishlar borligi va u bo'yicha qanday harakatlanish mumkinligi haqida hamda buyuk olimlarning kreativlik haqidagi fikrlari ilgari suriladi.

KALIT SO'ZLAR. Kreativlik, yaratish, yangilik, tafakkur, tasavvur, noan'anaviylik, qiziquvchanlik, erkinlik, progressive, kommunikativ, innovatsion yondashuv, ijodiy fikrlash, strategiya, inklyuziya, rekonstruksiya.

,Kreativlik so'zi lotincha so'zdan olingan bo'lib, "yaratish" degan ma'noni anglatadi. Kreativlik bu o'z qiymatiga ega original g'oyalar majmuidir.

Kreativlik shaxs tomonidan amalga oshiriladigan amaliy harakat bo'lib, u o'zida muayyan yangiliklarni aks ettirishi va ma'lum amaliy qiymatga ega bo'lishi lozim.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ tafakkurni rivojlantirishning muammosi ko'pgina pedagog va tadqiqotchilarni qiziqtirgan muammo sifatida uzoq yillardan buyon o'rganilib kelinmoqda. Emebaylning fikricha kreativlik muayyan soha bo'yicha o'zlashtirilgan puxta bilimlar bilan birga yuqori darajada noodatiy ko'nikmalarga ham ega bo'lish demakdir. G'arb kishilari uchun kreativlik, umuman olganda, yangilik sanaladi. Ular kreativlik negiizda noan'anaviylik, qiziquvchanlik, tasavvur, hazil - mutoyiba tuyg'usi va erkinlik mavjud bo'lishiga e'tiborni qaratadilar. Sharqliklar esa, aksincha, kreativlikni ezgulikning qayta tug'ilish jarayoni, deb

tushunadilar. Garchi g'arblik va sharqliklarning kreativlik borsidagi qarashlari turlicha bo'lsa-da, biroq, har ikki madaniyat vakillari ham mazkur sifat va unga egalikni yuqori baholaydilar.

Boshqa ko'pgina, sifatlar (fazilat) singari kreativlik ham birdaniga shakllanmaydi. Kreativlik muayyan bosqichlarda izchil shakllantirib va rivojlantirib boradi. Bolaning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi.

Maktabgacha yosh davri ijodiy faol shaxsni shakllanishi uchun eng samarali davri, chunki aynan manashu davrda psixik jarayonlar progressive o'zgarishlar kechadi va shaxsiy fazilatlar tezkor rivojlanadi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida ijodni rivojlantirish bolalarning turli faoliyatlari orqali, masalan, kommunikativ, amaliy o'yinlar yordamida amalga oshadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ yondashuv asosida estetik tafakkurni shakllantirishning ko'pgina usullari mavjud. Bunda mashg'ulot jarayonida turli o'yinlardan foydalaniladi. Mashg'ulotni samarali o'tkazish o'z navbatida tarbiyachi pedagogga bog'liqdir. Mashg'ulotlarda "kreativlik yo'l xaritasi"ga ko'ra quyidagi 4 ta yo'nalish bo'yicha harakatlanadi va ulardagi harakatlar pedagoglarning kreativligini ifodalovchi belgilar sanaladi:

1. Ijodiy fikrlash ko'nikmalarini namoyon etish;
2. Mashg'ulotlarni qiziqish bilan o'zlashtirishga rag'batlantiruvchi strategiyalardan foydalana olish;
3. Innovatsion yondashuv va pedagog masalalarining yechimini topishga kreativ yondashish;
4. Kutiladigan natija.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodkorlikni rivojlantirishda rasm chizish, loyihalash, modellashtirish, shuningdek, bolalar faoliyatining o'yin, dramatisatsiya kabi turlaridan muvaffaqiyatli foydalanish mumkin.

Shunday qilib, kreativ fikrlashni shakllantirishda quyidagi aniq vazifalarni hal qilish kerak:

1. Bolalarning estetik va hissiy tajribasini boyitish, ularning atrofdagi voqelik haqidagi g'oyalai hajmini oshirish, ufqlarini kengaytirish.
2. Bolalar nutqini, majoziy iboralarni rivojlantirish, so'z boyligini boyitish.

3. Bolalarda qayta loyihalash, tajriba elementlarini birlashtirish qobiliyatini rivojlantirish.

Bolalarda "inklyuziya" asosid rekonstruksiya qilish kabi operatsiyani shakllantirishga alohida e'tibor beriladi, bu turli xil tasvirlarni yaratish uchun bir xil elementdan foydalanishga imkon beradi.

4. Rivojlanayotgan muhitni ma'lum bir tarzda jihozlash. Tasavvurning kombinatsion mexnizmlarini shakllantirish uchun sharoit yaratish lozimdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ yondashuv asosida estetik tafakkurni shakllantirishning ko'pgina usullari mavjud. Bunda mashg'ulot jarayonida turli o'yinlardan foydalaniladi. Mashg'ulotni samarali o'tkazish o'z navbatida tarbiyachi pedagogga bog'liqdir. Mashg'ulotlarda "kreativlik yo'l xaritasi"ga ko'ra quyidagi 4 ta yo'nalish bo'yicha harakatlanadi va ulardagi harakatlar pedagoglarning kreativligini ifodalovchi belgilar sanaladi:

1. Ijodiy fikrlash ko'nikmalarini namoyon etish;
2. Mashg'ulotlarni qiziqish bilan o'zlashtirishga rag'batlantiruvchi strategiyalardan foydalana olish;
3. Innovatsion yondashuv va pedagog masalalarining yechimini topishga kreativ yondashish;
4. Kutiladigan natija.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodkorlikni rivojlantirishda rasm chizish, loyihalash, modellashtirish, shuningdek, bolalar faoliyatining o'yin, dramatisatsiya kabi turlaridan muvaffaqiyatli foydalanish mumkin.

Shunday qilib, kreativ fikrlashni shakllantirishda quyidagi aniq vazifalarni hal qilish kerak:

1. Bolalarning estetik va hissiy tajribasini boyitish, ularning atrofdagi voqelik haqidagi g'oyalai hajmini oshirish, ufqlarini kengaytirish.
2. Bolalar nutqini, majoziy iboralarni rivojlantirish, so'z boyligini boyitish.
3. Bolalarda qayta loyihalash, tajriba elementlarini birlashtirish qobiliyatini rivojlantirish.

Bolalarda "inklyuziya" asosid rekonstruksiya qilish kabi operatsiyani shakllantirishga alohida e'tibor beriladi, bu turli xil tasvirlarni yaratish uchun bir xil elementdan foydalanishga imkon beradi.

4. Rivojlanayotgan muhitni ma'lum bir tarzda jihozlash. Tasavvurning kombinatsion mexnizmlarini shakllantirish uchun sharoit yaratish lozimdir.

I.P.Nikitinaning [fikricha](#), san'at falsafasida to'g'ridan-to'g'ri "kreativlik" tushunchasi qo'llanilmaydi, biroq "inson muntazam ravishda o'zining shaxsiy "chegarasi"dan chetga chiqishga harakat qiladi: o'zining imkoniyatlari, hayoti va o'z dunyosidan". Transsenditlikda insonning o'z-o'zini o'zgartirishga [intilishi](#), hissiyotlari, ijodkorligi va kreativligi asos bo'lib xizmat qiladi. Psixologik nuqtai nazardan kreativlik ko'proq ijodga umumiy qobiliyatlilik bilan aloqadorlikda talqin qilinadi. Hozirda mazkur atama original yechimlarni izlab topish, nostandart harakatlarni amalga oshirishga tayyorlik ma'nosini ifoda etadi. Psixologiyada kreativlik deganda "yangi g'oya, yechim, metodlar, nazariyalar yoki qandaydir faoliyatning yangi mahsulini ishlab chiqish" tushuniladi. XX asrning 50-yillarida paydo bo'lgan insonparvarlik psixologiyasining maqsadi sifatida aynan o'z-o'zini aktuallashtirish jarayonida o'zining imkoniyatlarini namoyon etishga qodir ijodkor shaxsni o'rganish belgilangan edi. Insonparvarlik psixologiyasi uchun xos inson tabiatiga ishonch bildirish uning kreativligi tabiati va rolini tushunishga ham taalluqlidir. Mazkur yo'nalishning asosi tarafdorlari – Sharlotta Byuler, Abraxam Maslou, Rollo Mey, Karl Rodjerslardir. Karl Rodjers kreativlik tushunchasi mohiyatini izohlashda "muammoning avval aniqlanmagan yechimlarini izlash"ga alohida urg'u bergan. Simpson kerativlini "insonni fikrlashning qotib qolgan usullaridan voz kechishi" sifatida talqin qiladi. San'at psixologiyasi bilan bog'liqlikda Irji Kulkaning quyidagi nuqtai nazari qiziqish uyg'otadi: "kreativlik psixologik jihatdan sog'lom va maqbul tarzda o'z-o'zini namoyon etuvchi shaxs sifatidir". Xorij olimlaridan P.Torrens fikricha, kreativlik - muammoga yoki ilmiy farazlarni ilgari surish; farazni tekshirish va o'zgartirish; qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash; muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o'zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta'sirchanlikni ifodalaydi. Bizning tadqiqotimiz doirasida kreativlikka berilgan barcha ta'riflarni ko'rib chiqish imkoniyati yo'q, shuning uchun ular orasidan alohida ahamiyat kasb etadigan nuqtai nazarlarga to'xtalib o'tamiz. Ular orasidan ayniqsa, I.P.Ilin tomonidan bildirilgan

quyidagi fikrni alohida ta'kidlab o'tish lozim: "XX asrning 60-yillarida kreativlik tushunchasiga 60 ta ta'rif berilgan bo'lib, ularni shartli ravishda 6 ta turga ajratish mumkin":

- 1) mavjud elementlardan yangi geshtal'tlar hosil qilish mumkinligiga doir geshtal'tist (naprimer: M.Vertgeymer, Keller);
- 2) yaratilgan mahsulotning yangiligini baholashga doir innovatsion (S.Mednik);
- 3) insonning o'zini ifoda etishi sifatida shakllanadigan estetik (naprimer: A. Maslou, E Fromm);
- 4) munosabatlar psixologiyasi orqali kreativlik namoyon bo'ladigan psixoanalitik (Z. Fretsd, K. Yung);
- 5) muammoli – kreativlik vazifalarni hal etish jarayoni (masalan, Gilford kreativlikni divergent fikrlash sifatida e'tirof etgan;
- 6) noaniqlik yoki noyoblik".

M.A.Xolodnayav tadqiqotlarida kreativlik "erkin faoliyat sharoitida insonning produktiv fikrlashi va ko'plab miqdordagi qiziqarli g'oyalarni [ilgari surishga tayyorligi](#), ya'ni divergent fikrlashi" sifatida talqin qilingan.

V.N.Kozlenko o'zining tadqiqotlarida kreativlikni "har bir insonga tug'ilganidan in'om etilgan va refleksiya shaklida ("buning uchun nima qilish kerak?") namoyon bo'ladigan ehtiyoj" sifatida talqin qilgan.

V.G.Kamenskaya va I.E.Melnikova kreativlikni yangi materiallar va ideal mahsulotlar yaratishga qodir ijodiy iqtidorli insonning shaxsiy o'ziga xosligi sifatida izohlashgan.

D.B.Bogoyavlenskaya kreativlikni "aqliy faoliyatning intensivligiga sinonim sifatida intellektual faollik" deb fikr bildirgan.


O.V.Butorina mazkur atamaning ko'plab izohlarini tahlil qilish natijasida uning quyidagi o'ziga xosligini aniqlashtirgan: turli ta'riflarda kreativlikning farq qiluvchi jihati divergent fikrlash yoki yaxlitlikda intellektual ijodkorlik, mahsuliga ko'ra butunlay yangi yoki original qayta tizimlashtirilgan, ma'lum tizimlarni qayta tashkil etish, insonning yaratuvchilik faoliyatiga layoqatliligi yoki axborotlarni nostandart kodlash va h.k.

Kreativlikning mohiyatini aniqlash va bayon etishga doir ilmiy izlanishlar jarayonida ijodkorlik nazariyasi yoki ijodkor shaxsni rivojlantirish nafaqat xorijlik, balki respublikamiz olimlarida ham qiziqish uyg'otganligiga guvoh bo'ldik.

Jumladan, Z.Nishonova o'quvchilarda mustaqil-ijodiy fikrlashni shakllantirish nuqtai nazaridan kreativlikni divergent va konvergent tafakkur bilan bog'liqlikda talqin etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R.G'.Qodirov "Yosh davrlari va pedagogik psixologiya"(2005)
2. "Bolalar iqtidorini erta aniqlashning psixologik-pedagogik metodikalari majmuasi".(2010)
3. Berkinblit M.B., Petrovskiy A.V. "Fantaziya va haqiqat"
4. Venger L.A., Dyachenko O.M. "Maktabgacha yoshdagi bolalarda aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun o'yinlar va mashqlar"
5. Tunik E.E. "Ijodiy fikrlash diognostikasi" (2006)



**Fayzulla Xo'jayev- boyluk va zodagonlikni el-yurt g'amiga almashmagan
arbob**

Qurbonova Farzona Shamsitullo qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada mustaqillik sharofati tufayli ilk bor xolisona talqin etilayotgan dolzarb muammo Fayzulla Xo'jayevning hayoti, faoliyati, qarashlari haqidagi malumotlar va uning ijodiy merosi haqida, shuningdek, Fayzulla Xo'jayevning jadidchilik faoliyati haqida malumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: BXSР Xalq Nozirlari Soveti, RSFSR, Buxoro, jadidchilik, „bosmachilik“, F.I. Kolesov, qizil gvardiya, „ Buxoro inqilobi“.

1991-yilda O'zbekistonning o'zini suveren davlat deb e'lon qilinishi jonajon o'lka ozodligi va mustaqilligi uchun o'zbek xalqining necha-necha avlodi uzoq muddat olib borgan kurashi yakuni bo'ldi. O'zbek xalqining shavkatli o'g'loni, O'zbekiston va butun Markaziy Osiyoning yirik davlat va jamoat arbobi, yurtimiz ravnaqi yo'lida xizmat qilgan siymolardan biri Fayzulla Xo'jayev haq ish uchun kurash olib borgan ajoyib namoyondalar safidan munosib o'rin olgan. Fayzulla Xo'jayev nisbatan qisqa umr kechirdi – 40 yildan ko'proq yashadi, biroq o'zbek xalqi, balki Markaziy Osiyoning boshqa xalqlari tarixida ham chuqur iz qoldirdi. Uning hayot yo'li murakkab, ba'zan ziddiyatli kechdi. Buxoro amirligining eng badavlat kishilaridan birining o'g'li bo'lgan Fayzulla Xo'jayev Buxoro respublikasi hukumatini to, u tugatulgunga qadar boshqardi, so'ngra 12 yildan ko'proq O'zbekiston hukumatiga rahbarlik qildi. Uning yorqin hayoti 1938-yili stalincha qiynoqxonalarda fojiona barham topdi.

1896 yil 1 iyun, Buxoroda boylukda Buxoro amiri bilan tenglasha oladigan savdogar Ubaydulla Xo'ja o'g'li oilasida dunyoga keldi. Bu chaqaloq keyinchalik Buxoroda demokratik davlat qurishga uringan, O'zbekistonning rivoji uchun borini bergan, millatning ko'zi to'q, halol farzandi Fayzulla Xo'jayev edi. Fayzullaning otasi XIX asrda qorako'lchilik bo'yicha ko'plab yurtlarda nom chiqargan savdogarlardan bo'lgan. U Fayzullani o'z merosxo'ri sifatida tanlab, 12 yoshida Moskvaga olib boradi. Fayzulla Xo'jayev Moskvada 1907–1912 yillarda xususiy o'qituvchilar qo'lida ta'lim oladi. Va shu yerda savdo va zamonaviy ilmlarni o'rganib, Buxoroga qaytib keladi.

Rossiyada ta'lim olib, dunyoqarashi kengaygan Fayzulla ota yo'lini tanlamadi. Fayzulla Xo'jayevning jiyani, Buxoro davlat universiteti tarix fanlari doktori Sulaymon Inoyatovning hikoya qilishicha, Fayzulla Xo'jayev o'sha paytdagi

Buxoroning ahvolini, Vatanining taraqqiyotda orqada qolayotganini sezadi va Buxoroning ahvolini tuzumni o'zgartirish bilan yaxshilash mumkin degan fikrga keladi.¹ Va chet elda o'qib kelgan amakilari Usmonxo'ja, Atoullaxo'jalarga qo'shilib, jadidlar izidan ketdi.

Mamlakatda ijtimoiy – siyosiy va sotsial – iqtisodiy sharoitni e'tiborga olib, Buxoro jadidlari dastlabki paytlarda monarxiya tuzumini yo'qotish vazifasini oldinga surmadilar, yuqoridan islohot orqali amirlikni kapitalistik yo'lga yo'naltirishga intildilar.² Jadidlar farzandlarimizni o'qitib, ma'rifatga erishamiz va ma'rifat bilan jamiyatni o'zgartiramiz degan g'oya bilan “Yosh buxoroliklar” partiyasini ochib, Buxoro amiriga qarshi kurash boshlagan edilar. Buxoro jadidlarining 1917-yilgacha bo'lgan amaliy faoliyati, keyinchalik Fayzulla Xo'jayev ta'kidlaganidek, asosan ma'rifatparvarlik – yangi usuldagi maktablar va hokazolarni tashkil etishga qaratilgan edi.³ Jadidchilik harakati amirlikdagi xalqlar manfaatlarini ifodalardi, u usha davrda hukmron tuzumga nisbatan yagona qarshi siyosiy kuch bo'lib, Buxoro jamiyati istiqboli yo'lini izladi va shu bois uning demokratik, taraqqiyparvar kayfiyatdagi barcha qatlamlarini birlashtirdi va jipslashtirdi.

Ozchilikni tashkil qilgan “Yosh buxoroliklar” amirga qarshi kurasha olmas edilar. Shuning uchun ular 1918 yilda Turkiston Xalq Komissarlar Soveti raisi Kolesovdan yordam so'raydi. Jadid tarafdorlarining kamligi, qizil armiyaning yaxshi qurollanmay urushga kirgani sabab amir kuchlari ustunlik qiladi. Shundan keyin Xo'jayev oila a'zolari bilan Toshkentga jo'naydi. Biroq bu – urush tugaganini anglatmasdi. Xo'jayev 1918–1920 yillarda bolsheviklarning “Iskra” gazetasi tahririyatiga kiradi va 1920 yilda Toshkentga qaytib, “Uchqun” gazetasini chiqaradi. Uni 5000 nusxada yashirin chiqarib, Buxoro aholisiga tarqatadi. Bu yo'lda unga Abdurauf Fitrat, Munzim, Said Ahroriylar yordam beradilar. Matbuot orqali o'z tarafdorlarini ko'paytirgan Fayzulla Xo'jayev qadimiychilar va Said Olimxonga yoqmasligi turgan gap edi. Buxoro amiri qanday bo'lmasin, uni yo'q qilish yo'llarini izlaydi, boshi uchun yirik miqdorda oltin ham va'da qiladi. Shunday og'ir vaziyatda Xo'jayev yagona madad bolsheviklar deb tushunadi va ulardan ikkinchi bor yordam so'radi. 1920 yilda Turkiston fronti qo'mondoni Mixail Frunze boshchiligidagi qizil armiya amir hokimiyatini ag'darish uchun Buxoroga kiradi. Avvaliga tinch aholiga tegmaslikka va'da bergan bolsheviklar 1920 yil 1 sentabrda Buxoroga 11ta aeroplan bilan hujum qilib, amirlikni xonavayron qildi. Natijada 34ta guzar, 6 mingga yaqin do'kon va hovli, 20ga yaqin saroy, 29ta masjid yonib kul bo'ldi. Minglab begunoh odamlar qirildi. Bunday qirg'inbarotni ko'rgan Fayzulla Xo'jayev bolsheviklarga

¹ Fayzulla Xo'jayev. Tanlangan asarlar . 1-tom. Toshkent. 1976,314-bet.

² Buxoro jadidlari haqida D. A. Alimova maqolasi.

³ Fayzulla Xo'jayev. Ko'rsatilgan asar 93-101- bet.

ishonib xato qilganini anglaydi. Xo'jayev xalq hayotini yaxshilash, odamlarni ilmi qilish uchun o'zi to'g'ri deya ishongan yo'lda kurashini davom ettiradi. Amir taxti qulagach, uning o'rniga Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tuziladi va unga Fayzulla Xo'jayev rahbarlik qiladi. G'arbda ilm-fan, sanoat rivojlanayotganini ko'rgan Fayzulla Xo'jayev o'z xalqining orqada qolayotganidan tashvishlanardi. Shu sabab respublika aholisi ilmi bo'lishi uchun qo'lidan kelganini qildi. Uning rahbarlik yillarida respublika umumta'lim maktablarida 18 tilda dars berilgan. Oliy o'quv yurtlari soni 31 taga yetib, 86 ta texnikum tashkil qilingan.

O'zbekistondagi ilk gidrostansiya Bo'zsuv GES, Chirchiq elektrkimyo kombinati, Toshkent to'qimachilik kombinati ham Xo'jayev sa'y-harakatlari bilan ochilgan. Uning rahbarligida Boysunda ko'mir, Olmaliqda mis, Samarqand va Farg'onada marmar, rangli metallarni qidirish ishlari boshlanadi. XX asrning boshida tug'ilgan buxoroliklarning ko'pi Fayzulla Xo'jayevni ko'rgan yoki uning rahbarlik yillarida yashagan. Fayzulla Xo'jayevni o'z ko'zi bilan ko'rgan kishilar bilan suhbatlashgan tarix fanlari doktori Shodmon Hayitov ular xotirasini shunday hikoya qiladi: "Men otamga ergashib Fayzulla Xo'jayevni kutib olish uchun vokzalga bordim. Vokzalda tumonat odam yig'ilgandi. 1-vagondan oq kitel, oq shim va poxol shlyapada o'rta bo'yli Fayzulla Xo'jayev tushdi. Odamlar orasida: "Ana, eshonjon keldi, eshonjon" degan gala-g'ovur. Shunda bir chol odamlar orasini yorib kirib, Fayzulla Xo'jayev oyog'i ostiga o'zini tashladi.

"Eshonjon, Buxoro xalqi och, agar o'zingiz yordam bermasangiz, xalqimiz ochlikdan qirilib ketadi", - deydi. Fayzulla Xo'jayev ro'molchasi bilan cholning ko'z-yoshini artib: "Buxoro xalqining qirilib ketishiga yo'l qo'ymaymiz, asrab qolamiz", deya Toshkentga jo'nab ketadi. Shundan keyin Buxoroga 12-13 vagonda bug'doy keldi. Bu bug'doy 3 kun vokzaldan aholining sharoitiga qarab ro'yxat bilan tarqatildi", - deya gapirib bergan Xo'jayevni ko'rgan keksalardan biri.

Bolsheviklarning Xo'jayevga yordami beg'araz emasdi, albatta. Ular amir xazinasidagi oltinning teng yarmini olib ketishni istashgan. Shodmon Hayitovning aytishicha, Fayzulla Xo'jayev bolsheviklar ketgandan keyin amirlikda 2 ta xazinaxonani yashirib qolgan. Unda jami 9 ming kilogramm oltin va 152 ming kilogramm kumush saqlangan.

Xo'jayev Buxoro Xalq Respublikasining Nozirlar sho'rosi va Inqilobiy qo'mitani shu oltinlardan tashkil qilish bo'yicha farmon bergan. Va 5-6 kishidan iborat komissiya tuzgan. Unga moliya noziri Nosir Hakimov, Markaziy ijro qo'mitasi raisi Usmonxo'ja Po'latxo'jayev, tashqi ishlar noziri Hoshim Yoqubov, savdo noziri Muhiddin Mansurovlar kirgan.

Tarixiy manbalarga ko'ra, nozirlarni tekshirish uchun ular orqasidan xavfsizlik tuzilmalari o'zining odamlarini qo'ygan. Va ular hukumat a'zolarining oltindan o'marganini aniqlaydilar, o'shanda faqat Fayzulla Xo'jayev oltindan olmagan edi.

“Amir tillalari butun ittifoqni ochlikdan saqlab qolgan bo'lishi mumkin”.

Fayzullaga otasidan juda katta boylik meros qolgandi. U bu boyliklarni xalq uchun xizmat qilsin deb, hukumatga topshirib yuborgan. “U otasidan qolgan 410 kg oltinni, 82,2 kg kumush yombini va bir qancha olmos buyumlarni hukumatga topshirgan. Yashirib qolingani amir xazinasi hisobidan esa yoshlardan 125 nafarini Germaniya, Turkiya, Yaponiyaga o'qishga yuborgan. O'sha paytda Xorazm Xalq Respublikasidan 2 kishi, Turkiston avtonom respublikasidan bor-yo'g'i 16 kishi xorijga o'qishga borgan. Buxoro Xalq Respublikasidan Germaniyaning o'ziga 56, Turkiyaga 25 yosh yuborilgan. Fayzulla Xo'jayev Berlining Barbarossa maydonidan Buxoro savdo vakolatxonasini sotib olib, har bir talabning hisobiga 125 ming dollar miqdorida oltin o'tqazgan. Maqsad – shu yerda 7-8 yil xorijda o'qiydigan yoshlar qiynalib qolmasligi va O'zbekistonga yaxshi kadr bo'lib qaytishi edi”, – deydi Shodmon Hayitov.

Asrlar davomida Buxoro g'aznasida to'plangan boyliklar miqdori haqida turli taxminlar yuradi. Amir xazinasi haqida Turkiston jadidlarining yetakchilaridan bo'lgan Mahmudxo'ja Behbudiy shunday yozadi: "...Hozir Buxoro amiri tasarrufi ostida bo'lgan xazina shu darajada mo'lkli, hech bir mamlakat xazinasida bul darajada ehtiyot saqlangan oltin va kumush pul, tillo yombilar bo'lmasa kerak. Buxoro amiri sanochlarida saqlanayotgan oltin va kumush pullar bo'yi 50 olchin, eni 20 olchin va balandligi 8 olchin bo'lgan bir tog'dan iboratdur". Bu raqamlarni hozirgi o'lchovga aylantirsak, amir xazinasining bo'yi 35 metr, eni 14 metr va balandligi qariyb 6 metrga to'g'ri keladi. Bu boyliklarning asosiy qismi 1920 yildagi bosqindan keyin 18 vagonda Rossiyaga tashib ketilgani haqida ma'lumotlar bor. Rossiyaga tashib ketilgan oltinlar taqdiri ko'pchilikni qiziqtiradi. Ular yuz yillar davomida xalq peshona teri evaziga to'planib kelayotgan boyliklar edi. Xo'jayev xorij davlatlari bilan aloqa qilmay, Buxoroni rivojlantirishni tasavvur qilolmasdi. Shu sabab u Germaniya, Ozarboyjon, Turkiya bilan aloqalar o'rnatishga intildi. Bu – bolsheviklarga yoqmadi. Bir tomondan bolsheviklar, ikkinchi tomondan mamlakat ichkarisida bo'lganlar Fayzulla Xo'jayev faoliyatini doimiy kuzatib, uning kamchiliklarini topishga harakat qilishdi. “Bolsheviklar esa uning mustaqil O'zbekistonni tashkil qilishidan qo'rqib, hatto bu ketishda u SSRning muhim rahbarlaridan biriga aylanishi mumkin deb, unga nisbatan soxta uydirmalarni to'qishgan. Va nihoyat 1937 yilda Fayzulla Xo'jayevga qator tuhmatlarni qilib, uni qamatishgacha boradilar. U Moskvada qamoqxonada yotganida juda qattiq qiynoqlarga uchraydi. Guruhbozlik, Stalin qatag'oni Xo'jayevning ham yoqasidan

tutdi. U 1938 yil 13 mart kuni otuvga hukm qilinadi. 1938 yil 15 martda Moskvadagi Butova tumani, Sosenskiy qishlog'idagi o'rmonda otib o'ldiriladi. Xo'jayev O'zbekistonda sovet rejimini ag'darish uchun fitna uyushtirganlikda hamda Germaniya, AQSh, Yaponiya va Polsha foydasiga josuslikda aybdor deb topilgan. 1965 yilda to'la oqlanib, Stalin qatag'onining begunoh qurbonlaridan biri sifatida e'tirof etilgan.

Xulosa

Fayzulla Xo'jayev taqdiri usha davr ziyolilari uchun ramzli tus olgan bo'lib, nihoyatda mushkul va fojiali bo'ldi. Respublika hayotida totalitar rejim va markazning imperiyachilik siyosatining salbiy ta'siri tobora kuchayib borayotgan murakkab sharoitda Fayzulla Xo'jayev iqtisodiy va xo'jalik muommolarini hal etishda O'zbekiston manfaatlarini imkon qadar himoya etish uchun butun kuch-quvvatini sarfladi. Davlatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng ko'plab arboblarning qatorida Fayzulla Xo'jayev nomi ham oqlandi. F. Xo'jayev haqida maqola, kitoblar nashr etildi. Shu bilan birga F. Xo'jayevning 100 yillik yubileyi nishonlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Fayzulla Xo'jayev. Tanlangan asarlar . 1-tom. Toshkent. 1976,314-bet.
2. Buxoro jadidlari haqida D. A. Alimova maqolasi.
3. Fayzulla Xo'jayev. Ko'rsatilgan asar 93-101- bet.
4. Fayzulla Xo'jayev hayoti va faoliyati haqida yangi mulohazalar, T, 1997
5. Buxoro inqilobining tarixiga materiallar. F. Xo'jayev. Toshkent. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi „Fan“ nashriyoti. 1997.
6. Said Olimxon. Buxoro xalqi chekkan kulfatlar tarixi. „Fan va turmush“, 1991, 3-son.
7. Eshonov O. E., Fayzulla Xo'jayev, T, 1973
8. Hasanov M. Fayzulla Xo'jayev, T, 1990.
9. Мамараджабов, Б. (2023). САУДИЯ АРАБИСТОНИДАГИ ЎЗБЕК МУҲОЖИРЛАРИ ТАРИХИ: МУВАФФАҚИЯТЛИ АССИМИЛЯЦИЯ ВА ЙЎҚОТИЛГАН МИЛЛИЙ ИДЕНТИКЛИК. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(S/6).
10. Mamarajabov, B. N. M. O. G. (2023). MARKAZIY OSIYODA ARABLAR BILAN BOG'LIQ IJTIMOIIY QATLAMLAR. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(5), 1048-1052.

Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining tarix yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: 30 yil muqaddam Iroq Kuvaytni bosib olib, o'zi uchun halokatli tugashi muqarrar bo'lgan AQSh bilan qarama-qarshilikni boshlab bergandi. Oq uy o'shanda ilk bor arab davlatlari ishiga aralashishni boshlagan va bu ish hamon davom etmoqda.

Kalit so'zlar: *Sarodagi bo'ron, Quvayt, oq uy, halokatli urushlar*

1988 yilda, Iroq-Eron urushi tugaganidan so'ng Iroq iqtisodiy muammolarga duch kela boshlaydi. Mamlakat Eron bilan urushib yurganida Saudiya Arabistoni va Kuvaytdan katta miqdorda qarz bo'lgan, endi o'sha qarzlarni qaytarishi kerak edi. Urushdan charchab chiqqan Iroqda o'sha qarzlarni qaytarishga yetarli mablag' yo'q edi. Bu muammoni yechishda Iroq prezidenti Saddam Husayn agressiv yo'ldan ketadi. U Kuvaytni bahsli hududlardan biri bo'lgan Rumeyladan noqonuniy neft qazib olishda ayblab, undan Iroq-Eron urushi paytida berilgan 17 milliard dollar miqdoridagi qarzdan kechishni va yana 2,4 milliard dollar miqdorida tovon puli to'lashni talab qila boshlaydi. Tabiiyki, Kuvayt buni rad etadi. 1990 yil 31 iyul kuni Saudiya Arabistonining Jyezde shahrida o'zaro nizolar yuzasidan Iroq-Kuvayt muzokaralari bo'lib o'tadi. Ammo muzokara natijasiz tugaydi. Oradan ikki kun o'tib, 1990 yil 2 avgust kuni Iroq qo'shinlari Kuvaytga bostirib kiradi, Kuvayt amiri Jobir as-Saboh Saudiya Arabistoniga qochib ketadi. Iroq qo'shinlari Kuvaytni bosib olgan kunning o'zida BMT Xavfsizlik Kengashi 660-sonli rezolyutsiyani qabul qiladi. Unda Iroqqa Kuvaytdan o'z qo'shinlarini darhol olib chiqib ketish talabi qo'yiladi. Iroq BMT talabini rad etdi va Kuvaytni o'z tarkibiga qo'shib olib, uni o'zining 19-provinsiyasi deb e'lon qiladi. O'sha paytda ko'plab xalqaro tashkilotlar va davlat rahbarlari Saddam Husayndan o'z qo'shinlarini Kuvaytdan darhol olib chiqib ketishni talab qilishadi. U bu talablarni e'tiborsiz qoldiradi. Iroq BMT rezolyutsiyasini pisand qilmaganidan keyin, AQSh Qurolli kuchlari Markaziy qo'mondonligi zudlik bilan Iroqqa qarshi harbiy harakatlar boshlash rejasini tuza boshaydi. Rejaga shartli ravishda «Sahrodagi bo'ron» deb nom beriladi. Rejada avval Iroqdagi muhim obektlarga havodan zarba berish, so'ng quruqlikdagi qo'shinlarni harakatga keltirish belgilangan edi. 1990 yil 7 avgust kundan boshlab AQSh o'z harbiylari va harbiy

texnikalarini Fors ko'rfaziga ommaviy tarzda jo'nata boshlaydi. BMT o'shanda Iroqqa qarshi jami 12 rezolyutsiya qabul qiladi. Ularda Iroqqa nisbatan iqtisodiy va harbiy sanksiyalar, shuningdek Kuvaytdan qo'shinlarni darhol olib chiqib ketish talablari qo'yilgandi. Ammo, Saddam Husayn bu rezolyutsiyalarga parvo qilmaydi. 1990 yil 27 noyabrda BMT Iroqqa qarshi harbiy kuch ishlatish haqida 678-sonli maxsus rezolyutsiyani qabul qiladi. Unda Iroqqa 1991 yil 15 yanvargacha Kuvaytdan chiqib ketish uchun so'nggi muddat beriladi. Agar bu shart bajarilmasa, unga qarshi harbiy kuch ishlatilishi belgilanadi. Iroqqa qarshi harbiy amaliyotlar olib borish uchun o'sha paytda AQShga yana ko'plab davlatlar qo'shiladi va qisqa fursatda ularning soni 28ta bo'ladi. Ittifoqchilar qo'shinlarga qo'mondonlik qilish AQSh generali Norman Shvarskopfga topshiriladi. Iroqqa qarshi xalqaro kuchlar tarkibiga bir qator arab davlatlari, jumladan Misr, Suriya va Saudiya Arabistoni ham qo'shiladi. Xalqaro kuchlar tarkibida 600 ming askar, 8 mingga yaqin harbiy texnika, 2 ming samolyot va ko'plab harbiy kemalardan iborat katta armiya jamlanadi. Harbiy aviatsiyani boshqarish uchun AQShning 9-havo qo'shinlari armiyasi qoshida yagona boshqaruv shtabi tuzildi va xalqaro kuchlar aviatsiyasi ana shu boshqaruv shtabi orqali boshqariladi. Iroqqa qarshi xalqaro koalitsiyaning asosiy bazasi Saudiya Arabistoni shimolida, Iroq chegarasidan 20-50 kilometr uzoqlikda joylashtiriladi. O'sha paytda Iroq armiyasida 1 millionga yaqin askar, 5 ming tank, 8 ming minomyot, 700 samolyot va «Yer-Yer» tipidagi 400 kilometrdan 1200 kilometr uzoqlikkacha ucha oladigan raketalar bo'lgan. 1991 yil 15 yanvarda Iroqqa berilgan so'nggi muddatgacha Saddam Husayn Kuvaytdan o'z qo'shinlarini olib chiqmaydi. 17 yanvar kuni soat 00:00da xalqaro kuchlar aviatsiyasi Iroq bo'ylab keng qamrovli havo hujumini amalga oshirishga kirishadi va muhim obektlarga bomba tashlay boshlaydi. Ittifoqchilar aviatsiyasi 24 yanvargacha sutkasiga 700-800tadan, jami 4700ta parvozni amalga oshiradi. Asosiy aviazarbalar Iroq poytaxti Bag'dod shahri va yana bir qator shaharlardagi muhim obektlarga beriladi. Iroq tomoni ham qarab turmaydi va «Al Husayn» va «Al Abbos» deb nomlangan «Skad» tipidagi raketalar bilan ittifoqchilarning Saudiya Arabistoni hamda Isroildagi bazalariga zarba berishga urinadi. Bu turdagi raketalarni Iroqqa urushdan avval SSSR yetkazib bergan edi. Iroq tomonidan uchirilgan raketalarning bir qismi mo'ljalga yetib borgan, yana bir qismi AQSh harbiy havo kuchlariga qarashli raketa tutqichlar tomonidan urib tushirilgan. Olti kunlik havo hujumi natijasida Iroq hududidagi aksariyat muhim obektlar vayron qilinadi. Iroqqa havodan zarba berish fevral oyida ham davom ettiriladi. Nihoyat 15 fevralda Saddam Husayn xalqaro koalitsiyaga Kuvaytdan qo'shinlarini olib chiqishga tayyor ekanini bildiradi. Ittifoqchilar Iroqqa quruqlikdan ham hujum qilishga kelishib olishgani

tufayli Saddam Husaynning sulh haqidagi taklifini e'tiborsiz qoldirib, hujum qilishda davom etishadi. 1991 yil 24 fevral kuni xalqaro kuchlar Iroqqa qarshi quruqlikdagi harbiy amaliyotlarni boshlaydi. 27 fevral kuni ittifoqchilar tomonidan Kuvayt hududi Iroq harbiylaridan tozalanadi va harbiy harakatlar endi Iroq hududida davom ettiriladi. 28 fevral kuni Iroq Bosh qo'mondonligi oq bayroq ko'taradi va shu tariqa «Sahrodagi bo'ron» operatsiyasi yakunlanadi. «Sahrodagi bo'ron» operatsiyasida xalqaro kuchlarning Iroq ustidan g'alaba qozonishining AQSh uchun ahamiyati juda katta edi. 1964-1975 yillarda bo'lib o'tgan Vetnam urushida mag'lubiyatga uchraganidan so'ng xalqaro maydonda AQSh harbiylarining obro'si ancha tushib ketgan edi. Iroqqa qarshi urushdagi g'alaba AQSh harbiylariga ana shu ishonchni qaytaradi. Iroq tomoni esa bu urushgacha sakkiz yil Eron bilan urushgan, armiyasi chiniqqan edi. Ammo, chiniqqan armiya xalqaro kuchlarning havo hujumlari ostida «tutday to'kilib» ketadi. AQSh boshliq xalqaro kuchlar bu urushda 200 nafarga yaqin askardan ayriladi. Ulardan 110 nafari arab davlatlari, 88 nafari xalqaro kuchlar tarkibidagi harbiylar edi. Shuningdek, ittifoqchilar 26ta uchuvchi apparatidan ayriladi. Shundan 25tasi texnik xatolar tufayli xalqaro kuchlarning o'zi tomonidan urib tushirilgan. Iroq bu urushda ko'p narsa yo'qotadi. Urush tugagandan biroz o'tib G'arb nashrlarida, bu urushda 100 ming nafar iroqliklar halok bo'lgani haqida ma'lumotlar beriladi. Ayrimlar bu urushda Iroq tomonidan 200 ming kishi halok bo'lgani haqida ham yozadi. Bu urushda Iroq harbiylaridan qanchasi halok bo'lgani haqida aniq ma'lumotlarni hisoblashning imkoni bo'lmagan. Norasmiy ma'lumotlarga ko'ra, Iroq armiyasi bu urushda 20-26 ming nafar askar, 308 samolyot, 1800-3700 tank, 520-2400 zirhli texnika, 1465-2400 artilleriya qurollari, 100ga yaqin turli hajmdagi kemalar va turli rusumdagi havo hujumiga qarshi qurilmalarini yo'qotgan. Shuningdek, xalqaro kuchlar tomonidan Iroq fuqaro aviatsiyasiga tegishli 12ta samolyot yo'q qilingan. Bu urushda Iroq tomonidan uchirilgan «Skad» rusumli raketalar tufayli Isroilda ham 15 kishi halok bo'ladi va ko'plab turarjoylarga zarar yetadi. Fors ko'rfazi qirg'oqlarida sodir bo'lgan bu urush mintaqa uchun haqiqiy ekologik halokatlarni olib keladi. Avvaliga Iroq tomonidan Kuvaytga tegishli, keyin esa xalqaro kuchlar tomonidan Iroqqa tegishli neft konlari yoqib yuborilishi tufayli mintaqa havosi jiddiy zararlanadi va havoni tutun qoplaydi. Havo qora tutun bilan zaharlangani uchun kuzda qora rangli yomg'ir yog'adi. Ana shu zaharli yomg'ir mintaqadagi 320ta katta-kichik ko'llar suvini zaharlaydi. Oqibatda, o'sha ko'llardagi suv jonzotlari nobud bo'ladi. Har ikki tomondan neft ortilgan tankerlarga hujum qilinishi oqibatida, neft dengizga oqib ketishi Fors ko'rfazidagi Iroq, Kuvayt va Saudiya Arabistoni hududidagi dengiz sohillari ekotizimiga jiddiy zarar yetkazadi. Urush tugaguncha jami 8 million barrel

neft dengizga oqib ketadi. Natijada, ko'plab dengiz hayvonlari va ularni iste'mol qilgan 30 mingga turli turdagi qushlar nobud bo'ladi. Xalqaro tahlilchilarga ko'ra, bu urush natijasida yaqin tarixdagi eng yirik ekologik fojia yuz beradi. Urush tugagandan so'ng BMT Xavfsizlik kengashi qoshida tovon puli masalasida maxsus komissiya tuziladi. Komissiyaning vazifasi 1990 yil 2 avgustdan 1991 yil 2 martgacha bo'lgan davrda Iroq armiyasi bostirib kirishi oqibatida jabrlanganlarga tovon puli undirib berish edi. 2007 yilda ushbu komissiya tomonidan urushda jabrlanganlardan kelgan 1 543 665 ta shikoyatni qanoatlantiriladi va Iroq hukumatidan ular foydasiga jami 52 milliard 386 million AQSh dollari miqdorida tovon puli undirish haqida hukm chiqariladi. 2007 yil 1 iyun holatiga ko'ra Iroq zimmasiga yuklatilgan tovon pulidan 22 milliard 81 million dollar mablag' BMT qoshida ochilgan Iroq neft eksportidan tushadigan mablag'lar jamg'arib boriladigan fond orqali to'lab beriladi. Tovon pulining qolgan qismi ham keyinchalik to'lab beriladi. O'sha paytda Kuvaytni bosib olib, uni o'z davlatining bir bo'laki deb e'lon qilgan Saddam Husayn nimaga ishonib BMT rezolyutsiyalari va xalqaro hamjamiyatning ogohlantirishlarini e'tiborsiz qoldirgan? Bu savolga aniq javob yo'q. Ammo ko'plab taxminlar bor. Birinchi taxminga ko'ra, u Iroq-Eron urushida o'z armiyasi ancha toblangan va janglarda tajriba orttirgan, shu sababli xalqaro kuchlar tomonidan yo'llanadigan harbiylarga bas kela oladi deb hisoblagan. Yana bir taxminga ko'ra, o'sha paytda SSSR Afg'onistonda olib borilgan 10 yillik urushda mag'lub bo'lib, o'z harbiylarini olib chiqqaniga uncha ko'p bo'lmagan va bu ish ham Saddamni ilhomlantirgan. Ya'ni u SSSRdek qudratli davlat harbiylari Afg'onistonda yengilgan ekan, Iroq armiyasi ham AQSh harbiylarini mag'lub eta oladi deb ishongan. Yana bir taxminga ko'ra, o'sha paytda agar urush boshlanadigan bo'lsa, SSSR harbiy yordam berishni va'da qilib, Saddam Husaynni ishontirgan. Urush boshlangandan so'ng xalqaro hamjamiyat bosimi bilan Moskva o'z va'dasida turmagan. Nima bo'lganda ham o'sha paytda Saddam Husayn o'z kuchiga oshiqcha baho berib yuborgan. Aks holda BMT Xavfsizlik kengashining so'nggi ogohlantirishidan so'ng unda vaziyatni o'nglash va Kuvaytdan qo'shinlarini olib chiqib ketib, hammasini tinch yo'l bilan hal qilish uchun bir yarim oy vaqt bor edi.

Xulosa

Bu urush sodir bo'lgandan biroz o'tib SSSR tarqalib ketadi. AQSh esa urush g'olibi sifatida jahon siyosiy maydonida yana yetakchilikni o'z qo'lga oladi. Iroq Saddam Husaynning manmanligi oqibatida juda og'ir vaziyatga tushib qoladi. Mamlakat xalqaro kuchlarga tegishli avitsiya tomonidan vayron qilingani

yetmaganday, keyinchalik Iroq bu urushda jabrlanganlarga tovon puli to'lashga majburlanadi. Shuningdek, xalqaro hamjamiyat tomonidan Iroqqa nisbatan iqtisodiy sanksiyalar joriy qilinadi. Ana shu sanksiyalar tufayli Iroq neft eksport qilishda muammolarga duch kela boshlaydi. Sanksiyalarga ko'ra, Iroqqa neft eksport qilishda ma'lum limit joriy qilinadi. Shundan so'ng Iroq ana shu limitda belgilangandan oshiq neft eksport qila olmay qoladi. Buning oqibatida mamlakat iqtisodiyoti orqaga ketib, aholining turmush darajasi pasayib boradi. AQSh va Iroq o'rtasida boshlangan qarama-qarshilik bu urushdan keyin ham davom etadi. Oradan 13 yil o'tib AQSh Iroqqa yana bostirib kiradi. AQSh harbiylari tomonidan Saddam Husayn asir olinadi va sud qilinib dorga osib o'ldiriladi.

Foydanilgan adabiyotlar:

1. Мамараджабов, Б. (2023). САУДИЯ АРАБИСТОНИДАГИ ЎЗБЕК МУҲОЖИРЛАРИ ТАРИХИ: МУВАФФАҚИЯТЛИ АССИМИЛЯЦИЯ ВА ЙЎҚОТИЛГАН МИЛЛИЙ ИДЕНТИКЛИК. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(S/6).

2. Mamarajabov, B. N. M. O. G. (2023). MARKAZIY OSIYODA ARABLAR BILAN BOG'LIQ IJTIMOIIY QATLAMLAR. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(5), 1048-1052.

3. Mamarajabov, B. N. M. O. G. (2022). ARABISTON YARIM OROLIDA DAVLATCHILIKNING SHAKLLANISHI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(10), 118-121.

4. О'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining tarix yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Kuba (Cuba), Kuba Respublikasi (República de Cuba) — Vest-Indiyadagi davlat. Kuba orol va Katta Antil orollari guruhiga kiruvchi 1600 dan ortiq mayda orolda joylashgan. Maydoni 110,86 ming km². Aholisi 11,2 mln. kishi (2001). Poytaxti — Ganava shahri Ma'muriy jihatdan 14 viloyat (provincia)ra, viloyatlar munitsipiyalarga bo'lingan.

Kalit so'zlar: *Kuba respublikasi, kata antil, ganava shahri, provinsiyalar*

Kuba — sotsialistik davlat. Amaldagi konstitutsiyasi 1976-yil umumxalq referendumida ma'qullangan, unga 1992-yilda tuzatishlar kiritilgan. Davlat hokimiyatining oliy organi va qonun chiqaruvchi organ — Xalq hokimiyati milliy assambleyasi; uning deputatlari orasidan Davlat kengashi raisi, uning birinchi o'rinbosari va 5 o'rinbosari, kotibi va 23 a'zosi saylanadi. Davlat kengashining raisi (Raul Kastro) davlat va hukumat boshlig'i hisoblanadi, milliy mudofaa kengashiga boshchilik qiladi. Oliy ijroiya organi — Vazirlar kengashi (hukumat). Uning a'zolari Xalq hokimiyati milliy assambleyasi tomonidan tasdiqlanadi. Miloddan avvalgi 4-ming yillikdan ilgariroq ham K.da indeys qabilalari yashagan. 7—9-asrlarda K.ga Janubiy Amerikadan mayarlar, subtaino va tayno qabilalari ko'chib kelgan. Bu qabilalar ovchilik, baliq ovlash va dehqonchilik bilan shug'ullangan. 15-asr oxirlarida orolda 200 mingdan ortiq kishi yashagan. Orolga 1492-yil oktabrda X. Kolumb ekspeditsiyasi yetib kelgan. O'sha vaqtda K.da aranak indeys qabilalari yashardi. 1510-yil uni ispanlar bosib olib, aholini qirib tashlay boshladi. Indeyslar o'z sardorlari — Atuey va Guam rahbarligida bosqinchilarga qarshi qattiq kurashdi. Og'ir mehnat, ochlik va kasallik oqibatida 5 ming indeys tirik qoldi, xolos. Shuning uchun mustamlakachilar konlar va shakarqamish plantatsiyalarida ishlatish uchun Afrikadan negr-qullar keltirdilar.

Iqtisodiy va madaniy munosabatlar rivojlanishi natijasida (18-asr oxirlarida) K. xalqi shakllana boshladi. Ispaniya mustamlakalarining 1810—26 yillardagi mustaqillik uchun olib borgan urushi vaqtida K. yer egalarining ilg'or qismi F. Arango-i-Parreno rahbarligida iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar qilish uchun kurashdi. Natijada Ispaniya bir oz yon berishga (tamaki monopoliyasini bekor

qilish, erkin savdoga ruxsat berish va boshqalar) majbur bo'ldi va bu narsa K.ning iqtisodiy yuksalishiga olib keldi. 19-asrning 20-yillaridan K, da gaz.lar chiqqa boshladi, yashirin jamiyatlar paydo bo'ldi. Ular o'z oldiga mustaqillik uchun kurashni maqsad qilib qo'ydi. 1844-yil negr-qullarni ozod qilish uchun harakat qatnashchilari qattiq jazolandilar.

19-asrning 30-yillarida K.da dastlabki tamaki va sigara fabrikalari paydo bo'ldi. 60-y, lardan kapitalistik munosabatlar rivojlana boshladi.

1868-yil 10-oktabrda Oryente viloyatida K. M. de Sespedes rahbarligida K. vatanparvarlarining qo'zg'oloni boshlandi. Ular e'lon qilgan manifest K. xalqining ispan mustamlakachilariga qarshi 10 yil lik milliy ozodlik kurashini boshlab berdi. Qo'zg'olonning maqsadiga to'la-to'kis erishilmagan bo'lsada, ammo 1886-yil quldorlik bekor qilindi. Ispan hukmronligiga qat'iy zarba berishga tayyorgarlik ishlari olib borildi. Bu ishga X. Marti rahbarlik qildi. 1892-yil X. Marti AQSH da K. inqilobiy partiyasi (KIP)ni tuzdi. 1895-yil 24-fevralda Oryente viloyatida K. mustaqilligi uchun qurolli qo'zg'olon ko'tarildi. 1895-yil sentabrda K. Respublikasining inqilobiy hukumati tuzildi. Yangi konstitutsiya ishlab chiqildi. 1897-yil noyabrda Ispaniya K.ga muxtoriyat berdi, ammo kurash davom ettirilib, yilning oxirida K.ning ko'p qismi ispanlardan ozod qilindi. 1898-yilaprelda AQSH Ispaniyaga qarshi urushga qo'shib, Ispaniyani tor-mor keltirdi va o'sha yili Parij tinchlik bitimi tuzildi. Bitimga ko'ra, K. rasman mustaqil deb e'lon qilingan bo'lsa ham, haqiqatda 1898-yildan 1902-yilgacha AQSH tasarrufida bo'ldi.

1903-yilgi adolatsiz shartnomaga binoan, AQSH Guantanamo harbiy-dengiz bazasini noma'lum muddatgacha ijaraga oldi.

1925-yil mayda davlat tepasiga kelgan X. Machado terrorchi diktatura o'rnatdi. 1934-yil yanvarda hukumat F. Batista kuliga o'tdi, u harbiy-politsiya rejimini o'rvatdi. 1935-yil martda umumiy ish tashlash boshlandi, bunda Batista rejimini bekor qilish, yangi demokratik konstitutsiya tuzish talab etildi. 1944— 48 yillarda R. Grau San-Martina hukumatga boshchilik qildi. Mavjud siyosatga qarshi norozilik mitinglari, ish tashlash va h.k. hukumatni demokratik tashqilotlarga yon berishga majbur etdi.

1952-yil 10-martdagi davlat to'ntarishi natijasida hokimiyatni yava F. Batista egalladi. Shu sharoitda F. Kastro Rus boshliq inqilobchi yoshlar guruhi Batista hokimiyatiga qarshi qurolli kurash boshladi. 1953-yil 26-iyulda guruh Santyagode-Kubadagi Monkada kazarmasiga hujum qildi. Pekin bu qujum muvaffaqiyatsiz

yakunlandi. F. Kastro va uning safdoshlari hibsga olinib, 15 yillik qamoq jazosiga hukm qilindi. 1955-yil keng jamoatchilik tazyiqi natijasida hukumat mahbuslarga afv e'lon qildi. F. Kastro AQSH ga, so'ng Meksikaga ketdi va u yerda F. Batista hokimiyatiga qarshi qurolli kurash rejasini ishlab chikdi. 1956-yil 2-dekabrda F. Kastro boshchiligidagi guruh "Granma" yaxtasida K.ga kelib tushdi. Shu paytdan mamlakatni F. Batista rejimidan ozod etish uchun kurash boshlandi.

1957-yil 13-martda talabalarning "Inqilobiy direktorat" degan siyosiy tashkiloti Batista hukumatini yuqotish maqsadida prezident saroyiga bostirib kirdi. 1959-yil 1-yanvar kechasi Batistahokimiyati ag'darildi. 1959-yil fevralda F. Kastro boshliq hukumat tuzildi. O. Dortikos Torrado prezident bo'ldi. __ K. — 1945-yildan BMTa'zosi. 1992-yilda O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini tan olgan. Milliy bayramlari: 1-yanvar — Ozodlik kuni (1959), 26-iyul — Milliy qo'zg'olon kuni (1953).

Musiqasi Yevropa, birinchi navbatda, Ispaniya va Afrika musiqasi asosida tarkib topdi. Afro-Kuba musiqasida ispancha ohanglar negrcha raqs bilan uyg'unlashgan. 16—18-asrlarda cherkov xonishchilar maktablari musiqa madaniyatining rivojlanish markazi bo'lgan. 1776-yil Ganavada "Koliseo" teatri qurildi. 1816-yil "Santa Sesiliya" musiqa akademiyasiga asos solindi. 19-asr boshlarida K. xalq musiqasi janrlari va milliy mavzular bilan bog'liq opera-buffa shakllandi. 19-asr o'rtalarida milliy kompozitorlik maktabi vujudga keldi. 1898-yil E. Sanches de Fuentesning milliy mavzudagi birinchi operasi — "Yumuri" sahvalashtirildi. 19-asr oxiri — 20-asr boshlarida klassik va xalq musiqasi jamiyatlari, Gavana konservatoriyasi va simfonik orkestrlar paydo bo'lib, kompozitorlik ijodiyoti ravvak, topdi. K. inqilobi (1959) dan so'ng ijodiy jamoalar qayta tuzilib, yangilari tashkil etildi, ommaviy ashula janri rivojlandi. A. D. Kartaya "26-iyul marshi"ning matnini va musiqasini yaratdi. Kompozitorlardan N. Rodrigues, K. Puebla, K. Farinyas, T. Kastelyanoslar mashxur bo'ldi. O'zbekistonda o'tkazilayotgan Xalqaro simfonik musiqa va "Ilhom-XX" kamer musiqa festivallarida K. kompozitorlarining asarlari ham ijro etilmoqda.

Foydanilgan adabiyotlar:


1. Мамараджабов, Б. (2023). САУДИЯ АРАБИСТОНИДАГИ ЎЗБЕК МУҲОЖИРЛАРИ ТАРИХИ: МУВАФФАҚИЯТЛИ АССИМИЛЯЦИЯ ВА ЙЎҚОТИЛГАН МИЛЛИЙ ИДЕНТИКЛИК. Ижтимоий-гуманитар

фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(S/6).

2. Mamarajabov, B. N. M. O. G. (2023). MARKAZIY OSIYODA ARABLAR BILAN BOG'LIQ IJTIMOIIY QATLAMLAR. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(5), 1048-1052.

3. Mamarajabov, B. N. M. O. G. (2022). ARABISTON YARIM OROLIDA DAVLATCHILIKNING SHAKLLANISHI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(10), 118-121.

4. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil



GAT DASTURLARI ASOSIDA MAVZULI KARTALARINI TUZISH
TEXNOLOGIYASINING RIVOJLANISH ISTIQBOLI

Rasulov Ne'mat

Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti

Stajyor-o'qituvchi

Nematrasulov59@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada mavzuli kartalarni yaratish texnologiyasining tarixi va kartalarni tuzishda qo'llanilgan geografik axborot tizimlari, ularning zamonaviy geografik axborot tizimlarida tasvirlanishi keltirilgan.


Kalit so'zlar: kartalar, katografik asar, proektsiya, kartografik shakl, masshtab, geoaxborot tizimlari.

Annotation: The content of the article covers the history of card creation technology and geographic information systems used in the creation of Cards, their description in modern Geographic Information Systems.


Key words: cards, cartographic work, projection, cartographic form, scale, geoinformation systems.

KIRISH. Bugungi kunda jamiyatning rivojlanishi fan texnika taraqqiyot darajasi ortib, ko'pchilik sohalar yanada takomillashib bormoqda. Bu sohalarning barchasi ma'lum bir rivojlanish yo'lini bosib o'tganligi ham hammmizga yaxshi tanish. Shular qatorida geografik axborot tizimlarini ham o'zining ko'p yillik tarixiga ega.

Zamonaviy kartografiya turli xil texnologik yutuqlarning paydo bo'lishi bilan boshlandi. Kompas, teleskop, sekstant, kvadrant va bosmaxona kabi vositalarning ixtiro qilinishi xaritalar uchun oson va aniqroq amalga oshirilishiga imkon berdi. Yangi texnologiyalar, shuningdek, dunyoni aniqroq ko'rsatadigan turli xil xarita proektsiyalarini ishlab chiqishga olib keldi.



1-rasm. Arcgis dasturida tuzilgan kartaning boshqarilishi.



2-rasm. Arcgis dasturida tuzilgan kartaning boshqarilishi.

Birinchi marta geografik axborot tizimi tushunchasi 1960-yillar o'rtasida Kanada davlatida paydo bo'lib, Kanada Geografik Axborot Tizimi (Kanadian Geographic Information System KGIS) deb atalgan. Geografik axborot tizimi yoki qisqacha GAT deb ham yuritiladi. Tizimning asosiy maqsadi Kanada yer resurslarining inventarizastiyasini o'tkazish va shu asosida yer resurslarini mavjud holati va kelajakdagi potentsialini aniqlashdan iborat edi. Hozirda rivojlangan davlatlarda GAT ko'pgina ijtimoiy sohalarda, iqtisodda, siyosatda, ekologiyada, tabiiy resurslarni boshqarish va tabiatni muhofaza qilishda, kadastrda, ilm-fan va boshqa sohalarda qo'llanilib kelmoqda. GAT bizning sayyoramizga tegishli global, hududiy, milliy, lokal-axborot turlari: kartografiya, distanstion zondlash, statistika, kadastr ma'lumotlari, gidrometeorologik ma'lumotlar, dala ekspedistion materiallarini kuzatish, burg'ulash natijalari, suv ostini zondlash va hokazolarni integralashtirgan holda barcha jabhalarni egallab kelmoqda [5-6betlar].


XXI asrda dron(UUA)lardan yerni suratga olishda foydalanish xaritalarni yaratishda ishlatilishi mumkin bo'lgan ma'lumot turlarini o'zgartirdi. Sun'iy yo'ldosh tasvirlari ma'lumotlarning asosiy manbaiga aylandi va katta maydonlarni batafsil namoyish qilish uchun ishlatiladi. Va nihoyat, Geografik Axborot Tizimlari (GAT) bugungi kunda nisbatan yangi texnologiya bo'lib, kartografiyani o'zgartirmoqda, chunki u har xil turdagi ma'lumotlarni ishlatib, kompyuterlar yordamida osongina yaratilishi, boshqarilishi mumkin.

Geoaxborot tizimida qo'llaniladigan maxsus dasturlar asosan ikki turga bo'linadi va ular quyidagilardan iborat:

1. Pulli dasturlar. Ular jumlasiga hozirda mashhur bo'lgan ESRI kompaniyasining ArcView oilasidagi dasturlar, GIS MapInfo Professional,

AutoCAD Map 3D, Geomedia Professional, Panorama, RemoteView, Bentley Map, Erdas Imagine, ArcGIS kabilar kiradi.

2. Ochiq kodli dasturlar. Mazkur bepul geoaxborot tizimi dasturlariga Quantum GIS (QGIS), GRASS GIS, gvGIS, ILWIS, JUMP GIS, MapWindow GIS, SAGA GIS, Capaware, FalconView, Kalypso, TerraView, Whitebox GIS kiradi. [26-bet].



3-rasm. Qashqadaryo viloyati Kitob tumani “Kitob” massivining Arcgis dasturida yaratilgan qishloq xo’jalik kartasi

ArcGIS dasturidan hozirgi paytda mamlakatimizda keng qo‘llanilmoqda, shu jumladan qishloq xo‘jalik kartalari, jumladan irrigatsiya kartlarini tuzishda ham.

XULOSA. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, kartografiya sohasi mamlakatimiz taraqqiyotini ham belgilab beradi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Buning uchun esa eng avvalo aholining turmush tarzini yanada yaxshilash zarur bo‘ladi. Bugun yurtimizda aholi turmush tarzini yaxshilash maqsadida respublikamizning barcha viloyatlarida qishloq xo‘jaligi sohalaridagi turkumlar, turli xil bino inshootlar, uy-joylar, yangi ko‘rinishdagi shaharlar, yangi yo‘llar hamda boshqa ishlar ham jadallik bilan olib borilmoqda. Fan va texnikaning taraqqiyoti natijasida kameral sharoitda ham xaritalarni tuzish nihoyatda yuqori darajada olib borilmoqda. Mavzuli kartalaridan, aerosuratlardan taktik, strategik masalalarni hal qilishda ham foydalaniladi. Yerning sun‘iy yo‘ldoshlarining uchirilishi natijasida kartografiyaning boshqa bir tarmoqlarida, jumladan qishloq xo‘jalik kartalarini tuzish va ularni tuzish texnologiyalarini takomillashtirish shu kunning dolzarb muammolaridan biri ekanligi va soxaga doir kartalarni yaratishni bir misolini yuqorida ko‘rib chiqishimizga sababchi bo‘ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. E.Safarov, I.Musaev. Geoaxborot tizim va texnologiyalar. O'quv qo'llanma. Toshkent. 2012. Tafakkur.-184. Bet.
2. Boltaev.T.X, Raxmonov.Q, Akbarov.M.O. Geoaxborot tizimining ilmiy asoslari. O'quv qo'llanma.Toshkent 2019. 274 bet.
3. M.Mirzaliev, M.Musaev. Kartografiya. Toshkent.-"ILM-ZIYo" , 2007-160b.
4. <https://uz.leskanaris.com/1978-the-history-of-cartography.html>.



YUNESKO Amir Temur va uning avlod-ajdodlarini ulug'lamoqda

Ashuraliyeva Shohista Shavkat qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalqaro nufuzli tashkilot YUNESKO tomonidan, shuningdek boshqa buyuk davlatlar ya'ni Amerika, Germaniya, Xitoy, Misr, Pokiston, Eron, Afg'oniston, Turkiya kabi davlatlar tomonidan Amir Temurning jaxonda tutgan o'rni, tarixi va faoliyatiga bo'lgan qiziqishlari, Amir Temur shahsiga ko'rsatgan extiromlarini ko'rishimiz mumkin.

Kalit so'zlar: YUNESKO, BMT, Toshkent, Amir Temur, Ipak yo'li, Rtveladze, Markaziy Osiyo, Samarqand, Muhammad Tarag'ay Ulug'bek.

Mustaqillik tufayli xalqimiz o'zligini tanidi, buyuk bobolarimizning tarixdagi o'chmas jasorati va yuksak dahosi haqidagi asl haqiqat ro'yobga chiqdi. Bu ulug'vor ishlarning debochasi sifatida mamlakatimizda Sohibqiron Amir Temur haqidagi adolat qaror topdi. Eng katta muammo – jahon jamoatchiligining fikrini o'zgartirish edi. Sobiq tuzum davrida Amir Temur shaxsi va faoliyatiga biryoqlama baho berilgan, buning asoratini davolash oson emasdi. Boz ustiga, YuNeSKO katta sarkardalarning yubileyini nishonlamas edi...

O'zbekiston bilan YUNESKO o'rtasidagi munosabatlar mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, yangi bosqichga ko'tarildi. 1993-yil 29-oktyabrda O'zbekiston YUNESKOning to'laqonlik a'zosi bo'ldi. Usha paytdayoq YUNESKO dasturiga buyuk munajjim va davlat arbobi Muhammad Tarag'ay Ulug'bek tavallidining 600 yilligi nishonlash taklif qilindi. YuNeSKO rahbariyatiga «Amir Temur boshqa sarkardalardan farqli ravishda bunyodkor shaxs bo'lgan, qay joydan bir g'isht olsa, o'rniga o'n g'isht qo'ydirgan, bir daraxt kesdirsa, o'rniga o'n ko'chat ektirgan, Sohibqironning dunyoda tinchlik o'rnatish, Yevropani xalos etishdagi xizmatlarini, insoniyat sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasini dunyoga isbotlab beramiz», -dedi I.A.Karimov. Dastavval «Amir Temur – jahon tarixida» qomusiy kitobi tayyorlandi. 1996 yili kitob xorij tillariga tarjima qilingach, xalqaro jamoatchilik va dunyo tarixchilarining katta qiziqishiga sabab bo'ldi. YuNeSKO Amir Temur tavalludining 660 yilligini xalqaro miqyosda keng nishonlash haqida qaror qabul qildi. 1996 yil mamlakatimizda Amir Temur yili, deb e'lon qilindi, yurtimiz bo'ylab bu ulug' to'yga tayyorgarlik boshlandi. 1996 yil 24 aprelda Parij shahrida «Temuriylar davrida ilm-fan, madaniyat va maorifning gullab-yashnashi» haftaligi boshlandi. O'sha kuni Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov YuNeSKO Ijroiya kengashi sessiyasida, YuNeSKO qarorgohida temuriylar davriga

bag'ishlangan ko'rgazma ochilishida nutq so'zladi. Yurtdoshlarimiz yaxshi eslaydi: ko'rgazma boshlanishiga ozgina vaqt qolganda, zalga kutilmaganda Fransiya Prezidenti Jak Shirak kirib kelgan. Islom Karimov Jak Shirakni ekspozitsiya bo'ylab aylantirib, Amir Temurning insoniyat sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi haqida zavq bilan so'zlab bergan. O'shanda Jak Shirak «Islom Karimovdek o'z Vatani tarixini bunchalik mukammal biladigan, ulug' ajdodlari nomini bunday yuksak e'zozlaydigan davlat rahbari dunyoda kamdan-kam bo'ladi», deb qoyil qolgan. Fransiya Prezidenti O'zbekiston rahbariga yuksak hurmat ifodasi sifatida Amir Temurning 1402 yili Fransiya Qirol Sharl VI ga yo'llagan nomasini taqdim etgan. Bu eksponat bugun Temuriylar tarixi davlat muzeyidagi eng noyob tarixiy hujjatlardan hisoblanadi. Aynan mana shu tarixiy haftalikda Birinchi Prezidentimizning jasorati va fidoyiligi bois dunyo ahli Parijda nima uchun XV asrdayoq Amir Temurga yodgorlik o'rnatilib, unga «Yevropaning xaloskoriga» degan chuqur ramziy ma'noli so'zlar bitilganini, Sohibqiron xizmatlari tufayli Osiyo va Yevropa tarixda birinchi marta yagona jo'g'rofiy-siyosiy makonda birlashganini teran angladi – jahon Amir Temurni buyuk bunyodkor sifatida tan oldi. Haqiqatdan ham, YUNESKO kotibiyati Amir Temur tavvaludining tantanalariga katta e'tibor qaratib kelmoqda. Jumladan, YUNESKO " Ipak yo'li – muloqot yo'li " xalqaro ilmiy ekspeditsiyasining koordinatori hazrati Amir Temur haqidagi quyidagi so'zlari e'tiborga molikdir: „ Temur nihoyatda serqirra, faoliyati murakkab siymo, ulug' zot. U, bir tomondan, dunyoni titratgan jahongir, ikkinchi tomondan, dunyo avlodlarini ma'naviy, moddiy qarzdor qilgan buyuk inson! Tarixda buyuk sarkardalar ko'p bo'lgan. Agar fransuz sarkardasi Napoleon bilan Temurni qiyoslaydigan bo'lsak, ikkinchisi birinchisidan o'n chandon ustun turadi. Napoleon jahongir bo'lib, brogan joylarini vayron etib, bunyodkorlikka kam e'tibor bergan bo'lsa, Temur o'z davrining buyuk sarkardasi – fотиhi sifatida ko'p yerlarni zabt etdi. Lekin u yerlarda ham binolar qurdirdi, kannalar qazdirib, suv chiqartirdi. Ammo bosib olgan joylaridagi eng yaxshi ustalarni, olimu fozillarni o'zi bilan birga olib yurib, bebaxo binolar bilan ko'pgina go'zal shaharlar bezagiga bezak, ko'rkiga ko'rk qo'shdi.”¹

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning tashabbusiga ko'ra Samarqandda o'z ishini boshlagan “Moddiy va nomoddiy madaniy merosni saqlash: dolzarb muammolar va ularni hal etish strategiyalari” xalqaro konferensiyasiga dunyoning 40 ta mamlakatidan tashrif buyurgan 300 ga yaqin taniqli sharqshunoslar – akademiklar, fan doktorlari, professorlar ishtirok etishdi.

¹ YUNESKO " Ipak yo'li – muloqot yo'li " xalqaro ilmiy ekspeditsiyasining koordinatori senegallik Dudu D'ening Amir Temur tavalludining 660 yilligiga bag'ishlagan nutqidan.

Taklif etilganlar orasida YuNESKO bosh direktori Adri Ozule ham bor. Bu Adri Ozulexonimning Ozbekistonga birinchi tashrifi edi.

Xalqaro konferensiya ish boshlashidan oldin YuNESKO bosh direktori Adri Ozule buyuk Amir Temur etti bog'idan biri – Bog'ishamolga o'xshab qayta qurilgan yangi bog'da mehmonlar uchun tashkilotchilar tomonidan xalqaro konferensiya va madaniy meros haftaligi mehmonlariga O'rta asrlardagi hayotni qayta tiklandi. Odre Azulexonim ham mazkur bog'da tashkil etilgan sahna ko'rinishlar va namoyish etilgan hunarmandchilik namunalarini ko'zdan kechirdi.

Shunda har bir mehmon Temuriylar davri voqeligiga o'zlarining eski kiyimlari va bosh kiyimlari, Samarqand ustalarining mahorat bilan ishlangan hunarmandchilik satrlari, sharqona bozorning ajoyib namunalaridan bahramand bo'lishdi. Teatrlashtirilgan va folklor spektakllaridan iborat chiqishlar yanada tarixga qaytishga turtki berdi.

Xulosa, Bir so'z bilan aytganda, shubhasiz, Parijdagi bayram tadbirlari ulug' davlat arbobi, mohir sarkarda, buyuk bunyodkor, fan, madaniyat, san'at va ta'lim homiysi bo'lmish Sohibqiron Amir Temurning jahon ma'daniyati, san'ati, fani, ilmiga, xususan, Sharq sivilizatsiyaga qo'shgan ulkan hissasini va mustaqil O'zbekistonimizning naqadar chuqur ma'naviy ildizlarga ega ekanligini va tobora oshib borayotgan xalqaro nufuzini dunyoga yana bir bor namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Lyusen Keren, Akmal Saidov Amir Temur va Fransiya. Toshkent „ Adolat” 1996.
2. Sharafiddin Ali Yazdiy: Amir Temur ajdodlari. Qomuslar bosh tahririyati Toshkent
3. Aziz Qayumov Amir Temur qissalari. Toshkent „ Yozuvchi” nashroyoti.
4. Lyusben Keren Amir Temur saltanati. Toshkent „ Ma'naviyat” 1999.
5. Мамараджабов, Б. (2023). САУДИЯ АРАБИСТОНИДАГИ ЎЗБЕК МУҲОЖИРЛАРИ ТАРИХИ: МУВАФФАҚИЯТЛИ АССИМИЛЯЦИЯ ВА ЙЎҚОТИЛГАН МИЛЛИЙ ИДЕНТИКЛИК. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(S/6).
6. Мамаражабов, В. N. M. O. G. (2023). MARKAZIY OSIYODA ARABLAR BILAN BOG'LIQ IJTIMOIIY QATLAMLAR. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(5), 1048-1052.
7. Мамаражабов, В. N. M. O. G. (2022). ARABISTON YARIM OROLIDA DAVLATCHILIKNING SHAKLLANISHI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(10), 118-121.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI PEDAGOG-
TARBIYACHISINING TA'LIM TARBIYA JARAYONINI
REJALASHTIRISH FAOLIYATI

Isomova Farog'at Tojiddin qizi

Osiyo Xalqaro Universiteti

Pedagogika va psixologiya kafedrari o'qituvchisi

E-mail: isomovafarogattojiddinqizi@oxu.uz

Anotatsiya: Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning nutq hamda o'qish kompetensiyalarini shakllantirishning mazmuni, ushbu kompetensiyalarning bola rivojlanishidagi o'rni va samaradorligi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar : nutq, bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiya, rivojlanish, kommunikatsiya, og'zaki nutq, ijtimoiy munosabat, o'qish, savodxonlik, o'yin, dastur.

Содержание формирования речевых и читательских компетенций детей дошкольного возраста

Аннотация: В статье раскрывается содержание формирования речевых и читательских компетенций детей дошкольного возраста роль и эффективность этих компетенций в развитии ребенка.

Ключевые слова: речь, знание, умение, компетентность, компетентность, развитие, общение, устная речь, социальная установка, чтение, грамотность, игра, программа.

Content of formation of speech and reading competences of children of pre-school

Annotation: The content of the formation of speech and reading competencies of children of preschool age the role and effectiveness of these competencies in child development is explained in the article.

Key words: speech, knowledge, skill, competence, competence, development, communication, oral speech, social attitude, reading, literacy. game, program

Rivojlanib borayotgan mamlakatimiz barcha sohalarda o'z rivojlanish strategiyalarni belgilab bormoqda. Binobarin, „2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” ham mamlakatimiz farovonligi va

uzluksiz taraqqiy etib borishini ta'minlaydi. Ta'lim esa taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi omili bo'lib xizmat qiladi. Bu borada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning „Qaysi sohani olmaylik, biz zamonaviy yetuk kadrlarni tarbiyalamasdan turib biron-bir o'zgarishga, farovon hayotga erisha olmaymiz. Bunday kadrlarni, millatning sog'lom genofondini tayyorlash, avvalo, maktabgacha ta'lim tizimidan boshlanadi" degan so'zlari yuqorida keltirilgan fikrimizning yorqin dalilidir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining barcha tarbiyaviy-ta'limiy ishlarida bolalarga nutq o'stirishni o'rgatish orqali ularning nutqiy kompetensiyalari shakllantirib boriladi. Ayniqsa, nutq o'stirish mashg'ulotlarida har bir bolaning nutqini rivojlantirish bo'yicha ishlar rejalashtiriladi. Bolalarga barcha mashg'ulotlarning mazmuni va mohiyati faqat nutq o'stirish orqali singdiriladi. Shu o'rinda rus pedagogi K.D. Ushinskiy „Nutq o'stirish- har qanday taraqqiyotning asosi, butun bilimning xazinasidir. Har qanday tushunish undan boshlanadi, u orqali o'tadi va unga qaytadi" deb ta'kidlab o'tgan. Maktabgacha ta'limning asosiy shakli mashg'ulotdir. Nutq o'stirish mashg'ulotlarida bola o'z nutqini tarbiyachining namunaviy nutqi bilan taqqoslashga, boshqa bolalar bilan o'quv materialini bajarishga, ya'ni tarbiyachining tushuntirishini, hikoyasini tinglashga, birgalikda rasmlarni, mediafilmlarni ko'rishga, suhbatlashishga, didaktik o'yinlarda ishtirok etishga, birgalikda kuylashga, musiqa tinglashga, ma'lum bir obyektga diqqatini qarata olishga, navbat bilan gapirishga o'rganadi. Bolalar mashg'ulotda yangi bilimlar (voqea va hodisalar o'rtasidagi bog'lanishlarga taalluqli so'zlar, nutqning grammatik shakllari) bilan tanishadilar, tarbiyachining nutqiy ko'rsatmasi orqali o'quv ishlarini bajarishga, ishlariga baho berishga o'rganadilar.

Nutq o'stirishni o'rgatish mashg'ulotlarini didaktik maqsadiga ko'ra quyidagi tiplarga ajratish mumkin:

- yangi materialni bayon etuvchi mashg'ulotlar;
- bilim, malaka va ko'nikmalarni mustahkamlovchi mashg'ulotlar;
- bilimlarni umumlashtiruvchi va bir tizimga soluvchi mashg'ulotlar;
- yakunlovchi yoki tekshiruvchi-hisobga oluvchi-sinovchi aralash mashg'ulotlar.

Bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotida ilgari hosil qilingan bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlovchi mashg'ulotlardan keng foydalaniladi. Masalan, sayohatlari haqida hikoya qilib berish, sport xonasi haqida suhbat, ilgari o'qib yoki hikoya qilib berilgan ertak yoki hikoyani qayta so'zlab berish, ilgari yod olgan she'rlarini takrorlash.

Bilimlarni umumlashtiruvchi va bir tizimga soluvchi mashg'ulotlar. Bu mashg'ulot turi o'zining mazmuni jihatidan ilgari hosil qilingan bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlovchi mashg'ulot turiga yaqinroqdir. Masalan, „Kimga nima kerak?“, „Do'kon“ o'yinlarida bolalar predmetlarni rangiga, shakliga, nima uchun mo'ljallanganligiga qarab tasniflaydilar. Katta guruhlarda ona yurt, kattalarning mehnati, transport haydovchisining mehnati, kitoblar haqida umumlashtiruvchi suhbat o'tkaziladi. Bunda bolalar oldiga materialni maqsadga qaratgan holda esga olish vazifasi qo'yiladi. Umumlashtiruvchi tipdagi mashg'ulotlar bolalarda mantiqiy tafakkurni, analitik-sintetik faoliyatni shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Hisobga oluvchi mashg'ulotlardan tasviriy faoliyatda keng foydalaniladi. Biroq bu mashg'ulot turi bolalarning nutq o'stirish bo'yicha bilim va malaka darajalarini aniqlash uchun zarurdir.

Ayrim bilimlar bo'yicha sinov-tekshiruv mashg'ulotlarini o'quv yilining boshida guruhga yangi qabul qilingan bolalarning bilimni aniqlash maqsadida o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Qilingan ishlarga yakun yasash maqsadida yilning oxirida ham sinov tekshiruv mashg'ulotlari o'tkaziladi.

Bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotida ko'proq aralash turdagi mashg'ulotlardan foydalanish joriy qilingan. Masalan, bir mashg'ulotning o'zida bolalarni yangi bilim beruvchi material bilan tanishtiriladi, ilgari hosil qilingan bilim (o'tilgan material) takrorlanadi va mustahkamlanadi. Nutq o'stirish mashg'ulotlari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ayrim vaqtlarda mashg'ulotni o'tkazishda qiyinchiliklar vujudga keladi.

Tasviriy faoliyat, jismoniy tarbiya, musiqa mashg'ulotlarida, barcha bolalar bir xilda faollik ko'rsatadilar, ammo nutq o'stirish mashg'ulotida barcha bolalar faol qatnashmaydilar. Rasm asosida hikoya tuzish, savollarga javob berish, she'rni yoddan aytib berish kabi topshiriqlar bo'yicha ba'zi bolalar javob beradilar, qolganlar esa o'rtoqlarining javobini to'ldiradilar. Mashg'ulot vaqti chegaralanganligi sababli, har bir bola bilan alohida shug'ullanish imkoniyati yo'q. Shuning uchun mashg'ulotlarda yuqori natijalarga erishish uchun ularni umumiy didaktik talablarga javob beradigan qilib tashkil etish kerak.

Har bir tarbiyachi mashg'ulotlarni tashkil etishda quyidagi didaktik talablarga qat'iy rioya qilishi lozim:

Mashg'ulotga oldindan puxta tayyorlanish, uning mazmunini, ta'lim usullarini aniqlash. Bunda nutq o'stirish bo'yicha bolalarning bilim va malakalari aniq bo'lishi kerak. Belgilangan dastur materialini o'rganish uchun zarur bo'lgan metodlar va usullar tanlanadi, mashg'ulotning tuzilishi va borishi oldindan o'ylab olinadi. Kerakli ko'rgazmali qurollar, o'quv jihozlari tayyorlab qo'yiladi,

individual (yakkama-yakka) ta'lim vazifalari aniqlanadi (yakka beriladigan topshiriqlar, bolalarni javob berishga chaqirish navbati belgilanadi).

Aqliy ish bilan bandlik yukini to'g'ri taqsimlash. Tarbiyachi ta'limning rivojlantiruvchi tamoyiliga amal qilib, bolalardan aqliy faollikni talab etuvchi, murakkab vazifalar beradi. Ba'zan bolani aqliy ish bilan band qilish yoki aqliy zo'riqishni talab etuvchi ish yetarli bo'lmaydi: bolalarning o'zlari mustaqil ravishda ish ko'rishga kirisha olmaydi, analitik-sintetik xarakterdagi nutqiy vazifalarni hal eta olmaydi; predmetlar o'rtasidagi bog'liqlikni (aloqadorlikni) aniqlay olmaydi; o'xshash narsalarni guruhlay olmaydi va hokazolar.

Aqliy ish bilan bandlik yukini (aqliy zo'riqishni) to'g'ri taqsimlashda mashg'ulotning aralash strukturasi (tuzilishi), shuningdek, xulosa chiqarish va taqqoslash uchun beriladigan savollar va topshiriqlar yordam beradi.

Mashg'ulotning tarbiyaviy xarakterga ega bo'lishi.

Nutqni rivojlantirish bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etishda ta'limning tarbiyaviy tomoni ham hisobga olinadi. Bolalar tomonidan nutq o'stirishni egallash, uning boyligini, jozibadorligini bilib olish vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishda yordam beradi. Ijtimoiy-tarixiy hayot voqealari, buyuk siymolar Navoiy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug'bek, Bobur, Amur Temur, Jaloliddin Manguberdi, Sobir Rahimov va hokazolar haqidagi hikoyalar axloqiy tuyg'ular bilan bog'liq bo'lib, ular bolalarni ona vatanga muhabbat, baynalminallik, kollektivizm, mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda katta ahamiyatga ega.

Mashg'ulotning jo'shqinlik xarakteriga ega bo'lishi. Mashg'ulotni boshlashdan avval bolalarda bilim olish istagini, qiziquvchanlikni, yangilikni bilib olishga ishtiyoqni vujudga keltirish kerak. Mashg'ulot bolalarda qoniqish hissini vujudga keltirishi lozim.

Ta'lim usullarini mashg'ulotning tuzilishiga qarab tanlash. Mashg'ulotning tuzilishi avvaldan aniq qilib belgilab qo'yilishi kerak. Mashg'ulotning boshida yangi material bilan tanishtirishda avvalgi mashg'ulotlarda o'rganilgan materiallar esga olinib, uni bolalar tajribasi bilan bog'lanadi. Katta guruhlarda ko'pincha mashg'ulotning maqsadi asoslab beriladi. Masalan, tarbiyachi bolalar bilan nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash bo'yicha mashg'ulotni boshlashda avval shunday deydi: „Aytishi qiyin so'zlarni to'g'ri talaffuz etishga o'rganish kerak. Chunki bizning nutqimiz to'g'ri, chiroyli, atrofdagilar uchun tushunarli bo'lishi lozim“. Tarbiyachining bunday asosli gapi bolalarning yangi bilim va ko'nikmalarni egallash zarurligiga ishontiradi. Mashg'ulotning asosiy qismini aniq rejalashtirish kerak bo'ladi. Uning birinchi bosqichida (yangi vazifani hal etishda) bolalarga nutqiy faoliyatning va uning maqsadini aniqlashga yordam beruvchi ta'limning asosiy usullari mujassamlashgan bo'ladi. So'ngra bolalar tomonidan

mustaqil ishlar amalga oshiriladi va tarbiyachi tomonidan rahbarlik qilinadi. Mashg'ulotning yakuniy qismi qisqa va jo'shqinligi bilan ajralib turishi kerak, ya'ni mashg'ulotda o'zlashtirilgan materialni mustahkamlash uchun mavzuga yaqin bo'lgan badiiy asarlarni o'qib berish, she'r aytib berish, topishmoq aytish, didaktik o'yin kabi usullardan foydalaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Isomova, F. A. T. Q. (2022). MAKTABGACHA TALIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASHDA NUTQ O'STIRISH MASHG'ULOTLARINING AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 947-949.
2. Isomova Farog'at Tojiddin qizi. (2023). THE CONTENT OF THE FORMATION OF SPEECH AND READING COMPETENCES OF PRESCHOOL CHILDREN. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, 10(11).
3. Isomova Farog'at Tojiddin qizi. (2023). INVALIDITY IN CHILD EDUCATION IS THE BASIS OF DEVIANT BEHAVIOR. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(10), 342–346.
4. Isomova Farog'at Tojiddin qizi. (2023). MODERN IN FORMING SPEAKING COMPETENCES OF PRESCHOOL CHILDREN APPROACHES. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(10), 347–352.
5. G'aniyevna, P. R. F. (2022, June). MAKTABGA TAYYORLOV GURUHLARI UCHUN SAVODXONLIKKA O'RGATISH MASHG'ULOTLARIDA, A'HARF-TOVUSHINI O'RGATISH METODIKASI. In *E Conference Zone* (pp. 38-41).
6. Ravshanovna, X. S. (2022). BO 'LAJAK O 'QITUVCHILAR VA O'QUVCHILAR O 'RTASIDAGI MULOQOT JARAYONI VA UNGA QO 'YILADIGAN TALABLAR. *Лучший инноватор в области науки*, 1(1), 814-819.
7. XALILOVA, S. (2021). JAHON PEDAGOGIKASIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK MULOQOT VA MILLIY PEDAGOGIK MULOQOT USLUBLARIGA TRANSFORMATSIYASI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 1(1).
8. Akbarovna, I. S. (2023). NEGATIVE AND POSITIVE CHANGES IN ADOLESCENT BEHAVIOR. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 192-197.

9. Akbarovna, I. S. (2023). SOCIO-PSYCHOLOGICAL FACTORS OF BEHAVIOR FORMATION IN ADOLESCENTS. TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN, 1(5), 184-191.
10. Akbarovna, I. S. (2023). THE DEVELOPMENT OF CONSCIOUSNESS AND THE TEACHING OF CONCEPTS OF THE UNCONSCIOUS TO STUDENTS. TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN, 1(5), 107-114.
11. Bahodirovna, H. N. (2023). BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI O'QITISH METODIKASI FANINING METODOLOGIK VA ILMIY ASOSLARI.
12. Hojiyeva, N. (2023). METHODS OF TEACHING MOTHER TONGUE IN PRIMARY CLASSES SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL BASIS. *Modern Science and Research*, 2(9), 424-428.
13. Bahodirovna, H. N. (2023). TA'LIM JARAYONIDA BOSHLANG'ICH SINFLARDA TEXNOLOGIYA FANINI O'QITISH MUAMMOSINING YORITILISH MAZMUNI. *PEDAGOGS jurnali*, 1(1), 209-209.
14. Kozimova, N. A. (2023). BUGUNGI TA'LIM TIZIMIDA ZAMONAVIY O 'QUVCHI SHAXSINING IJTIMOY VA PSIXOLOGIK JIHATLARI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(10), 44-46.V
15. Abduqahhorovna, N. K. (2023). PSIXOLOGIK KONSULTATSIYAGA MUROJAAT QILUVCHI OTA-ONALARNING FARZAND TARBIYASI MUAMMOLARINI O 'RGANISHDA HADISLARDAN TERAPIYA SIFATIDA FOYDALANISH.
16. Sobirovna, S. Y. (2023). O 'YIN ORQALI BOLA TAFAKKURI VA NUTQINI OSTIRISH. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR*, 1(3), 93-99.
17. Yulduz, S. (2023). KREATIV YONDASHUVLAR ASOSIDA BOLALAR NUTQI VA TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 23(2), 87-92.
18. Tursunova, Z. (2023). METHODOLOGY OF MOTHER TONGUE TEACHING IN PRIMARY SCHOOLS. *Modern Science and Research*, 2(9), 350-352.
19. Malikovna, K. R. (2023). IQTISODIY MUSTAQILLIK-YANGILANAYOTGAN O 'ZBEKISTON IJTIMOY-IQTISODIY SALOHİYATINING MODDIY ASOSI. *Scientific Impulse*, 2(15), 18-22.
20. Karimova, R. N. M. (2018). DEVELOPMENT OF MOTIVATION IN HISTORY LESSONS USING ELEMENTS OF LOCAL LORE. In XLIII

INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE" INTERNATIONAL SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS AND PROSPECTS OF MODERN SCIENCE AND EDUCATION" (pp. 121-123).

21. Karimova, R. M. (2020, March). The Participation of the Tajiks in the Development of Small and Medium-Sized Businesses in the Russian Far East. In International Scientific Conference" Far East Con"(ISCFEC 2020) (pp. 277-281). Atlantis Press.

22. Каримова, Р. М. (2020). ФИЛОСОФИЯ НЕЗАВИСИМОСТИ ЯВЛЯЕТСЯ ИДЕОЛОГИЧЕСКОЙ ОСНОВОЙ НАЦИОНАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ СТРАНЫ. In EUROPEAN RESEARCH: INNOVATION IN SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY (pp. 47-49).

23. Лукмонова, С. (2022). ВО 'LAJAK BOSHLANG 'ICH SINF O'QITUVCHISINING RAQAMLI TA'LIM RESURSLARIDAN FOYDALANISHGA TAYYORLIGINI SHAKLLANTIRISH: Lukmonova Salomat Gafurovna, Boshlang'ich ta'lim nazariyasi kafedrası o'qituvchisi, Buxoro davlat universiteti orcid 0000-0001-9040-0232. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (1), 221-226.

24. Gafurovna, L. S. (2021). BOSHLANG'ICH SINFLARDA RAQAMLI TA'LIM RESURSLARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI. In *Научно-практическая конференция*.

25. Narziyeva, S. (2023). PSYCHOLOGICAL VIEWS ON THE CHOICE OF PROFESSION. *Modern Science and Research*, 2(10), 333-336.

26. Narziyeva Shaxnoza Rustamjon qizi. (2023). PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE MANIFESTATION OF ADOLESCENT EMPATHY. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(9), 132-134.

27. O'ktam qizi Buxoro, S. M. (2022). BOLANING NUTQINI RIVOJLANTIRUVCHI O'YINLAR. *PEDAGOGS jurnali*, 1(1), 484-486.

28. Shukurova Madina O'ktam qizi. (2023). "Methods of formation of spiritual and moral qualities in 6-7-year-old children in preschool educational organization". *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(10), 353-356.

29. Madina O'ktam qizi Shukurova. (2023). Speech grow up in training using interactive methods. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(10), 357-360.

30. Сайфуллаева, Н. Б., & Марданова, Ф. Я. (2021). научно-методические основы организации самостоятельной работы по высшей математике. *Проблемы науки*, (4 (63)), 84-87.

31. Сайфуллаева, Н. Б. (2019). Роль дидактических игр в умственном развитии учащихся в математике начального класса. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS OF PHILISOPHY, PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY (pp. 102-106).

32. Сайфуллаева, Н. Б. (2023). ВАЖНОСТЬ МАТЕМАТИКИ И ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК ДЛЯ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ: Сайфуллаева Нозима Баходировна, преподаватель кафедры “Теория начального образования”, Бухарский государственный университет. Город Бухара. Республика Узбекистан. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (1), 305-307.

33. Сайфуллаева, Н. Б. (2023). РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ КОМПЬЮТЕРНЫМ НАУКАМ. Universum: технические науки, (4-1 (109)), 41-43.

34. Сайфуллаева, Н. Б. (2022). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ДИДАКТИЧЕСКОГО ПРОГРАММНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ В ОБУЧЕНИИ МАТЕМАТИКЕ. НОВЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: сборник статей V, 10.

**BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHISINING RAQAMLI
TA'LIM RESURSLARIDAN FOYDALANISH KO'NIKMALARINI
RIVOJLANTIRISH TIZIMI**

Lukmonova Salomat Gafurovna
Osiyo xalqaro universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining raqamli ta'lim resurslaridan foydalanishga tayyorligini shakllantirishga oid fikrlar keltirilgan bo'lib, bu dolzarb pedagogik vazifani qanday amalga oshirish kerakligi batafsil yoritilgan. Hozirgi raqamli axborot davrida bu fikrlar ta'lim tizimida ham juda yuqori ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Kalit so'zlar: raqamli ta'lim, kompyuter, resurs, axborot, zamonaviy, electron ta'lim, informatika, multimedia texnologiyalari.

**СИСТЕМА РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ
НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ ПО ИСПОЛЬЗОВАНИЮ ЦИФРОВЫХ
ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ РЕСУРСОВ**

Лукмонова Саломат Гафуровна
Преподаватель Азиатского международного университета

Аннотация: В статье рассказывается о формировании готовности будущего учителя начальных классов к использованию цифровых образовательных ресурсов и подробно рассказывается о том, как решать эту актуальную педагогическую задачу. В сегодняшнюю цифровую эпоху эти идеи становятся все более важными в системе образования.

Ключевые слова: цифровое образование, компьютер, ресурс, информация, современное, электронное образование, информатика, мультимедийные технологии.

**A SYSTEM FOR DEVELOPING THE SKILLS OF A FUTURE
PRIMARY SCHOOL TEACHER IN THE USE OF DIGITAL
EDUCATIONAL RESOURCES**

Lukmonova Salomat Gafurovna
Lecturer at Asia International University

Annotation: The article tells about the formation of the readiness of the future primary school teacher to use digital educational resources and tells in detail how to solve this urgent pedagogical problem. In today's digital age, these ideas are becoming more and more important in the education system.

Keywords: digital education, computer, resource, information, modern, electronic education, informatics, multimedia technologies.

S. D. Karakozovning fikricha ta'limni axborotlashtirish - ommaviy kommunikatsiya va kompyuter tarmoqlari bazasida yagona axborot-ta'lim makonini yaratish jarayoni bo'lib, uning tayanch kategoriyasi – axborot-ta'lim tizimlari, uni yaratish tamoyillari esa integrativ va gumanistik asosga ega. Axborot jamiyati doirasida, bir tomondan, mutaxassis faoliyatining asosiy shakllari va usullari o'zgaradi, bu muqarrar ravishda uning kasbiy tayyorgarligi mazmunining o'zgarishga olib keladi. Boshqa tomondan, uni qurshab turgan ijtimoiy-iqtisodiy va ta'lim muhiti o'zgaradi, ta'lim mazmunini o'zgartirish talablari bilan birgalikda mutaxassisni tayyorlash shakllari, vositalari va usullarining o'zgarishiga olib keladi. Bularning barchasi mutaxassislarni, shu jumladan boshlang'ich maktab o'qituvchilarini ham kasbiy tayyorlash tizimi uchun yangi rivojlanish modellarini izlashni talab qiladi.

K. V. Sokolova axborot jamiyatida “kichik yoshli maktab o'quvchilarini AKTdan foydalanish doirasida intellektualizatsiyalash va ijtimoiylashtirish”ning muhim ahamiyatni ta'kidlab, bu jarayonlar o'zaro bog'liq ikki yo'nalishda olib qaralishi lozimligini qayd qiladi: boshlang'ich ta'lim tizimiga informatika fanini va axborot texnologiyalarini deyarli barcha o'quv fanlariga kiritishdir.

Shu munosabat bilan, ta'limni modernizatsiya qilish sharoitida, L.L. Bosovoyning fikricha, boshlang'ich sinf o'quvchilari tomonidan “Informatika va AKT” mustaqil o'quv predmetini o'rganish jarayonida amalga oshiriladigan informatika va AKT vositalari va usullarini aniq bir maqsadga qaratilgan tarzda o'zlashtirish yoki boshqa o'quv predmetlari o'rganish va sinfdan tashqari ishlarda o'quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirishga, mustaqil ravishda bilim olish qobiliyatini shakllantirish, axborot-o'quv, eksperimental-tadqiqot faoliyati, mustaqil axborot faoliyatining turli-tuman ko'rinishlarini amalga oshirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalarni AKT vositalari bazasida qo'llash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

K. V. Robert o'quv-metodik ta'minotning yangi avlodi tarkibida lokal va global tarmoqlarning axborot resurslari bilan bog'langan ta'limiy vazifali elektron nashrlar sifatida taqdim etiladigan ta'lim vositalari muhim o'rin tutishini aytadi.

